

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI**

"INTERYER VA LANDSHAFT DIZAYNI" KAFEDRASI

BO'RONOV NIZOMIDDIN SOBIROVICH

5150900 – “Dizayn”(Arxitektura muhitlari dizayni)
yo‘nalishi uchun

“BADIY LOYIHALASH”
fanidan

O'QUV QO'LLANMA

Toshkent – 2020

UDK:659.128

Muallif: Bo'ronov N.S.

“Badiiy loyihalash” o‘quv qo‘llanma.

Ushbu o‘quv qo‘llanma “Landshaft dizayni va interyer” kafedrasining talabalari uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanma vizual kompozitsiya va loyihalash asoslari bo‘yicha tayanch bilimlarni beradi. Bu predmetni o‘rganish nafaqat ranglarni va hajmlarni emotsional baholashdagi bog‘liqlikni, ob’yektiv xususiyatlari va qonuniyatlarni o‘rgatadi.

Butun nazariy materiallar auditoriyada bajariladigan amaliy va mustaqil ishlar seriyasi orqali o‘zlashtiriladi.

O‘quv qo‘llanma arxitektura muhitlari dizayni talabalari uchun ham, boshqa oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasasi talabalari uchun ham ahamiyatlidir.

Taqrizchilar: S.S. Elmurodov – TAQI “Interyer va landshaft dizayni” kafedrasi dotsenti.

E.M. Muhammadiev - SamDAQI, «Landshaft dizayni va interer» kafedrasi professori

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining **2018 yil, 25-avgustdagি 744-sonli buyrug‘ining 9-ilovasiga asosan o‘quv qo‘llanma sifatida nashr etishga ruxsat berildi.**

©TAQI

Annotatsiya

Ushbu o‘quv qo‘llanma “Landshaft dizayni va interyer” kafedrasining talabalari uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanma vizual kompozitsiya va loyihalash asoslari bo‘yicha tayanch bilimlarni beradi. Bu predmetni o‘rganish nafaqat ranglarni va hajmlarni emotsional baholashdagi bog‘liqlikni, ob’yektiv xususiyatlari va qonuniyatlarni o‘rgatadi.

Butun nazariy materiallar auditoriyada bajariladigan amaliy va mustaqil ishlar seriyasi orqali o‘zlashtiriladi.

O‘quv qo‘llanma arxitektura muhitlari dizayni talabalari uchun ham, boshqa oliv va o‘rta maxsus ta’lim muassasasi talabalari uchun ham ahamiyatlidir.

Аннотация

Этот учебник доступен на кафедре ландшафтного дизайна и интерьера предназначен для студентов. Учебник визуальной композиции и предоставляет базовые знания по основам дизайна. Изучите этот предмет не только зависимость от эмоциональной оценки цветов и объемов, цель учит свойства и законы.

Все теоретические материалы практичны и независимы, выполняются в классе. Осваивается через серию работ.

Учебник отличается для студентов архитектурного дизайна. Это также важно для студентов высших и средних специальных учебных заведений.

Annotation

This tutorial is available at the Department of Landscaping and Interior Designs designed for students. Textbook visual composition and Provides basic design knowledge. Learn this subject not only dependence on the emotional assessment of colors and volumes, the goal teaches properties and laws.

All theoretical materials are practical and independent, performed in class. It is mastered through a series of works.

The textbook is different for students of architectural design. It is also important for students of higher and secondary specialized educational institutions.

KIRISH

Jamoat binosining me'moriy tipologiyasi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy-madaniy omillar bilan bir qatorda, aniqrog'i, ular asosida me'moriy asarning badiiy qiyofasini shakllantiradi. Oxirgi yillarda obyektlarning tipologik qatori ma'lum darajada o'zgardi: binolarning yangi tiplari paydo bo'ldi; ko'p funksiyalilik odatiy hol sifatida qabul qilindi; inshootlarda universal foydalanish uchun mo'ljallangan hajmlar loyihalash tadbiq etildi. Binolarning qaror topgan me'moriy tipologiyasining ijtimoiy o'zgarishlarga bo'lgan munosabati doimiy dolzarblik kasb etdi.

Shaharlarning uzluksiz va

barqaror rivojlanishi, nafaqat tarixiy-madaniy meros ob'yektlarini, balki tarixiy qaror topgan muhitni saqlab qolinishi yangi iqtisodiy munosabatlar bilan birgalikda yangi tipologik tuzilmalar rivojlanishi uchun turki bo'lib xizmat qildi.

Jamoat bino va inshootlarini me'moriy loyihalanishining tahliliga ko'ra, tarixiy markazlar rekonstruksiysi ham juda muhim va alohida hal qilinadigan muammolar sirasiga kiritildi. Ushbu muammoni hal qilish uchun uning tarkibiga quyidagi prinsiplar kiradi:

- mavzelarning tarixiy qaror topgan rejaviy tuzilmasini saqlab qolish;
- har bir mavzeni yakunlangan ob'yekt va yaxlit tuzilma birligi sifatida talqin qilish;
- mavjud ob'yektlarni yangi funksiyalar uchun rekonstruksiya qilishda shaharsozlik karkasi asosini tashkil qiluvchi binolarni saqlab qolish;
- kompozitsiyani ochiq va yopiq bo'shiqlar mujassamligi asosida tuzish;
- binolar qavatlarini cheklash;
- imoratlar qurilishining modullash (o'zgartirish) va yagona masshtabda bajarish;
- ichki hajmlarni yagona prinsip – yer osti sath bo'ylab savdo ko'chasi bilan birlashtirilgan atriumlar asosida tashkil qilish;
- yer usti transporti faqat savdo muassasalari va umumiyligida ovqatlanish korxonalariga yer ostida xizmat ko'rsatishda qo'llaniladi;

- binolar o'z mohiyatiga ko'ra ko'p funksiyali komplekslar bo'lib, ularning tarkibidagi turar-joy maydonlari taxminan 20% ni tashkil etadi

Ushbu metodga asoslangan holda tashkil etilgan tarixiy markaz hududning kompleks funksional zonalanishi hisobiga muvozanatlashgan universal, o'zini o'zi ta'minlovchi avtonom tizimga aylanadi. Bu tizim, turli funksional bloklarga ega obyekt kabi, davr taqozosi va talablariga muvofiq turli sharoitlarga oson moslashuvchi muayyan o'zgaruvchan tuzilmadir. Bunday tuzilmaning butun shaharga nisbatan va kelgusidagi kommunikativligi aynan uning universallikka asoslangan holda amalga oshiriladi. Biron bir, hattoki, eng dolzarb hisoblangan funksiyaga ko'proq e'tibor berilishi shaharga xizmat ko'rsatish tizimiga salbiy ta'sir o'tkazilishiga olib keladi. Ta'kidlash zarurki, u yoki bu ijtimoiy funksiyaga bo'lgan ehtiyoj doim ham kuchli bo'lmaydi, lekin, yaxlitlik va to'laqonli faoliyat buzilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida u umumiyl tuzilmada mavjud bo'lishi lozim. Ob'yeektlarning qo'shni bino va inshootlar funksiyalari, konstruksiysi va shaklini inobatga olmasdan turib joylashtirilishi, ushbu tarkibiy qismlarning jamoat markazidagi mutanosibligiga rioya qilmaslik (nuqtali, ya'ni alohida joylashtirish prinsipi) – tarixiy yadro va umuman shaharning buzilishiga sabab bo'ladi. Ijtimoiy funksiyalarning barchasi – diniy, ta'lim, tomosha, moliyaviykredit, axborot ta'minoti, maishiy va transport xizmat ko'rsatish, boshqaruv, reabilitasiya, ovqatlanish, savdo-sotiq – ushbu yangilanish jarayonini aks ettiradilar. Aynan shunday o'zaro ta'sir va o'zaro bog'liqlik shahar faoliyati to'laqonli bo'lishini, ya'ni merosning o'z mohiyatiga ko'ra tarixiy-madaniy qiymatga ega ekanligini va aholi, ma'muriyat, investorni qoniqtiradigan funksionallik darajasini ta'minlab beradi. Jamoat binolarining arxitekturasi turli omillarga bog'liq holda shakllanadi, uning turi esa bino arxitekturasi rivojlanishini belgilab beruvchi dastlabki shart hisoblanadi.

Jamoat bino va inshootlari arxitekturasi ijtimoiy-iqtisodiy, shaharsozlik, ekologik, sanitariya, funksional, hajmli-rejali, konstruktiv, kompozitsion-badiiy omillarning o'zaro va birgalikdagi ta'siri ostida shakllanadi. Binolarning turli tiplari uchun muayyan davrning bir qator sharoitlariga bog'liq holda u yoki bu

omilning ta'siri ahamiyatliroq va ustuvor bo'lib qoladi. Ularni izchilllik bilan ko'rib chiqamiz.

Insoniyatning ilmiy-texnik taraqqiyot tomonidan belgilab berilgan bugungi hayot tarzining sur'ati ilm-fan, biznes, hordiq chiqarish va madaniyat kabi sohalardagi integratsion jarayonlar yanada kuchayishini taqozo etadi. Bu esa, o,z navbatida, belgilangan maqsadlarga eng samarali ravishda etishish uchun imkon qadar qulay yashash sharoitlari yaratilishini talab qiladi. Bugungi kunda bu funksiyani turli qulayliklar va sig,,imga ega, turli vazifalar uchun mo,,ljallangan mehmonxona komplekslari bajarmoqda. Xizmat ko,,rsatish darajasi yuqori bo,,lgan yangi mehmonxonalardagi reprezentativ va maishiy xonalar hajmining ortishi – ular tarkibining sifatiy o,,zgarishi – odatiy holat sifatida qabul qilinmoqda, natijada, aksariyat mehmonxonalar ko,,p funksiyali konglomeratlarga aylanib bormoqda.

Bu kabi konglomerat tarkibiga kiruvchi umumfoydalanish uchun mo,,ljallangan turli xonalar kongress, majlis va shunga o,,xhash ommaviy tadbirlarni o,,tkazish uchun zarur bo,,lgan barcha sharoitlari yaratilgan to,,plam sifatida qabul qilingan. Ushbu to,,plam tarkibiga quyidagilar kiradi: konferenzallar yoki universal turdagи zallar va ular atrofida shakllanuvchi umumi foydalanish uchun mo,,ljallangan xonalar, shuningdek restoran va barlar, ko,,ngil ochar xarakterga ega xonalar, qo,,shib qurilgan va ochiq basseynlar, dam olish, ko,,ngil ochar, savdo, maishiy xizmat ko,,rsatish bilan shug,,ullanuvchi muassasalar uchun ko,,plab xonalar va, albatta, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, axborot sohasida xizmat ko,,rsatishga mo,,ljallangan alohida majmualar . Bu kabi konglomeratni o,,z ichiga olgan mehmonxonalarning namunasi sifatida “kongress-otel” yoki “konferens-otel”, shuningdek ishbilarmon kishilar uchun mo,,ljallangan “biznes-otel” deb nomlanuvchi mehmonxonalarini keltirish mumkin. Ulardagi jamoat qismning o,,ziga xos xususiyatlaridan biri, bu majlislar, simpoziumlar va konferensiylar o,,tkaziladigan zallar, aloqa bo,,limlari va bank, teletayp, teleks va kompyuter xonalari, shuningdek basseyn, sauna, kegelban kabi hordiq chiqarish va ko,,ngil ochar xonalarning mavjudligidir.

Mamlakatimizdan mehmonxonalar fondi bir turda emas. Turli davrlarda qurilgan mehmonxonalar arxitekturasi, sigimi, qavatliligi, jihozlanishi va uskunalarini, xonalar fondining tarkibi va sifati, xonalar toplami va maydoni bo'yicha farqlanadi.

I. BOB. TANLANGAN XUDUDNI ZONALARGA AJRATISH

Aholi punktlarini landshaftli rejalahning maqsadi ko‘kalamzorlashtirish va landshaft arxitektura vositalari bilan yaxlit, garmonik (uyg‘un) shahar muhitini shakllantirish hisoblanadi. Bunda bosh vazifa atrof-muhitning tabiiy va sun’iy komponentlari orasidagi optimal munosabatni uning barcha iyerarxik sathlarini ta’minlashdan iborat bo‘lib, bunda tabiatning insonga sog‘lomlashtiruvchi ta’sirini kuchaytirish va sanoat hamda qurilishning tabiatga salbiy ta’sirini minimumga keltirishdir.

Shaharda va uning atrofida ayrim tabiiy majmualarni oddiygina ajratish va saqlab qolishning o‘zi yetarli emas. Shahar quruvchilari tashqi muhit omillarining doim o‘zgarishiga qaramay, tabiat bilan aloqalar susaymasdan, aksincha kuchayib boradigan shahar va uning atrofi rivojini belgilab beruvchi turli xil, qulay va hayotiy modellarini nazorat jihatdan, keyin esa amaliy jihatdan topishlari va sinab ko‘rishlari zarur.¹

Aholi turar joylari, xususan shaharlar va asosan yirik shaharlar turli funksional hududlarga bo‘linadigan maydonlardan iborat. Bular markaziy, chetki, sanoat, rekreation hududlar, tashqi transport hududlari va boshqalar. Bu hududlarni landshaftli tashkil etish aniq funksional vazifaga ham, rejali va fazoviy tashkil etishning o‘ziga xos jihatlarini belgilovchi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, sanitariya-gigiyenik, shahar qurilishi va boshqa omillarga bog‘liq. Bunda shaharni landshaftli rejalahshtirishga asosan ikki guruh omillar ta’sir ko‘rsatadi; landshaftli (yoki tabiiy) va shahar qurilishi (funksional rejalah).

Landshaft omillari, shu jumladan, tabiiy-iqlim vaziyati, shaharning qay tarzda rivojlanayotganiga – ixcham tashkil bo‘lgan joy yoki chiziqli tashkil bo‘lgan joy ekaniga belgilovchi ta’sir ko‘rsatadi. U o‘zining tashqi atrofiga keng ochilgan bo‘ladimi yoki go‘yo unga teskari o‘girilgan bo‘ladimi, bu joyning gidrografik tarmog‘ining tavsifiga; balandliklarning mavjudligiga; qurilishni o‘zlashtirish uchun yaroqsiz hududlarga, harorat, shamol, insolatsion tartiblarga, tuproqning

unumdorligiga, o'simlik massivlarining joylashishiga va hokazolarga bog'liq. Bu landshaft omillarining ta'siri, ayniqsa, yangi shaharlarda va uncha katta bo'limgan shaharlarda sezilarli bo'ladi. Yirik va juda katta shaharlarda landshaft omillar, o'z qiyimatini saqlab qolsa-da, uncha yaqqol bo'lmaydi. Bunda shaharning ayrim tumanlari turli xil landshaft sharoitlarida bo'ladi va o'z-o'zicha rivojlanadi.

1.1. YO'LLAR

Ko'cha va yo'llar qadimdan shakllanib, insoniyat tarixida ularning jamoa sifatida faoliyati bilan bog'lik ravishda rivojlanib kelgan. Tabiiy va tarixiy shart sharoitlarning xususiyatiga qarab ularning xududiy mutanosibligi shakllanib borgan. Tarixdan ma'lumki, taxminan eramizdan 1000 yil oldin quruqlikdagi sun'iy yo'llar shakllana boshlagan. Bunga misol qilib qadimgi Xitoy bilan Yevropani bog'lagan «Buyuk ipak yo'li» ni keltirish mumkin.

Bugungi kunda zamonaviy shaharlarda ko'cha-yo'l tarmog'i shahar transport tizimining asosini tashkil qilib, yildan-yilga ularga quyiladigan talablar ortib bormoqda.

Shaharning loyihaviy tarkibida ko'cha-yo'l tarmog'ini oqilona yechimini topish birlamchi masaladir.

Ko'cha tarmog'ining eski shakllari zamonaviy shaharozlikka mos kelmaydi: kichik kvartallarni chegaralagan ko'chalarda chorrahalarining ko'pligi, transport oqimini o'tkazishni kamaytiradi, qiyinlashtiradi. Markaziy tumanlarda ma'muriy-jamoat va savdo binolarining haddan tashqari ko'pligi katta miqdordagi aholi va transportni u yerga kelishi sabab bo'lib, ularning harakatini tashkil etishni qiyinlashtiradi.

Tashqi yo'llar ShNQ bo'yicha qurilib (ShNK 2.05.02- 07 «Avtomobil yo'llari»), quyidagi parametrlarga ega.

1.1-jadval


Ko‘rsatkichlar	Avtomobil yo‘llari kategoriyasi				
	I	II	III	IV	V
Harakatning hisobiy tezligi, km/s	150	120	100	80	60
Qatnov qismining kengligi, m	Kamida 15	7,5	7	6	4,5
Obochina kengligi, m	3,75	3,75	2,5	2	1,75
Er polotnasi kengligi	Kamida 27,5	15	12	10	8
Maksimal bo‘ylama qiyalik, %	30	40	50	60	70
Minimal egrilik radiusi, m	1000	600	400	250	125

I kategoriyali yo‘llarning qarama-qarshi yo‘nalishlari kamida 5 m kenglikdagi ajratuvchi polosa quyiladi (ulkan shaharlar va sanoat markazlari atrofida yo‘lni istiqbolda kengaytirishni ko‘zda tutgan holda, ikkala yo‘nalishda 3,75m qatnov qismi qushish uchun ajratuvchi polosalar 12,5 m kenglikda quriladi).

Ko‘cha – bu aholi turarjoyining bir qismi bo‘lib, shahardagi barcha harakatni o’tkazishga, oqava suvlarni oqizishni tashkil etish, yer osti tarmoqlarni o’tkazish, ko‘kalamzorlashtirish va yer usti qurilmalarini o‘rnatishga mo‘ljallanadi.

Bundan tashqari, ko‘chalar – bu shahardagi bino va inshootlar ansambliga estetik, ekologik ruh bag‘ishlovchi ochiq fazoviy muhitdir. Ko‘chalarning chegaralari eni bo‘yicha bosh rejada belgilanuvchi «Qizil chiziq» lar bilan belgilanadi.Qizil chiziqlar qarama-qarshi joylashgan mikrorayonlarni, sanoat rayonlarini, bog‘larni, xiyobonlarni, sport majmularini, turarjoylar va boshqa inshootlarni ko‘cha xududidan ajratib turadi (1.1-rasm). Qizil chiziq chegarasidan

ko‘cha tarafga o‘tuvchi bino va inshootlar yoki ularning biror qismini qurish qat’iyan ta’qiqlanadi.



1.1-rasm. Ko‘cha elementlari:

1-qatnov qismi; 2-ajratuvchi polosa; 3-ajratuvchi yashil polosa; 4-ariq;
5-piyodalar yo‘lkasi; 6- tashqi yoritish chiroqlari.

Ko‘chaning chegarasida quyidagilar: transport vositalarini utkazish uchun qatnov qismi, piyodalar harakati uchun trotuarlar, velosiped yo‘laklari, relsli transportlarning yo‘llari, ko‘kalamzor qismi, yer usti qurilmalari-tashqi yoritish chiroqlarining tayanchlari, elektr transportlari uchun tayanchlar, ko‘cha harakatini boshqarishni ko‘rsatuvchi belgilar va turli xildagi qurilmalar joylashadi.

Ko‘chadagi yashil polosalar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- trotuar bilan binolar orasida joylashadigan maxsus himoyalovchi yashil polosalar tashkil etish bilan aholini, binolarni shovqindan, changdan, gazlardan saqlash uchun;
- trotuar bilan qatnov qismi orasida joylashadigan maxsus himoyalovchi daraxtzor va bo‘talar ekish bilan piyodalarni qatnov qismidan himoyalash uchun;
- qatnov qismini qaram-qarshi yo‘nalishdagi harakatlarga bo‘lish uchun ajratuvchi polosalar va h.k.lar uchun.

Ko‘cha va yo‘llar yomg‘ir va qor suvlarini shahar tashqarisiga olib chiqish uchun ham xizmat qiladi. Bu narsa ochiq ariqlar, yer osti suv tarmoqlari orqali

amalga oshiriladi. Ko‘chaning ostidan shaharni ta’minlovchi barcha turdag'i muxandislik qurimalari utkaziladi.Umuman shaharsozlikda ko‘chalarining yo‘nalishi turarjollar bilan bog‘lik ravishda rivojlanib, asrlar davomida saqlanadi. Shuning uchun ko‘cha va yo‘l tarmog‘i shaharning asosiy turarjoy tumanlarini sanoat zonalari, shahar markazi, tashqi transport, dam olish maskanlari va h.k.joylar bilan eng qisqa masofalarda hamda eng kam vaqt sarflanadigan holda bog‘lashi lozim.Ko‘cha-yo‘l tarmog‘i nafaqat amaldagi transport oqimini, balki yaqin istiqbolga mos ravishda bo‘lishi lozim.

Ko‘cha va yo‘llarning umumiy kengligi - qurilish chizig‘i orlig‘idagi masofaga, mavjud bino va inshootlarning balandligiga, ko‘kalamzorlashtirish xususiyatiga, piyodalar yo‘laklarining kengligiga, yer osti inshootlarini joylashtirish uchun ajratilgan texnik polosalar kengligiga va boshqa omillarga bog‘lik.

Ko‘cha qatnov qismining va piyoda yo‘laklarining kengligi, mazkur joyda istiqbolda ko‘tiladigan harakat tarkibi va xajmidan kelib chiqqan holda, eng katta tiqilinch holatlari paydo bo‘lishini hisobga olgan holda qabul qilinadi. Qatnov qismi kengligini to‘g‘ri qabul qilish yangi shaharlarni qurishda, eski magistrallarni rekonstruksiya qilishda juda katta texnik-iqtisodiy ahamiyatga egadir. Qadimdan shakllanib kelayotgan shaharlarda esa bu muammoni yechish juda katta kapital mablag‘ni talab etadi. Qatnov qismlarini va chorrahalarini haddan tashqari keng xam qilib yubormaslik kerak. Bu narsa aksincha, chorrahalarini piyodalar va transport vositalari tomonidan kesib o‘tish masofasini oshirib, natijada chorrahaning o‘tkazish qobiliyatini pasayishiga ham olib kelishi mumkin.

Ko‘cha qatnov qismi, transportning bevosita haraktlanishi uchun xizmat qiluvchi ishchi polosadan hamda transport to‘xtashi uchun ajratilgan polosadan tashkil topadi. Ishchi polosaning kengligi barcha turdag'i transport vositalarining o‘rnatalgan tezlikda, havfsiz harakatini ta’minlagan holdagi hisobiy qatnov sonidan kelib chiqadi.

Transportlar uchun tipik gabarit kenglik quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- avtobus va trolleybuslar uchun-2,7m;
- yuk avtomobilari uchun- 2,5 m;

- yengil avtomobilari uchun- 2,0 m.

Havfsizlik masofalari qarama-qarshi yunalishdagi, bir yunalishda kuvib o‘tish uchun zarur bo‘lgan yonlama masofadir. Masalan, tezligi 60 km/s qilib belgilangan ko‘chalarda yengil avtomobil kuzovi bilan chetki tosh oraligidagi masofa kamida 0,7m, avtomobillar oralig‘i esa $1,0 \div 1,2$ m bo‘lishi lozim. Quyida turli toifadagi ko‘cha, yo‘l va ichki yo‘laklar qatnov qismlarining kengligi keltirilgan (1.2-jadval)


1.2-jadval

№	Ko‘cha-yo‘l toifalari	Bitta polosa kengligi, m	Ikkala yo‘nalishda harakat polosalari soni	
			Kamida	Istiqboldagi harakat xajmini xisbga olgan xolda
1	Tezkor yo‘llar	3,75	6	8
2	Shahar ahamiyatidagi magistral ko‘chalar: - uzliksiz harakatdagi; - harakati boshqariladigan.	3,75 3,75	6 4	8 6
3	Tuman ahamiyatidagi magistral ko‘chalar	3,75	4	6
	Yuk transporti harakati uchun yo‘llar	3,75	2	4
4	Mahalliy ahamiyatidagi ko‘cha va yo‘llar: - turarjoy ko‘chalar; - sanoat zonalaridagi yo‘llar;	3 3,75	2 2	4 4
	Posyolka ko‘chalar	3,5	2	2

Ko'cha va magistrallarning qatnov qismi kengligini aniqlash uchun quyidagilar zarur:

- istiqbolni ko'zlagan holda transport harakatining umumiy harakat hajmini aniqlash;
- maydonlar va chorrahalarda piyodalar o'tish joylari, sfetoforlar, to'xtash chiziqlarini qo'yish bilan transport va piyodalar harakati sxemasini qurish;
- chorrahalar va peregon (ikki chorraha orasidagi masofa)larning o'tkazish qobiliyatini hisoblash;
- peregonlarda zarur bo'lgan polosalar sonini aniqlash;
- jamoat transport vositalari uchun tuxtash va tuxtab turish joylari o'lchamlari va sonini aniqlash.


Tezkor shahar yo'llarining xizmat trotuarlari bilan birligida kengligi 20-30m ni tashkil qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, turarjoylarni shovqin va changdan himoyalash maqsadida yana kamida 50 m quyuq daraxtzor bilan har ikkala tomondan loyihalanadi. Demak, turarjoylardan utadigan tezkor kuchalarning eni trotuarlar, mahalliy yo'laklar va yashil polosalarni o'rnatgan holda 130-180m ni tashkil etadi.



1.2. - rasm. 1 satxli shahar tezkor yo'llarining ko'ndalang kesimi (yo'lni yarmi ko'rsatilgan)


Agarda turarjoylar bir tomonlama bo'lsa, tezkor yo'llar egallaydigan hududning kengligi 80-105 m gacha kamayadi. Tezkor yo'llar boshqa toifadagi ko'chalar bilan kesishganda, tezkor yo'llarni 3-5 m chuqurlikda utkazilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda chuqurlikning devorlari bir vaqtning o'zida

shovqindan himoyalovchi ekran vazifasini bajaradi. Mahalliy ko'chalardan tezkor yo'lga qushilish yoki undan chiqish uchun maxsus yonlama panduslar quriladi. Panduslar, qiyaliklar bilan birgalikda chuqurlikdan o'tuvchi tezkor yo'llarning umumiy kengligi 110-130m ni tashkil qiladi.




1.3-rasm. Turli sathlarda loyihalangan shahar tezkor yo'llarining ko'ndalang kesimi (yo'lning yarmi ko'rsatilgan).


Uzluksiz harakatdagi umum shahar miqyosidagi magistral ko'chalar ham boshqa ko'cha va yo'llar bilan turli sathlarda loyihalashtirilib, umumiy kengligi 55-73m ni tashkil etadi.



1.3 - rasm. Harakati uzluksiz shahar magistral ko'chalarining ko'ndalang kesimi (tonnel oldida).



1.4 -rasm. Harakati uzluksiz shahar magistral ko‘chalarining ko‘ndalang kesimi (estakada oldida).




1.5 -rasm. Harakati uzluksiz shahar magistral ko‘chalarining ko‘ndalang kesimi (turli sathlarning kesishuvi oralig‘ida).

Harakati boshqariladigan umumshahar miqyosidagi magistral ko‘chalarda chorrahalar orasidagi masofa kamida 500 m bo‘lishi lozim. Umumshahar miqyosidagi magistral ko‘chalarga tuman miqyosidagi yoki mahalliy ko‘chalarining qushilgan joylari orasidagi masofalar ham kamida 300-500 m ni tashkil etadi.


Harakati boshqariladigan umumshahar miqyosidagi magistral ko‘chalar ulkan shaharlarda odatda 50-60 m ni tashkil etadi. Agar bu ko‘chaga qatnov qismi 6m bo‘lgan, yashil polosalari bilan birgalikda mahalliy ko‘chalar ham parallel holatda loyihalansa, bunday ko‘chaning kengligi 70-80m ni tashkil etadi.

Tuman ahamiyatidagi magistral ko‘chalarining kengligi turarjoylarning joylashishiga qarab, qizil chiziq va trotuar oralig‘ida yashil polosaning bor yoki

yo‘qligidan kelib chiqqan holda 29-41 m ni tashkil qiladi. Bu o‘lcham yashil polosalar hisobiga o‘zgarishi mumkin.




1.6 - rasm. Tuman ahamiyatidagi magistral ko‘chalarining ko‘ndalang kesimi (binolar oldida daraxtlar bilan).



1.7 - rasm. Tuman ahamiyatidagi magistral ko‘chalarining ko‘ndalang kesimi (binolar oldida daraxtlarsiz).

Turarjoy ko‘chalarining kengligi 21-35m ni tashkil qiladi. Bu o‘lcham yashil polosalar hisobiga o‘zgarishi mumkin.



1.8 - rasm. Turarjoy ko‘chalarining ko‘ndalang kesimi.

Loyihalash me'yorlari bo'yicha (QMQ) qizil chiziq chegarasida ko'chalar kengligi kamida quyidagicha qabul qilinadi:

- uzluksiz harakatdagi umumshahar miqyosidagi magistral ko'chalar- 75 m;
- harakati boshqariladigan umumshahar miqyosidagi magistral ko'chalar – 60 m;
- tuman ahamiyatidagi magistral ko'chalar- 35m;
- turarjoy ko'chalari:
 - ko'p qavatli turarjoy hududlarida- 25m;
 - kam qavatli turarjoy hududlarida- 15m.

Ko'chalarning ko'ndalang nishabligi ko'chaning bo'ylama nishabligi va qoplama turiga bog'lik bo'ladi. Ko'ndalang nishablikning kattaligi tekis asfaltbetonli va sement-betonli qoplamali qatnov qismi uchun 15-25%, yig'mabetonli, temir-betonli qoplamalar uchun esa 20-30 %.

Piyodalar yo'lkalari (trotuarlar).

Piyoda yo'llarining o'lchamlari piyodalar oqimining jadalligiga qarab aniqlanadi. Piyodalar yo'lida bitta yo'lakning o'tkazish qobiliyati $600 \div 1000$ piyoda/soat. Bitta yo'lakning eni esa 0,75 m qabul qilingan.

Shaharsozlik me'yorlariga ko'ra piyodalar yo'llarining eni quyidagicha bo'ladi:

- shahar ahamiyatidagi magistral ko'chalarda $4,5 \div 7,5$ m;
- tuman ahamiyatidagi magistral ko'chalarda 3,0m;
- mahalliy ko'chalarda 2,25m;
- ichki yo'laklarda va sanoat zonalaridagi yo'llarda 1,5m.

Agarda trotuarlarda tashqi yoritish chiroqlari, trolleybus ustunlari quyiladigan bo'lsa, mos ravishda uning kengligi 0,5-1,2 m gacha kengaytiriladi.

Ba'zi zaruriy hollarda piyodalar yo'lining eni kengaytirilishi mumkin. Bu esa ko'kalamzor himoya polosalari hisobiga amalga oshiriladi.

Piyodalar yo'llari hisobidan turli kiosklar, do'kon va boshqa turdag'i inshootlar qurilishi ta'qiqlanadi.

Piyodalar yo‘llari qoplamasasi mustahkam va tekis bo‘lishi, lekin sirpanchiq bo‘lmasligi lozim. Ko‘cha-yo‘l tarmog‘i qoplamasidan farqli o‘larok, piyodalar yo‘llari qoplamasiga ketadigan harajat ancha kamdir.

Piyodalar yo‘llarida maksimal bo‘ylama qiyalik 6%ni tashkil etadi.

Piyodalar oqimi kattaligi ko‘chada qanday ob’ektlar qurilganligiga ham bog‘likdir. Masalan, ommaviy qatnov ob’ektlari oldida 7,5m (maksimal kenglik) ni tashkil etsa, vitrinalar yonida unga yana 1 metr qo‘shiladi.

Trotuarlar ko‘chaning qatnov qismidan 15 sm balandlikda loyihalanib, chegaralovchi toshlar bilan ajratilib, qatnov qismi tomonga 1,0-1,5% nishablikda quriladi.

Velosiped yo‘laklari.

Shaharning bosh rejasini ishlashda velosiped yo‘lkalari ham inobatga olinishi lozim. Bu element ayniqsa sharq mamlakatlarining shaharlarida ko‘prok uchraydi. Velosiped yo‘laklari ko‘chaning qatnov qismi bilan piyodalar yo‘laklarining orasida, ya’ni, trotuar bilan ko‘kalamzor himoya polosa oralig‘ida joylashadi (11.24-rasm).

Velosiped uchun yo‘laklar istirohat bog‘lariga, stadion va boshqa turdagи sport majmulariga, plyaj, ko‘rgazma, sanoat zonalariga, shahar oldi dam olish maskanlariga olib boruvchi ko‘cha va yo‘llarda loyihalanadi. Velosiped yo‘laklarining eni bir qator harakatlanish uchun kamida 1,5 m, ikki qator harakat uchun esa kamida 2,5 m ni tashkil etadi.

Bunday yo‘laklarning utkazish qobiliyati bir qator harakatlanishda bir soatda 300 velosipedni tashkil etadi. Velosiped yo‘laklari piyodalar yo‘lkasidan 1,2 m, ko‘chaning qatnov qismidan esa 0,8 m kenglikdagi bo‘tazorlar yordamida ajratiladi.



1.9-rasm. Velosiped yo‘laklari.

Velosiped yo‘laklarida bo‘ylama qiyalik 0,4-5% ni tashkil etadi.

Ko‘ndalang qiyalik esa 1,5-2,5%.

Tramvay yo‘llari.

Tramvay yo‘llari ko‘cha qatnov qismining markazida yoki chekkasidan utkaziladi. Tramvay yo‘llarining eni bekatlarsiz 7 m ni, bekat bilan birgalikda 10 m ni tashkil etadi.

Tramvay yo‘llari inshootlarga nisbatan quyidagi masofalarda joylashtirilishi zarur:

- turarjoy binolaridan 20 m;
- noturarjoy binolaridan 2,8 m;
- daraxtlardan 5 m;
- bo‘azorlardan 1,5 m.

Tramvay yo‘llarini alohida yo‘laklarda loyihalash zarur.

Ajratish polosalari.

Ajratish polosalari xam tramvay yo‘llari kabi ko‘cha qatnov qismining markazida yoki yonida joylashtiriladi. Ajratish polosalari avvalombor, havfsizlikni ta’minlash maqsadida, qolaversa, ekologik, badiiy-estetik nuqtai nazardan ahamiyatli bo‘lib, ko‘chaning ajralmas kompozitsion elementi hisoblanadi (havoni tozalaydi, shovqindan himoya qiladi). Ajratish polosalarining piyodalar yo‘lkalar

bo‘ylab qurilishi ko‘chaga chiroy bag‘ishlab, ekologiyani yaxshilaydi, bundan tashqari, ko‘cha atrofidagi uylarni va piyodalarni transport shovqinidan himoyalaydi.

Ko‘chalarda ajratish polosalarining eni $2,0 \div 8,0$ m ni tashkil etadi.

Qarama-qarshi yo‘nalishdagi transport harakatini himoyalash maqsadida ajratish polosalari quyiladi. Ajratish polosalari piyodalar yo‘laklari va qatnov qismi orasida kamida 2m bo‘lishi lozim.


Qarama - qarshi yo‘nalishdagi harakatni ajratish uchun markaziy ajratuvchi polosalar o‘rnataladi. Markaziy ajratuvchi polosalar harakat havfsizligini ta’minlash bilan, harakat tezligini oshirishga imkon berib, transport va piyodalar harakatini tartiblashtirishda ahamiyatlidir. Tezkor yo‘llarda ularning eni 6m, harakati uzlusiz magistrallarda va yuk transporti harakati uchun yo‘llarda 4m ni tashkil etadi.

Markaziy ajratuvchi polosalar, qatnov qismi juda keng bo‘lgan shahar magistrallarida piyodalar uchun kutish orolchalari vazifasini bajaradi. Ajratuvchi polosalar qatnov qismidan 15-20sm baland kutarilgan bo‘lishi kerak. Qatnov qismida sun’iy inshootlarni kamaytirish maqsadida ko‘priklar, estakadalar, yo‘l o‘tkazgilar ustida, tonellarda markaziy ajratuvchi polosalar o‘rnatilmasligi mumkin.

Ajratuvchi polosalarning vazifasi faqatgina qarama-qarshi harakatni ajratish bo‘lganda, ularning eni eng kamida 1,2m bo‘lishi zarur.

Ajratuvchi polosalarda ekiladigan daraxtlar tarkibi, turi, soni shahar joylashgan iqlimiylar xususiyatlardan kelib chiqib, shimoliy rayonlarda bunday polosalarda vaqtinchalik qorni yig‘ish uchun joy ajratiladi.

Hiyobon - ko‘chaning bir qismi hisoblanadi. Hiyobonning me’moriy-tarxiy yechimi, uning shahar rejasidagi joyiga, shaharning kattaligiga, u joylashgan ko‘chaga bog‘lik. Hiyobonlarni dam olish, sayr qilish yoki piyodalar harakati uchun, chang va shovqindan saqlash uchun qo‘llaydi.



1.10-rasm. Turar-joy ko‘chalarining (A) va qirg‘oq bo‘yi ko‘chalarining (B) ko‘ndalang kesimi.

Hiyobonlarni rejallashtirishda, istiqbolda shaharning mazkur hududida ko‘cha qatnov qismini kengaytirishni, ushbu ko‘chada kelajakda bo‘lishi kutiladigan harakat oqimini ta’minlashni ham ko‘zda tutiladi.

Hiyobonlarning eni kamida 18m bo‘lib, uzunligi me’yoriy hujjatlarda belgilanmagan.

1.2. KO'KALAMZORLASHTIRISH

O'zbekiston aholi joylari ko'kalamzorlar tizimini yanada takomillashtirish uchun me'yoriy asos lozim, u shahar va posyolkalar hududida ko'kalamzorlar tizim elementlarining son jihatidan nisbatini nazarda tutadi. Toshkent Zonal ilmiy tadqiqot va eksperimental loyihalash institutida (TashZNIEP) o'tkazilgan tadqiqotlar asosida (xozirgi «ToshuyjoyLITI») O'zbekiston aholi joylari ko'kalamzorlarini me'yorlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan, ular real loyihalash va shaharsozlik amaliyotiga asos qilib olinishi mumkin (1.3-jadval).

3-jadvaldan ko'rinish turibdiki, O'zbekiston shaharlarning nisbiy ko'kalamzorligi qurilmalarning umumiyligi maydoniga nisbatan barcha funksional ahamiyatdagi ko'kalamzorlar summasidan iborat deb baholandi. Bu nisbat shaharda qurilgan maydonlarning kamida 50 %iga yetishi lozim, barcha ko'kalamzorlar maydoni esa 1 ta odamga kamida 50-60 m²ga yetishi kerak.

1.3-jadval

O'zbekiston shahar va qishloqlar uchun tavsiya etilgan
ko'kalamzorlashtirish me'yorlari va ularning namunaviy taqsimlanishi, m²/odam
(TashZNIEP, 1982)

	Shaharlarning ko'kalamzor maydonlari					
	Katta		Kichik		O'rta	
	Ko'kalamzorlar yaratilishi sharoitlari					
	Yaxshi	Chek-langan	Yaxshi	Chek-langan	Yaxshi	Chek-langan
Umumiy foydalanish ko'kalamzorlari	17-19	13-15	14-16	11-13	11-13	8-10
jumladan:						
shahar parklari	4-5	3-4	5-6	4-5	6-7	5-6
tuman parklari	4-5	3-4	-	-	-	-
skver va bulvarlar	2-3	2-3	2-3	1-2	2-3	1-2

turar joy tumani bog‘lari	4-5	3-4	4-5	3-4	-	-
kichik tuman umumiyl foydalanish ko‘kalamzorlari	3-4	2-3	3-4	2-3	3-4	2-3
Cheklangan foydalanish ko‘kalamzorlari	35-40	30-35	50-55	45-50	65-70	55-60
Shu jumladan:						
shahar ahamiyatidagi jamoat muassasalari maydonlari	8-9	7-8	8-9	7-8	9-10	7-8
kichik tuman jamoat muassasalari maydonlari	8-9	6-7	9-10	7-8	11-12	8-9
kichik tumanlar turar joy hududi	12-14	11-13	22-23	20-22	36-40	30-34
shahar ko‘chalari va maydonlari	4-5	3-4	5-6	4-5	5-6	4-5
boshqa hududlar	5	4-5	5-6	5	6	5-6
Jami ko‘kalamzorlar	50-60	45-50	65-70	55-65	75-80	65-70

Markazlarning landshaft tashkil etilishiga qo‘yiladigan muhim talablar loyihalashning ma’lum bosqichlariga va uslublariga rioya qilish hisoblanadi. Markazdagi ochiq maydonlarni funksional zonalash landshaftni loyihalashning muhim bosqichi hisoblanadi. Har bir funksional zona foydalanishning va mos ravishda landshaft tashkil etilishiga talab qo‘yuvchi hududni tashkil etishi o‘ziga xos texnologiyasiga ega. Shuning uchun markazning piyodalar fazolarining landshaft tashkil etilishida quyidagi zonalarni ajratish maqsadga muvofiq: tranzit harakat;

rekreatsiya va bo'sh vaqt; ovqatlanish; ommaviy tadbirlar (bayramlar, shou, konsertlar, diskotekalar).

Tranzit zona faqat harakat davrida hududda qisqa vaqt davomida bo'lishiga mo'ljallangan. Tranzit harakatga mo'ljallangan shakllar bu to'g'ri shakldagi xiyobon va yo'laklar hisoblanadi. Hududda ularning rejali joylashtirilishining samaradorligidan o'tish uchun sarflanadigan vaqtning davomiyligiga bog'liq bo'ladi. Mazkur holda diagonal tarmoqlanishi elementlari bilan ortogonal rejalash eng maqsadga muvofiqdir. Tranzit harakat zonasi gulpushta va boshqa qurilmalar bilan bo'linmasligi kerak.

Rekreatsiya va bo'sh vaqtni o'tkazish zonalari markazga tortishning ijtimoiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Dam olish va bo'sh vaqtni o'tkazish zonalarini har tomonlama o'ylab tashkil etish aholi guruhlari orasida muloqot qilish va axborot almashishi uchun sharoitlar yaratadi, jamiyat fuqarolarini jipslashtiradi.

Zonalarini tashkil etish uchun eng qulay tabiiy sharoitga ega hududlar – daryo yoki sun'iy yaratilgan havzalarning bo'yłari, ko'kalamzorlar, bog'lar, parklar hududi, maydonlar, xiyobonlar, bulvarlar, piyodalar yuradigan ko'chalar va boshqalar ajratiladi.

Bu hududlarni landshaftli tashkil etish rekratsion faoliyatni tashkil etish o'lchamlari va tavsifiga bog'liq. Bog'-parklarda, parklarda, xiyobonlarda, bulvarlarda landshaft qo'yiladigan talablarga muvofiq shakllanadi. Ammo maydonlar, piyodalarning ko'chalari va daryo yoki havza bo'yłari hududlarida rekreasjon bo'sh vaqtni o'tkazish zonalar hududining shaxsiy xususiyatlariga muvofiq ajratiladi, ma'lum cheklanishlarga yo'l qo'yilmaydi va loyiha mualliflarining ijodiy fikriga bog'liq bo'ladi. Rekreatsion uchastkalar boshqalaridan zinch o'simliklar bilan ajratilishi mumkin.

Maydonlar va piyodalar fazolari rekreasjon funksiyalarni tashkil etish uchun qulay zonalar hisoblanib, ular kunduzgi payt markaziy maydonlarda yoki unga yaqin bulvarlarda tashkil tiluvchi bog'larda, xiyobonlarda, o'rmonlarda amalga oshirilishi mumkin, kechki paytlarda esa – maydonlarning ochiq joylarida va ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan zonalarda amalga oshiriladi.

Sayr qiladigan zonalarning landshaft tashkil etilishida atrofdagi qurilishning me'moriy stilistikasi hisobga olinishi kerak, u loyihalanayotgan landshaft muhit stilistikasiga mos bo'lishi va aksincha bo'lishi kerak. Shunga qaramay, landshaft kompozitsiya muntazam, peyzajli yoki aralash ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin.

Muntazam tashkil etishda, asosan maydonlarning ochiq fazolarida joylashtiriladigan to'g'ri to'rburchak, diagonal, dumaloq, oval va boshqa shakldagi yo'laklar, o'tloqlar, gulpushtalar, rabatkalar ko'proq bo'ladi.

Egri-bugri (ilon izi) shaklidagi yo'laklar ko'pincha erkin yoki peyzajli stilda (turda) rejelashtiriladigan rekrasion – sayr qilish zonalarida, odatda, bog'lar, xiyobonlar, o'rmonlar yoki daryo va havza bo'ylarining soyali joylarida ajralib turadi. Ko'rkam yo'laklar maydonlarning piyodalar yuradigan qismlarini bog'-park majmualari va suv havzasi bo'ylari bilan birlashtirishi mumkin.

1.3. LANDSHAFT REJALASH

Aholi punktlarini landshaftli rejalahshning maqsadi ko'kalamzorlashtirish va landshaft arxitektura vositalari bilan yaxlit, garmonik (uyg'un) shahar muhitini shakllantirish hisoblanadi. Bunda bosh vazifa atrof-muhitning tabiiy va sun'iy komponentlari orasidagi optimal munosabatni uning barcha iyerarxik sathlarini ta'minlashdan iborat bo'lib, bunda tabiatning insonga sog'lomlashtiruvchi ta'sirini kuchaytirish va sanoat hamda qurilishning tabiatga salbiy ta'sirini minimumga keltirishdir.

Shaharda va uning atrofida ayrim tabiiy majmualarni oddiygina ajratish va saqlab qolishning o'zi yetarli emas. Shahar quruvchilari tashqi muhit omillarining doim o'zgarishiga qaramay, tabiat bilan aloqalar susaymasdan, aksincha kuchayib boradigan shahar va uning atrofi rivojini belgilab beruvchi turli xil, qulay va hayotiy modellarini nazorat jihatdan, keyin esa amaliy jihatdan topishlari va sinab ko'rishlari zarur.²

Aholi turar joylari, xususan shaharlar va asosan yirik shaharlar turli funksional hududlarga bo‘linadigan maydonlardan iborat. Bular markaziy, chetki, sanoat, rekreasjon hududlar, tashqi transport hududlari va boshqalar. Bu hududlarni landshaftli tashkil etish aniq funksional vazifaga ham, rejali va fazoviy tashkil etishning o‘ziga xos jihatlarini belgilovchi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, sanitariya-gigiyenik, shahar qurilishi va boshqa omillarga bog‘liq. Bunda shaharni landshaftli rejalashtirishga asosan ikki guruh omillar ta’sir ko‘rsatadi; landshaftli (yoki tabiiy) va shahar qurilishi (funksional rejalahsh).

Landshaft omillari, shu jumladan, tabiiy-iqlim vaziyati, shaharning qay tarzda rivojlanayotganiga – ixcham tashkil bo‘lgan joy yoki chiziqli tashkil bo‘lgan joy ekaniga belgilovchi ta’sir ko‘rsatadi. U o‘zining tashqi atrofiga keng ochilgan bo‘ladimi yoki go‘yo unga teskari o‘girilgan bo‘ladimi, bu joyning gidrografik tarmog‘ining tavsifiga; balandliklarning mavjudligiga; qurilishni o‘zlashtirish uchun yaroqsiz hududlarga, harorat, shamol, insolatsion tartiblarga, tuproqning unumdorligiga, o‘simlik massivlarining joylashishiga va hokazolarga bog‘liq. Bu landshaft omillarining ta’siri, ayniqsa, yangi shaharlarda va uncha katta bo‘lmagan shaharlarda sezilarli bo‘ladi. Yirik va juda katta shaharlarda landshaft omillar, o‘z qiyimatini saqlab qolsa-da, uncha yaqqol bo‘lmaydi. Bunda shaharning ayrim tumanlari turli xil landshaft sharoitlarida bo‘ladi va o‘z-o‘zicha rivojlanadi.

Landshaft omilining ta’siri u yoki bu landshaft dominanta orqali yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Masalan, daryo, balandlik, pastlik va boshqalar.

Yangilik shundaki, yirik shaharning kattalashayotgan o‘lchamlari- **gorizontal** va **vertikal** – joyning landshaft o‘ziga xosligini bosadi va **nivelirlaydi**. Agar balandliklar, daryolar, o‘tloqlar, terrasalar, ongli shakllanayotgan landshaft sistema – suv ko‘kalamzor fazolar tarkibiga kiritilsa, ular shahar muhitining tabiiy komponentlari rolini o‘ynashda davom etadi.

Bunda markaziy shahar tumanlarini shahar tashqarisidagi tabiiy landshaftlar (ko‘k diametrlar, o‘rmon – park hududlari, dengiz va daryo ekvatorlari) bilan bog‘lashga qodir bo‘lgan uning elementlari alohida qimmatga ega.

Boshqa an’ana noqulay tabiiy sharoitlarni o‘zgartirish va buzilgan yerlarni

tiklash hisoblanadi. Landshaft sistemasini sun’iy shakllantirish borgan sari kengayib bormoqda. Navoiy, Zarafshon va shu kabi boshqa shaharlar jonsiz yarim sahro (cho‘l) sharoitida odam tomonidan to‘liq yaratildi. Bu sistemalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, nisbatan uncha katta bo‘lmagan maydonlarda ular turar joy yaqinida, shaharning jamoatchilik markazlarida, piyodalar o‘tadigan yo‘llarda joylashgan va shuning uchun juda samaralidir.

O‘rmoni bo‘lmagan tumanlarda joylashgan shaharlarda, qimmatli qishloq xo‘jaligi ekinlari orasida landshaft sistemasining rivoji xo‘jalik vazifalarining rekrasjon vazifalar bilan olib borish yo‘li bilan yuz beradi.

Landshaft omillar shaharning rivojiga «**bevosita**» yoki «**bilvosita**» ta’sir etadi. Shamol rejimi noqulay bo‘lgan shaharlarda shamoldan himoya qiluvchi mintaqalar katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ortiqcha insolatsiyali tumanlarda joylashgan shaharlarda ko‘kalamzorlashtirilgan maydonlarning yetakchi elementlari chiziqlar – bulvarlar, ko‘chalarga o‘tkazilgan daraxtlar, daryo va kanal bo‘ylari, shuningdek, ko‘kalamzorlashtirilgan turar joy hovlilari, savdo markazlari bo‘ladi, ya’ni shaharning piyodalar oqimi to‘planadigan yo‘nalishlari va nuqtalari bo‘ladi.

Shahar qurilishi omillari – shaharning o‘lchamlari, funksional va me’moriy – rejalomchi tuzilmasi xalq xo‘jaligi bo‘yicha yo‘nalish tabiiy sharoitlarining ma’lum darajada hosilalari bo‘lib, ularga o‘z navbatida teskari effekt ko‘rsatadi. Ular ochiq maydonlar sistemasida ham aks etadi.

Yirik va juda yirik shaharlarda ko‘kalamzorlashtirish sistemasi hududiy va funksional jihatdan kichik va o‘rtacha shaharlarga nisbatan yanada rivojlangan xarakterga ega bo‘lib, o‘nlab va yuzlab elementlarga ega. Agar uncha katta bo‘lmagan shaharlarda, odatda bitta park (polifunksional), bitta yoki bir nechta bog‘, bulvar va xiyobonlar bor bo‘lsa, u holda yirik va juda yirik shaharning ko‘kalamzorlashtirilgan maydonlari tarkibiga botanika bog‘i, zoopark (hayvonot bog‘i), o‘rmonpark, bir qancha madaniyat va dam olish bog‘lari va hokazolar kiradi.

Shaharning xalq xo‘jaligi bo‘yicha yo‘nalishi ko‘kalamzorlashtirilgan maydonlarning tashkil etilishiga bevosita va rejalashtiruvchi tuzilma orqali ta’sir ko‘rsatadi. Sanoat shaharlarida sanitariya-himoya qilish zonalari katta o‘rin

egallaydi. Shahar kurortlarida ko‘kalamzorlashtirilgan maydonlar bitta yoki bir nechta kurort parklarda va dam olish uylari, sanatoriylar huzuridagi bog‘larda quriladi.

Qimmatli qishloq xo‘jaligi yerlari orasida joylashgan shaharlarda ko‘kalamzorlashtirilgan fazolar yuzalari, odatda uncha katta bo‘lmagan mevali bog‘lar massivlari katta rol o‘ynaydi.

Qazib olish bilan bog‘liq sanoat shaharlarida ko‘pincha bo‘lib-bo‘lib rejalanuvchi tuzilmalar shakllanib, mos ravishda ko‘kalamzorlashtirilgan maydonlar bo‘lingan ko‘rinishni qabul qiladi. Alovida turar joy va rejalanuvchi rayonlarda, posyolkalarda o‘zining parklari, bog‘lari, sanitariya-himoya mintaqalari va shu kabilar yuzaga keladi. Bu obyektlarning takrorlanishiga va ko‘kalamzorlashtirish sistemasini maydalashishiga olib keladi.

Rejalangan tuzilmasi bo‘lingan shaharlarda yirik ko‘kalamzorlashtirilgan maydonlar (ko‘k ponalar, diametrler) shahar qurilishining yagona massivini bo‘laklarga ajratadilar. Ixcham shaharlarda ochiq maydonlar sistemasi chetga chiqish xarakteriga ega – yirik parklar va o‘rmon parklar shahar chetiga siqib chiqarilgan. Shunday sharoitlarda landshaft rejalashtirishning bosh muammosi markaziy rayonning tabiiy atrof-muhitdan ko‘kalamzorlashtirilgan ponalar kiritilishi, diametrler, mintaqalar yordamida ajratishning oldini olish (kompensasiya) hisoblanadi. Nihoyat chiziqli tuzilmaga ega shaharlar uchun odatda ikkita yoki bitta cho‘zilgan ko‘kalamzor mintaqadan iborat ochiq maysalarning chiziqli sistemasi ham xosdir. Ayrim hollarda bu mintaqalar ko‘ndalang joylashib, chiziqli shaharni u yoki bu uzunlikdagi kesmalarga ajratadi.

Yirik va juda yirik shaharlarning ochiq maydonlarining katta sondagi sistemasini tahlil qilish zamonaviy shahar qurilishining real omillari bilan taqqoslanganda, xususan gigant shaharlarning tez o‘sishi bilan quyidagi imkoniyatlarga ko‘ra zaruriyatini belgilab beradi:

- ochiq maydonlarning qurilish ichiga yanada chuqur kirib borishi;
- shahar ichi va shahar tashqarisidagi maydonlarning yaqin aloqasi;
- ochiq maydonlarni va qulay rejalashtiruvchi tuzilmasini shakllantirish, uning


shaharning o'sishiga muvofiq ko'rinishini o'zgartirish va rivojlanish qobiliyati.

Ana shu barcha talablarga javob beruvchi sistemagina landshaft rejallashtirish maqsadiga – yaxlit, uyg'un shahar muhitini shakllantirishga erishishga yordam beradi.

Shaharning hududiy rivojlanishining o'zi uning tabiat bilan aloqasining susayishini emas, balki ularning ko'rinishi o'zgarishini anglatadi. Shu nuqtaiy nazardan ochiq maydonlarning mashxur sistemalaridan ko'pchiligi tanqidga chidamaydi yoki faqat kichik shaharda (yoki shaharning alohida tumanida) kamdan kam hollardagina qo'llaniladigan bo'ladi. Masalan, ochiq maydonlarning halqali, markaziy-yadroli, dispers, chetki va ba'zi boshqa shu kabi bunday «berk» sistemalari erkin hududiy rivojlanishga qodir emas, ularning elementlari bir-biri bilan va tashqi fazolar bilan kam bog'langan. To'rsimon, chiziqli, ponasimon yoki fonli singari bunday sxemalar bu masalalarga asosan mos keladi (5-rasm).

Biroq faqat sistemaning geometrik shakli emas, balki ochiq va qurilgan maydonlarning nisbati ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Yagona qurilish massivining o'zaro bog'liq, lekin o'ziga xos rejalanadigan rayonlarga bo'linishining mavjud an'anasi ko'kalamzorlashtirilgan ponalar, diametrler, mintaqalar, yadroler boshqa elementlar jamlangan murakkab kombinatsiyalangan sistemalarini shakllantirish uchun nasos yaratadi.

Umuman, aholi turar joylari sistemasida joylashtirilgan shaharni landshaftli tashkil etish izchillik bilan «yuqoridan pastga tomon» – avval joylashtirishning guruhli sistemasi va shaharning bosh plani miqyosida, keyin esa shahar rejallashtiruvchi rayoni miqyosida yuz berishi kerak va shundan so'ng mufassal rejallashtirish loyihasi darajasiga chiqishi lozim.



1.11 -rasm. Shaharning ko‘kalamzorlashtirilgan maydonlarini rejali tashkil etishning prinsipial sxemasi (ax. A.P.Vergunov bo‘yicha)

Istalgan o‘lchamdagи va vazifadagi har bir ko‘kalamzorlashtirilgan maydon aslida bitta emas, balki ma’lum to‘plamdagи vazifalarni bajaradi: rekratsion, sanitariya-gigiyenik, mikro-iqlim, estetik, tabiatni muhofaza qiluvchi, rejalah –

regulativ, xo‘jalik-texnik.


Alovida ko‘kalamzorlashtirilgan maydonlar o‘zida qanchalik ko‘p vazifalar majmuyini bajarsa, shahar landshaftli sistemasining umumiy samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi.

Ko‘kalamzorlashtirilgan har qanday maydonni loyihalashga kirishayotganda u qo‘shma, yuqori va quyida yotgan sathlar uchun qanday ahamiyatga ega bo‘lishini aniqlash kerak. Masalan, ko‘kalamzorlashtirilgan maydonlar faqat mikrorayon, turar joy hududi darajasida qanday «ishlayotgani»ning o‘zini emas, balki ularning shahar va shahardan tashqari darajadagi ko‘kalamzorlashtirilgan maydonlar bilan aloqasi uchun qanchalik samarali ekanini aniqlashtirishi zarur. Ya’ni mikrorayondagi bog‘ yoki park turar joy rayonidagi xiyobon yoki bog‘ qo‘shni mikrorayonlardan shahardagi parklar va shahar atrofidagi ko‘k hududlarga piyodalar tranzitini qanday o‘tkazadi. Shuning uchun hozirgi paytda chiziqli suv ko‘kat maydonlari va albatta «tranzit», ya’ni bog‘lovchi ahamiyatga ega bo‘lgan ixcham ko‘katli maydonlar borgan sari kattaroq ahamiyatga ega bo‘lmoqda (1.12-rasm).



1.12-rasm. Chikagoning turar joy hududlarini «tranzit»suv-ko‘kat maydonlari bilan bog‘lanishi

Ko‘k o‘simliklar sistemasining bosqichli tuzilishi to‘g‘risidagi tasavvur o‘z vaqtida ijobiy ahamiyatga ega bo‘ldi, chunki shahar rejasida bog‘lar va parklarning bir tekis taqsimlanishiga imkon berdi. Ammo endi bu yetarli emas, ko‘k ekinlarni landshaft maydonlarining yagona uzlusiz sistemasi doirasida loyihalash zarur, ularda «kollektorlar» (suv-ko‘kat diametrlari, ponalar, mintaqalar turidagi) astasekin magistral «kanallarga» o‘tadi (keng ko‘kalamzorlashtirilgan mintaqalar) va undan so‘ng «kapillyarlar» bo‘yicha ko‘kalamzorlashtirilgan maydonlarning dastlabki (birlamchi) shahar qurilishi birliklariga yetib boradi (1.13-rasm).



1.13-rasm. Shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish sistemasi:
Minsk va Yerevan shaharlari.

Ancha yuqori darajadagi ochiq maydonlar sistemalari («kollektorlar») shahar tumanlariga toza havo oqimi kelishi uchun katta o‘lchamlarga ega bo‘lishi kerak. Shuning uchun shahar massivining yaxshiroq aeratsiyasi uchun shahar atrofi landshaftlariga chiqishlarni haddan ortiq toraytirmaslik zarur. Bundan tashqari, yuqori darajalarda ko‘kalamzorlashtirilgan maydonlarni izchil kengaytirishga

shahar markazlarining tabiiy atrofi bilan kompozitsion aloqasi ham yaxshiroq hal etiladi hamda ko‘kalamzorlashtirilgan maydonlarni taqsimlashda tartib bo‘ladi. Yangi shaharlar va qishloqlarni barpo qilishda ularning joylashishini tanlash atrof-muhit omillariga bog‘liq, qurilishning o‘zi ham tabiiy muhit ko‘rinishining muhim omili va elementi bo‘ladi va unga muhim o‘zgarishlar kiritadi. Tabiiy muhit tuzilishi qonunlarini mufassal o‘rganish shahar yoki qishloqlarning landshaft rejasini to‘g‘ri ijodiy tushunishga impuls imkon beradi. Bu maqsadga erishishga yondashuv tekis va tog‘li hududlarda turlichadir. Tekis joylarda aholi punktlarini shakllantirishda landshaft rejalshtirish ko‘proq erkin harakat qilish huquqiga ega.

1.4. KICHIK ARXITEKTURA SHAKLLARI VA DEKORATIV QURILMALAR

Landshaft arxitekturasi obyektlaridagi kichik arxitekturaviy va dekorativ shakllar – bular badiiy bezatish elementlari bo‘lib, turli xil funksiyalarini bajarishi mumkin. Ular umumiy stil bilan birlashtirilgan, bezatadigan, xilma-xillik yaratadigan, urg‘ beradigan, obyektlarni funksional vazifalariga, ramzlarining jilodorligini beradigan va, yana, tashrif qilganlarni park maydonchalarining u yoki bu zonalariga yo‘naltirish axborotini berishi mumkin (1.14-rasm).

Me’ moriy elementlar va inshootlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- dekorativ me’ moriy elementlar – favvoralar, haykallar, vazalar, pergolalar va trelyajlar;
- g‘oyaviy-siyosiy mazmundagi me’ moriy elementlar – monumental yodgorliklar, byustlar;
- madaniy-maishiy va utilitar mazmundagi elementlar – ko‘rgazma pavilyonlari, yozgi teatrlar va kinozallar ochiq estradalar, qiroatxonalar, bufetlar, urnalar, yozuvli jadvallar, skameykalar;
- tinch dam olish uchun – ayvonchalar, tomosha maydonchalari, pavilyonlar;

KICHIK ARXITEKTURAVIY VA DEKORATIV QURILMALARI



1.14-rasm

- faol dam olish uchun – bolalar maydonchalari, badan tarbiya maydonchalari, raqs maydonlari, attraksionlar.

Kichik formalarga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri, ushbu hududning yashil o‘simliklari, relyef va landshaft kompozitsiyalarining formalari bilan uyg‘unligiga erishishdir. Ular atrof-muhitga nomutanosiblikni olib kirishi kerak emas, arxitekturaviy-landshaft kompozitsiyasi stilistikasiga to‘la javob berishi kerak. Kichik arxitekturaviy shakllar ixtiyoriy arxitekturaviy shakllarni – kirish qismidan, pavilyon, ratonda, galereya, supalar (besedka), bolyustradalar, fontanlar yoki ko‘prikchalardan poy vaza, fonarlar, panjarali to‘siqlar, o‘rindiklar va boshqa ko‘rinishlarda aks ettirishi mumkin .

Kirish, galereya, shiyponchalar. Ularni ochiq landshaft obyektlari joylarida joylashtirilishi quyidagilar bilan monand bo‘lganda bajarilishi mumkin: atrofdagi qurilishning ansambli holatidan, ochiq joylar landshaft g‘oyasidan kelib chiqib yoki joyning yashil maysalaridan ishlangan bo‘lishi mumkin (1.15-rasm.).



1.15-rasm. Chelsi landshaft ko‘rgazmasi: bog‘ galereya va shiyponchalar. Angliya.

Pavilyonlar, rotondalar, bolyustradalar va ko‘prikchalar – atrof-muhit ansambliga monand bo‘lishi yoki parkning yoxud boshqa obyektlarning landshafti muhitidagi erkin element bo‘lishi mumkin (1.16-rasm).



1.16-rasm. Rotondalar: а – Павловск parkining «Храм Дружбы» rotondasi, Sankt-Pererburg; б – Uzbekiston milliy bog‘idagi «Navoiy» rotondasi.

Haykaltaroshlik asarlari san'at asari bo'lib, xuddi fontandek, ko'kalamzorlashtirilgan joylarni bezatadi, xilma-xillik kiritadi, boyitadi. U yirik va kichik bo'lishi mumkin va kayfiyatga yaxshi ta'sir etishi, odamlarda qiziqish uyg'otib ularga chiroyli his tuyg'ularni ato eta oladigan bo'lishi kerak. Haykaltaroshlik asarlari – antik, klassik, turli xil tematik sahna asarlarini aks ettirishi hattoki abstrakt holatlarda bo'lishi ham muhim. Oxirisini dekorativ-amaliy san'at yoki erkin ijodiy yo'nalishga bog'lash mumkin.

Pog'onali sharshara va ayvonchalar – bu relyefni o'nkir-cho'nqir joylarini tushayotgan suv va o'simliklarni ishlatilishida relyefga o'ziga xos ishlov berish uslubidir. Ular yaruslar va pog'onalardan ishlanishi mumkin, muntazam va erkin (manzarali yoki abstrakt) kompozitsiyalarga ega bo'lishi mumkin.

Vazalar ham haykaltaroshlik asarlaridir. Ular bolyustradalarda, ayvonchalarda, maydonchalarda yoki maysazorning markaziga joylashtirilishi mumkin. Parklarni bezatilishi uchun yuqori badiiy namunalarni tanlanishi maqsadga muvofiq.

Pergollar va barso – bular daraxtlarga, metal va boshka karkaslarga chirmashadigan o'simliklardan tashkil topgan yopiq xiyobon. Pergollarning tavsiya etilishi – mo'tadil soyalarda hordiq chiqarish, bog' va parklarning turli xil maydonlarini bog'lashdir. Pergollar asosan muntazam parklarning jihozidir. Chirmashib o'sadigan o'simliklar sifatida – yovvoyi uzum, kulmok (xmel), turk loviyasi, dukkakli, ipomeya va boshqalar ishlatiladi (1.17-rasm).




1.17-rasm. Pergolalar: 1 – Ispaniyadagi Aalhambra va Xeneralif bog'larining pergolasi;

Zamonaviy bog‘larda hamda parklarda engil dekorativ pergollarni uchratish mumkin, yuk ko‘taruvchi asosi temir beton, metall yoki plastikdan ishlangan besedka va trelyajlarni ham uchratish mumkin. Har bir holatda ular chiroyli bo‘lishi kerak va yashil qoplamga ega bhlmasligi ham mumkin

Kursilar – bog‘-park maydonining, skverlarning, xiyobonlarning, maydonlarning va boshqa obyektlarning zarur elementi. Ular alohida, guruhlar bo‘lib, aylana bo‘ylab yoki daraxt atrofida turishi mumkin. Kursilar odatiy geometrik formalardan to erkin formalargacha bo‘lgan kutilmagan ko‘rinishlarga ega bo‘ladi.

Stendlar, yodgorlik toshlari, instolatsiyalar – boshqa elementlar kabi yashil maysalarga monand bo‘lib unga bo‘ysunishi kerak (1.18-rasm).



1.18-rasm. Moskvadagi landshaft dizayni konkursda qatnashgan loyihalar

Kiosklar (do‘konchalar) – aholiy ko‘p yig‘iladigan joylarda joylashtiriladi. Ularning dizayni landshaft sitiliga mos kelishi va landshaft kompozitsiyalarni ko‘rinishiga xalaqit bermaydigan joylarda turishi va yashil maysalarga monand bo‘lib unga bo‘ysunishi kerak. Ularning arxitekturaviy dizayni zamonaviy an’analarga yoki antiqa dizayn stiliga yarasha bo‘lishi, landshaft sharoitiga munosib

ranglardan va engil konstruksiyalardan bajarilishini lozim.

Panjara devor (ixotalar) – perimetr bo‘ylab haqiqatda zarur bo‘lgan holatlarda qo‘yiladi. U yuqori badiiy qadr-qimmatga ega bo‘lishi kerak.

Qo‘yiladigan asosiy talablar – landshaftni kichik arxitekturaviy va dekorativ shakllar bilan haddan tashqari bezatilishiga harakat qilish kerak emas, faqat katta ma’lumot yuklatilgan obyektlar bundan mustasno bo‘lishi mumkin, misol uchun – tematik bog‘ va parklar.


Kichik shakllarga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri, ushbu hududning yashil o‘simliklari, relyef va landshaft kompozitsiyalarining shakllari bilan uyg‘unligiga erishishdir. Ular atrof-muhitga nomutanosiblikni olib kirishi kerak emas, arxitekturaviy-landshaft kompozitsiya stilistikasiga to‘la javob berishi kerak.

Kichik arxitekturaviy shakllar ixtiyoriy arxitekturaviy shakllarni – kirish qismidan, pavilyon, ratonda, galereya, supalar (besedka), bolyustradalar, fontanlar yoki ko‘prikchalardan poy vaza, fonarlar, panjarali to‘siqlar, o‘rindiqlar va boshqa ko‘rinishlarda aks ettirishi mumkin.

II-BOB . BINO TARHI.

Insoniyatning ilmiy-texnik taraqqiyot tomonidan belgilab berilgan bugungi hayot tarzining sur'ati ilm-fan, biznes, hordiq chiqarish va madaniyat kabi sohalardagi integratsion jarayonlar yanada kuchayishini taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, belgilangan maqsadlarga eng samarali ravishda yetishish uchun imkon qadar qulay yashash sharoitlari yaratilishini talab qiladi. Bugungi kunda bu funksiyani turli qulayliklar va sig'imga ega, turli vazifalar uchun mo'ljallangan mehmonxona komplekslari bajarmoqda. Xizmat ko'rsatish darajasi yuqori bo'lgan yangi mehmonxonalardagi reprezentativ va maishiy xonalar hajmining ortishi – ular tarkibining sifati o'zgarishi – odatiy holat sifatida qabul qilinmoqda, natijada, aksariyat mehmonxonalar ko'p funksiyali konglomeratlarga aylanib bormoqda.

Bu kabi konglomerat tarkibiga kiruvchi umumfoydalanish uchun mo'ljallangan turli xonalar kongress, majlis va shunga o'xhash ommaviy tadbirlarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlari yaratilgan to'plam sifatida qabul qilingan. Ushbu to'plam tarkibiga quyidagilar kiradi: konferenszllar yoki universal turdag'i zallar va ular atrofida shakllanuvchi umumiyl foydalanish uchun mo'ljallangan xonalar, shuningdek restoran va barlar, ko'ngil ochar xarakterga ega xonalar, qo'shib qurilgan va ochiq basseynlar, dam olish, ko'ngil ochar, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi muassasalar uchun ko'plab xonalar va, albatta, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, axborot sohasida xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan alohida majmualar.



2.1- rasm. Mexmonxona tarhi namunasi. Vazifasiga ko'ra xonalar ranglar bilan ajratilgan. (manbaa: <https://www.empirem.com.ua/>)

Bu kabi konglomeratni o'z ichiga olgan mehmonxonalarning namunasi sifatida “Kongress-otel” yoki “Konferens-otel”, shuningdek ishbilarmon kishilar uchun mo'ljallangan “Biznes-otel” deb nomlanuvchi mehmonxonalarini keltirish mumkin. Ulardagi jamoat qismning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bu majlislar, simpoziumlar va konferensiylar o'tkaziladigan zallar, aloqa bo'limlari va bank, teletayp, teleks va kompyuter xonalari, shuningdek basseyn, sauna, kegelban kabi hordiq chiqarish va ko'ngil ochar xonalarning mavjudligidir. Mamlakatimizdan mehmonxonalar fondi bir turda emas. Turli davrlarda qurilgan mehmonxonalar arxitekturasi, sig'imi, qavatliligi, jihozlanishi va uskunalari, xonalar fondining tarkibi va sifati, xonalar to'plami va maydoni bo'yicha farqlanadi.

Mehmonxonalar klassifikatsiyasi

Mehmonxona binolari bir nechta asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha toifalanadi:

Sig‘imi bo‘yicha:

- kam sig'imli – o'rinlar soni 100 tagacha;

- o'rtacha sig'imli – o'rinalar soni 100 dan 500 gacha;
- katta sig'imli – o'rinalar soni 500 dan 2000 gacha.

Qavatliligi bo'ycha:

- kam qavatli – 1-2 qavat;
- o'rtacha qavatli – 3-5 qavat;
- yuqori qavatli – 6-9 qavat;
- ko'p qavatli – 10-40 qavat;
- osmono'par – 40 va undan ko'p qavatli.

Vazifasi bo'yicha (mehmonxona binolari uchun asosiy tipologik belgi – ularning vazifasi):

- umumiy;
- konferens-otel, kongress-otel;
- sayyohlar uchun mo'ljallangan;
- kurort;
- kempinglar.

Qulayliklar darajasi bo'yicha: mehmonxonalarining razryadlari xalqaro standartlar bo'yicha yulduzlar soniga mos keladi:

- oliy A - *****;
- oliy B - ****;
- I - ***;
- II - **;
- III - *.

Xalqaro amaliyotda mehmonxonalar qulaylik darajasiga bog'liq ravishda bir nechta qurilish razryadlariga ajratiladi. Ularning soni turli mamlkatlarda 3 dan 7 gacha o'zgarishi mumkin. Ispaniyada qulaylik darajasi yulduzchalar bilan belgilanadi;



2.2- rasm. Namuna (manbaa: <https://www.sostav.ru/>)

Gretsiyada – harflar bilan; Avstriyada – klasslar bilan; Polsha va Bolgariyada – toifalar bilan va hk. Bu kabi bo’linishlar uchun asosiy mezon sifatida nomerlar fondining sifatiy tarkibi xizmat qiladi: bir, ikki o’rinli va sig’imi ko’proq bo’lgan nomerlar – bir xonali, shuningdek ko’p xonali lyuks nomerlar va apartamentlarning foizda ifodalangan o’zaro nisbati. Nomerlar fondining sifati shuningdek apartamentlardagi nomerning pardozlanishi, mebellar bilan jihozlanishi va texnik uskunalanishi bilan ham tavsiflanadi .

Ushbu daraja belgilanishining ikkita asosiy usuli mavjud bo’lib, birinchisida statistik ko’rsatkichlar, ya”ni vannaxonasi va sanitariya bo’lmasi bo’lgan nomerlarning aniq belgilangan nisbati, umumiyl foydalanish uchun mo’ljallangan xonalarning funksional tarkibi (basseyn, sauna va shu kabilarning bor yoki yo’qligi) bo’yicha belgilanadi; ikkinchisida – material bazaning sifatiga emas, balki dinamik omillarga, ya”ni servis xizmatining sifatiga qarab belgilanadi.

2.1. FUNKSIONAL ZONALARGA AJRATISH

Jamoat binosidagi barcha funksional jarayonlarni, uning ustuvor funksiyasi qanday bo'lishidan qat''iy nazar, quyidagilarga bo'lish mumkin:


- umumiyligi;
- o'zigaxos;
- yordamchi.

Funksional zonalash – inshootni funksiyalarining umumiyligi bo'yicha bir turdag'i xonalardan iborat guruhlardan iborat zonalarga bo'lish

Funksional zonalashning asosiy vazifasi – xonalar (yoki xonalar guruhlari) o'rta sidagi o'zaro bog'liqliklarni ularning aniq chegaralarini saqlagan holda aniqlash. Bu masala xonalarni muayyan tarzda guruhlash yordamida echiladi.

Mehmonxonalarning barcha xonalari funksional vazifalariga bog'liq holda 9 ta funksional guruhga bo'linadi:

- qabulxona-vestibyul guruhi;
- turar joy-yotoq xonalari (nomerlar) va ularga qo'shilgan xonalar guruhi;
- ovqatlanish xonalari guruhi;
- savdo va maishiy xizmat ko'rsatish guruhi;
- turistik-sog'lomlashtirish vazifalari uchun mo'ljallangan xonalar guruhi;
- dam olish va anjumanlar o'tkazilishi bilan bog'liq turizm guruhi;
- ma'muriyat va boshqaruv xonalari guruhi;
- yordamchi va xo'jalik vazifalar uchun mo'ljallangan xonalar guruhi;
- kommunal (muhandislik) ta'minot va vertikal transport guruhi.



2.3- rasm. Funksional zonalarga ajratish

1. *Qabulxona-vestibyul guruhi* tarkibiga quydagilar kiradi:

- qabul xizmati va dam olish zonalari joylashgan vestibyul;
- porte va ma''murlar xonasi;
- hujjatlar saqlanadigan xona;
- garderob;
- saqlash kamerasi;
- bagajlarni tushirish va saralash xonasi;
- navbatchi xodimlar uchun dam olish xonasi;
- valyuta ayirboshlash punkti bo'lган bank bo'linmasi;
- pochta bo'linmasi, telefonlar, teletayp;
- hojatxona;
- bar peshtaxtasi;
- turli vazifalar uchun mo'ljallangan kiosklar;
- do'konlar.

2. *Turar joy xonalari guruhi – yotoq xonalari (mehmonxona nomerlari) va ularغا qo'shilgan xonalar guruhi.*

Mehmonxona razryadiga bog'liq holda nomerlar 1 yoki 2 kishilik, 3 kishilik – ota-on va bola uchun mo'ljallangan oilaviy nomer ko'rinishida; bir, ikki va uch xonali qilib rejalashtirilishi mumkin. Bir xonali mehmonxona nomeri yotoq xonasi, eni kamida 1,4 m bo'lgan va shkaf o'rnatilgan yo'lak, sanitariya bo'lmasi va yozgi xona: balkon, lodjiya, ochiq ayvondan iborat bo'ladi. Ikki xonali nomerda yotoq xonasidan tashqari mehmonxona, u xonali nomerda esa – mehmonxona va kabinet ham rejalashtiriladi, bunda yo'lakdan faqat mehmonxonaga kirish mumkin bo'ladi. Oliy va birinchi razryadli mehmonxonalardagi ikki kishi uchun mo'ljallangan 2 xonali va 3 xonali nomerlarda yotoq xonasi yonida tarkibida unitaz va qo'l yuvgich va vanna, qo'l yuvgich, unitaz, bide mavjud bo'lgan ikkita sanitariya bo'lmasi loyihalashtiriladi. Nomerlar yonida qo'shimcha xonalar: ko'rpa-to'shak saqlanadigan xona, navbatchi xodimlarning xonalari, dazmollash xonasi, qavatlar bo'yicha xollar joylashtiriladi.

Quyidagi jadvalda(2.1- jadval) mehmonxona razryadiga bog'liq ravishda nomerlarning maydonlari keltirilgan, m2:

Xonalar/o'rnlarni soni	Oliy A	Oliy B	I	II	III
1 / 1	14	12-14	12-14	12	10
1 / 2	18	14-18	14-18	14	14
2 / 2	24	24	24	24	-
3 / 2	40	40	40	-	-
1 / 3 (oilaviy)	-	20-24	20-24	18	18

2.1- jadval

Mehmonxona binolari turar joy qavatlari uchun rejaviy tuzilmalarning quyidagi turlari mavjud:

- yo'lakli;
- galereyali;
- ikki yo'lakli;
- yo'lakli-halqali;
- minorali;

- uzelli;
- atriumli.


3. *Ovqatlanish xonalari guruhi* quyidagiidan iborat:

- restoran;
- Yevropa taomlari restorani – oliv razryadli mehmonxonalar uchun;
- milliy taomlar restorani – oliv razryadli mehmonxonalar uchun;
- kafe;
- ekspress-kafe, kafeteriy;
- qavatdagi bufet;
- nonushtalar zali, “shvedcha stol”.

4. Savdo va maishiy xizmat ko’rsatish xonalari guruhi tarkibiga quyidagi savdo xonalari kiradi: gazeta va jurnallar, suvenirlar, tamaki mahsulotlari, parfyumeriya, gul, dori-darmon, qandolat mahsulotlari sotiladigan do’konlar yoki kiosklar.

Maishiy xizmat ko’rsatish xonalariga quyidagilar kiradi:

- sartaroshxona;
- sport anjomlarini ta“mirlash xonalari;
- har bir qavatdagi dazmollash xonalari;
- poyafzal ta“mirlash ustaxonasi;
- prokat punktlari;
- fotolaboratoriylar;
- tibbiy punkt.



2.4- rasm.

5. *Turistik-sog'lomlashtirish vazifalar uchun mo'ljallangan xonalar guruhি:*

- metodik kabinet;
- instruktorlar xonasi;
- prokat va saqlash punktlari;
- reabilitatsiya markazlari;
- trenajyorlar zali;
- psixologik zo'riqishdan xoli qilish kabineti;
- suzish basseyni.

6. *Dam olish va anjumanlar o'tkazilishi bilan bog'liq turizm uchun mo'ljallangan xonalar guruhি:*

- kinozal;
- zal qoshidagi ishchi xonalar;
- kutubxona, qiroatxonasi bilan;
- garderob, hojatxona, kassa joylashgan vestibyul;
- bilyardxona;
- videosalonlar;

- dam olish uchun xoll;
- artistlar uchun pardozxona.

7. Ma'muriyat va boshqaruv xonalari guruhi:

- qabulxona;
- direktor, direktor o'rinos, huquqshunos kabinetlari;
- buxgalteriya, kassa va bosh buxgalter kabineti;
- arxiv;
- kadrlar bo'limi;
- hisoblash texnikasi uchun xona.

8. Yordamchi va xo'jalik xonalari guruhi:

- aloqa uzeli;
- katta xodima xonasi;
- ko'rpa-to'shak saqlanadigan xona;
- omborlar;
- ustaxonalar.

9. Kommunal (muhandislik) ta'minot va vertikal transport uchun xonalar guruhi:


- qozonxona yoki issiqlik punkti;
- havoni tozalash tizimlari uchun xona;
- havo almashtirish (ventilyatsiya) kameralari – oqimli va so'rib oluvchi;
- suv tortuvchi nasoslar xonasi;
- qozonlarning boylerlari joylashgan xona;
- liftlar;
- lift mashinalari joylashgan xona.

Muhandislik ta'minoti xonalari texnik yerto'lalarda va texnik chordoqlarda, yerto'la va sokol qavatlarda joylashadi.

Yuqorida ko'rsatilgan xonalarning mavjudligi va ularning o'lchamlari mehmonxona razryadi va loyihalash topshirig'iga bog'liq bo'ladi.

2.2. SHAKLIY YECHIM BERISH

Dunyoning barcha mamlakatlarida zamonaviy mehmonxona kompleksi yoki binosining muayyan sereotipi shakllangan bo'lib, aksariyat hollarda ularning tarkibida quyida sanab o'tilgan xonalar to'plami mavjud bo'ladi: vestibyul-xoll, restoran, kafe, mijozlarga tunda va kunduzi xizmat ko'rsatiladigan barlar, bufetlar, majlislar zali, maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari va qulaylik darajasi bo'yicha mehmonxona toifasiga bog'liq ravishda sanitariya bloklari uchun zarur bo'lgan turli uskunalarga ega turar joy nomerlari. Mehmonxona xonalari funksional vazifalariga qarab *turar joy*, *jamoat* va *xizmat-xo'jalik* qismlarga birlashtiriladi. Bunda turar joy va jamoat qismlari asosiy hisoblanadi.



2.5- rasm. Bloklarga ajratilgan ko'rinish. (manbaa: Bo'ronov N.S. Xiva. 2014)

Bu qismlarning turlicha o'zaro joylashuvi va yechimlari hisobiga mehmonxonalarining turlicha hajmiy-fazoviy tuzilmalari yaratiladi. Tuzilmalarning asosiylarini ko'rib chiqamiz:

- mehmonxonaning turar joy va jamoat qismlari bitta binoda joylashgan;
- mehmonxonaning turar joy va jamoat qismlari turli, lekin o'zaro bog'liq bo'lган korpuslardan joylashgan;
- mehmonxonaning turar joy va jamoat qismlari mustaqil va o'zaro bog'lanmagan binolarda joylashgan.

Birinchi variant qo'llanilganida umumiyligi foydalanishdagi xonalar pastki qavatlarda, turar joy xonalari esa – yuqori qavatlarda joylashtiriladi. Pastki qavatlardagi jamoat xonalarining maydoni, odatda, turar joy qismining maydonidan kattaroq bo'lib, yuqorisida mehmonxonaning turar joy qismi joylashgan o'ziga xos stilobat hosil qiladi. Qurilish amaliyotida keng qo'llaniladigan bu kabi usul imorat maydonini sezilarli darajada qisqartirish imkoniyatini yaratadi. Turar joy va jamoat qismlarining turli korpuslarda joylashuvida ularning qavatliligi va hajmiy-fazoviy yechimlari o'rtaсидаги farqlanish yuzaga keladi. Bu kabi kompozitsion yechim, lekin qurilish uchun avvalgi variantga qaraganda ko'proq maydon ajratilishini talab qiladi va qo'llanishi uchun doim ham imkoniyat bo'lmasligi mumkin. Uchinchi, ya''ni pavilon ko'rinishidagi variant xonalarining barcha guruhlari uchun yechimlarning erkin tanlanishi uchun imkoniyat yaratadi va mehmonxonaning funksional va konstruktiv nuqtai nazarda aniq bo'linishini ta'minlaydi, lekin boshqa variantlarga qaragan ancha katta maydon ajratilishini talab qiladi. Shu sababdan ushbu usulda quriladigan mehmonxonalar, asosan, shahar tashqarisidagi bo'sh hududlarda joylashtiriladi. Amaliyotda mehmonxonalar va mehmonxonalar komplekslari uchun hajmiy-fazoviy yechimlarning turli kombinatsiyalari qo'llaniladi.


Mehmonxona korpuslari uchun nomerlar joylashuvi turlicha bo'lган yo'laklari (minimal kengligi – 1,6-1,8 m) mavjud rejaviy sxemalar qo'llaniladi:

- ikki tomonida nomerlari joylashgan bitta yo'lakli turar joy qavatining rejasi;




2.6-rasm. (manbaa: <https://www.pinterest.ru/>)

- nomerlar yo'lakning bir tomonida joylashgan turar joy qavatining rejasi; bu usul nomerlar muayyan yo'nalishga qaratilishi lozim bo'lgan hollarda qo'llaniladi;




2.7-rasm. (manbaa: <https://http://inn35.ru/>)

- perimetр bo'yicha yopiq yo'lakka ega bo'lgan turar joy qavatining rejasi;



2.8-rasm. (manbaa: Бизнес-отель : методические указания к выполнению курсового проекта. «Бакалавр архитектуры» / сост. Н. В. Савкова. – Хабаровск : Изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2014. - 59 с)

- ikkita yo'lakli turar joy qavatining rejasi, bunda yo'laklar o'rtasida vertikal kommunikatsiyalar va tabiiy yoritilishga ega bo'limgan xizmat xonalari joylashtiriladi; nomerlar yo'laklarning tashqi tomonlarida joylashtiriladi;



2.9-rasm. (manbaa: <https://http://inn35.ru/>)

- markaziy qismida liftli yoki zina-lift uzeli mavjud seksiyali tuzilmaga ega bo'lgan turar joy qavatining rejasi; har bir seksiya ikki tomonida nomerlar joylashgan va perimetri bo'yicha yopiq yo'lakka ega bo'lishi mumkin;



2.10-rasm. (manbaa: <https://proekt-sam.ru/>)

- rejaviy tuzilmalarning turlicha kombinatsiyalari asosida shakllangan turar joy qavati.

Rejaning geometrik shakli ham turlicha bo'lishi mumkin :

- *to'g'ri to'rtburchakli*: qavatlar soni va uzunligi turlicha bo'lgan mehmonxona binolarida qo'llaniladi. Bunda turar joy qavatlarining yo'lakli yoki galereyali tuzilmalari va vertikal kommunikatsiyalar hamda nomerlarga xizmat ko'rsatuvchi navbatchi xodimlar uchun mo'ljallangan xonalar joylashishining turlicha variantlaridan foydalaniladi; rejaning bu kabi shakli asosida plastina yoki parallelopiped shaklidagi ixcham hajmlar yaratiladi.

- rejaning ixcham shakli (aylana, ellips, kvadrat, uchburchakka o'xshash) minora turidagi mehmonxona binolarini qurishda foydalaniladi; vertikal kommunikatsiyalar uzeli, odatda, binoning markaziy qismida joylashtiriladi; qavatlardagi yo'laklar siqilgan; ixchamligi (kompakt bo'lgani) tufayli qavatdagi nomerlar soni 10 dan 27 tagacha cheklanadi;

- turar joy qismining *murakkablashtirilgan* rejasi: rejaning “uchbarg”, “xoch”, V-, L-, Z- va G-simon shakllari, egri chiziq va elpig’ich ko’rinishidagi kompoziyalar; odatda, nomerlargacha masofani qisqartirish uchun zina-lift uzeli binoning markaziy qismida joylashtiriladi. Jamoat xonalarining murakkab tizimini guruhanishi turli *atrium* bo’shlqlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Rejaning atriumli shakli bitta qavatda joylashtiriladigan nomerlar sonini oshirish imkoniyatini beradi. Bunda atriumning orayopmalari zamonaviy fazoviy kontsruksiyalardan foydalanib, odatda, yorug’ o’tkazadigan shaffof materiallarni qo’llagan holda bajariladi. Qishki bog’ sifatida bir qismi faol ko’kalamzorlashtirilgan atrium hovli o’rta asrlarga xos karvonsaroy metamorfozasini emas, balki kompozitsion-badiiy yechimlari landshaft arxitekturasi vositalari yordamida amalga oshiriluvchi bog’ - pationi eslatadi.

2.3. EKOLOGIK MUHITLARNI SHAKLLANTIRISH

Ekotizimni shakllantiruvchi va zamonaviy binolar uchun eng muhim va tuzilma yaratuvchi hisoblangan bir nechta jihatlarni belgilaymiz:

- bino yo’nalinishi va konfiguratsiyasini belgilash maqsadida loyihalash hududining iqlimi sharoitlarining tahlili;
- xonalarining, xususan, har bir ish joyining tabiiy yoritilganligi;
- xonalarining tabbiyi shamollatilishi;
- energiya tejamkorligi: iqlimi sharoitlardan kelib chiqqan holda, isitish va, aksincha, sovutish nutqai nazaridan tejamkor rejalashtirish;
- binoda mikroiqlim shakllantirish maqsadida o’simliklardan foydalanish imkoniyatlari;
- dinamik adaptatsiya prinsipida qurilgan energo faol binolar. Quyida sanab o’tilgan jihatlarning har biri ustida to’xtalib o’tamiz. Xonalarning chuqurligi bilan shartlangan tabiiy yoritilganlik muammosi ayniqsa atriumli binolarda dolzarb hisoblanadi. An“anaviy rejali tuzilmaga ega ma’muriy binolarni loyihalashtirish amaliyotida shakllangan xonalar

yoritilishining hisoblash usullari atriumli inshootlar uchun to'g'ri kelmaydi. Yo'lakli sxemaga ega binolar uchun qo'llaniladigan an“anaviy usullar quyosh nurlari xonalarga to'g'ridan-to'g'ri tushishiga va xona ichida aks etishiga mo'ljallangan. Atriumli binolarda esa nurlar ishchi xonalarga etib borguncha turli yo'nalishlarda ko'p marotaba aks etadilar. Shu nuqtai nazarda atriumli bo'shliqlardan ishchi xonalarni qo'shimcha tabiiy yoritilishi va, aksincha, ko'z dam olishi uchun foydalaniladi. Agar, atriumli sxemada qabul qilingan hajmiy-rejali yechim ishchi xonalarni faqat tabiiy yoritilishini taqozo etsa, “atriumga quyosh nurlarini tutuvchi va tarqatuvchi shaklini berish va uning atrofida tegishli bo'shliqni yaratish kerak” Bunda, R.Sakson bo'yicha, atriumga tutashadigan xonalar enini kichraytirish yoki balandligini oshirish lozim (tabiiy yoritilganlik talab etilgan darajaga ega bo'lishiga qadar). Xonalarning balandligi va derazalar turi odatdagicha bo'lganida kengligi 12 metrdan oshmaydigan xonalarni tashkil qilish mumkin. Qavat balandligini oshirib va ayrim aks ettiruvchi maxsus qurilmalarni qurish orqali bu parametrlarni kattalashtirish mumkin. Qavat balandligini 2,7 metrdan 3,6 metrgacha kattalashtirib xonalarning qoniqarli hisoblangan yoritilishini 9 metrga ko'paytirishni ta“minlash imkoniyati yaratiladi. Chuqur bo'limgan xonalar perimetri bo'ylab tashkil etilgan oraliqlar yordamida oson yorilib, qo'shimcha yoritish vositalarini talab qilmaydilar. Bu holatlarda, agar qavatlar balandligi kichiklashtirilsa, atrium hajmi kattalashtiriladi. Qavatlar balandligini oshirilishi atriumning belgilangan balandligida ularning soni kamaytirilishiga, shuningdek ventilyatsiya kanallarini joylashtirish uchun qavatlararo bo'shliqning kattalashishiga olib keladi. Agar funksional nuqtai nazardan chuqur xonalarni tashkil qilish talab etilsa, u holda ushbu bo'shliqlarning atrium bilan bog'lanishlarini diqqat bilan o'rganib chiqish zarur bo'ladi. Agar kunduzida tabiiy yoritish talab etilsa, mo''tadil iqlim kengliklarida ham haroratni muvofiqlashtirish katta muammoga aylanishi mumkin.

Atriumdan o'ziga xos isitish qurilmasi sifatida foydalanish yo'li bilan binoni sovutish uchun xarajatlarni kamaytirish, isitishni esa ancha soddalashtirish

mumkin. Muqobil strategiya sifatida qisman tabiiy yorug'lik, qisman sun''iy yoritgichlar bilan yoritiladigan tuzilmadan foydalanish qo'llaniladi. Bunda, optimal iqtisodiy samaraga erishish uchun tabiiy va sun''iy yorug'liklar maxsus muvofiqlashtirish tizimi bilan o'zaro bog'lanishi zarur. Integal yoritilishga mo'ljallanib loyihalashtirilgan binolarda qorong'i tushishiga yoki bulutli havoga qarab sun''iy yorug'lik manbalari binoning eng chuqur va qorong'i qismlaridan boshlab asta-sekin ishga tushirilishi lozim. Bino tuzilmasining energiya tejamkorligi nuqtai nazarida asosiy jihatlaridan biri sifatida hisoblangan ekotexnik konsepsiyasini atriumli binolar misolida ko'rib chiqamiz. Atriumli binolarni loyihalashtiruvchilar qulaylik darajasini ham kamaytiradigan, ham yaxshilaydigan oranjereya effekti va aerodinamik tortish kuchi effekti kabi ikki hodisa bilan to'qnash keladilar. R.Sakson bo'yicha oranjereya effektining mohiyati shundan iboratki, quyosh nurining qisqa to'lqinli tarkibiy qismi oynadan o'tib, interyerni isitadi. Issiqlikning ichkaridan tashqariga nurlanishi to'lqinlari uzunroq bo'lib, oyna tomonidan ushlab qolinadi.

Shunday qilib, quyosh issiqligi ichkarida saqlanib qolib qishda samarali va yozda, aksincha, salbiy effektni beradi. Bu hodisa atriumli bo' shliqlarni ikki yo'nalishda foydalanishni belgilab berdi: binolarni isitishga mo'ljallangan atrium va binolarni sovutishga mo'ljallangan atrium. Birinchi yo'nalish qishda atrium ichini foydalanilgan havo hisobiga isitishga va yozda tabiiy shamollatish yo'li bilan sovutishga asoslangan. Ikkinci yo'nalish atriumdan havo almashinuvini ta'minlab beruvchi havo rezervuari sifatida foydalanishni ko'zda tutadi. Havoning tortish kuchi turli balandliklardagi havo bosimlar o'rta sidagi farqlanish orqali hosil bo'ladi, natijada issiq havo atriumning yopiq hajmi ichida doim pastdan yuqoriga harakatlanadi. Ana shu tortish kuchini ventilyatsiyani ta'minlash uchun ishlatish mumkin, shu sababdan ham atriumni yetliyatsion kanal sifatida ham talqin etadilar. Konstruktiv usullar ham, o'z mohiyatiga ko'ra binoning yo'naltirilishi va yon-atrofdagi tabiiy ob'yektlardan chiqqan quyosh nurlarini aks etish kabi shaharsozlik yechimlarini hal qilish

bilan birga, jamoat binolarining energetik va ekologik samaradorligini oshirishga, shuningdek ularning tejamkorligiga yo'naltirilgan usullar sirasiga kiradi. "Dinamik adaptatsiya prinsiplaridan foydalanuvchi kinematik usullar ... quyosh energiyasini ushlab qolinishi va jamlanishini yaxshilash imkonini beruvchi energofaol binolarning Quyosh aylanishini kuzatish rejimida aylanishi yoki boshqa sikllik harakatlanishlar; to'siqlarni energofaollik va energetik tejamkorlikni oshiruvchi turli ko'rinishlarga o'zgartirilishi; Quyosh harakatlanishini kuzatuvchi kollektorning va buriluvchi panelli kollektorlarni tatbiq etilishi; buriluvchi qaytarish ekranlarining qo'llanilishi alohida o'rincutadilar".

2.4. TARHIY YECHIMDAGI KONTRAST VA NYUANS

Kontrast – elementlarning, predmetlarning, shakl va ularning quyidagi parametrlar bo'yicha xususiyatlarining keskin farqlanishi: hajm, shakl, tus, rang fazoviylikdagi o'rni va h.k.


Konstrast so'zi ostida taqqoslab ko'rish, bir xil xususiyatlari orasidagi keskin o'zgarish tushuniladi. Pastkisi balandga; yengiliog'irga; ochi qoramirga, murakkabi oddiyga va h.k. taqqoslanishi mumkin.

Kontrast – bu badiiy usul, uning mohiyati, ikki o'zaro munosabatdagi xususiyatni, sifatni, fazilatni o'z ichiga oladi.

Ajratib ko'rsatiladi: bir o'lchovli kontrast – bir parametr bo'yicha taqqoslangan; ko'p o'lchovli kontrast – bir necha parametrlar bo'yicha taqqoslangan. Kontrastli kompozitsiyaning o'ziga xosligi uning vizual harakatdagi faolligi ko'rsatiladi.

Kontrastlarning kompozitsiyadagi ifodaliligi tartibsiz emasdir, ritm vositasida qonuniydir. Kontrast masshtab, material, ranglar yordamida yaratiladi.

Kontrastli kompozitsiyalar - kontrast asosida kompozitsion tuzilishlar maksimal ifodalilikka va keskinlikka erishishga ijozat beradi, shu bilan birga maqsadli hissiyotga imkon beradi, shuningdek elementlar tavsifidagi ortiqcha bir xilligi, elementlar birligini ko'rsatmaydi.



2.11- rasm. Tarhiy yechimdagи kontrastga misol.(manbaa: Bo'ronov N.S. Toshkent. 2020)

Hajmlи modul tuzilishidagi konstrastlar shartli quyidagi tartibda taqdim etilishi mumkin:

- to‘yinganlik - hajmlarning va shakllarning turlicha gradatsiyasining (izchillik) taqqoslanishini ko‘rsatadi;
- mutanosib kontrast – shakllarni o‘zaro nisbatini ifoda etadi;
- qo‘shimchalar kontrasti;
- bir vaqtdagi kontrast – turlicha illyuziyalar bilan erishiladi, masalan chuqurlik illyuziyasi.

Elementlar o‘zaro nisbatini “massa bo‘yicha” aniqlash muhimdir, ko‘zga ko‘rinadigan konkret shakllardan abstraksiya qilishni o‘rganish, barcha kompozitsiyani uning tarkibiga ta’sirini o‘tkazishni his qilish;

Kontrast, kompozitsiyaning vositasi sifatida, kuchli va kuchsiz tomonlariga egadir. Kuchli tomoni o‘z ichiga shuni oladiki, kontrastda qurilgan shakllar , har doim ifodali va yaxshi eslab qolinadi.

Juda ham keskin kontrastda elementlarning kompozitsion bog‘liqligi buzilishi mumkin, shakl esa ko‘rish orqali qismlarga bo‘linib ketishi mumkin. Garmonianing yutug‘ida (monandlik) eng kerakli shart kontrast me’origa rioya qilishlidir, yana shuningdek elementlarning keskin farqliklilik orasidagi ravon o‘tishlikni yaratishdir.

Turli komopzitsiyalarda kontrastlar roli bir xil emas. Bunday holatlarda, agar

kontrast shartli ravishda ob'yektiv bo'lsa, shakllarni tashkil etishda asosiy vosita bo'lishi mumkin. Agar uning qo'llanilishi muhim bo'lmasa, u yordamchi vosita sifatida qatnashadi.

Konstrastdan ishlab chiqarish muhitida foydalanish, qoidaga ko'ra ishslash uchun optimal sharoitni yaratishda kerakli qilib qo'yiladi.

Kontrastlarning juda ham kuchliliga ham va ularning ishtirok etmasliklari kabi, vaqtdan ilgari toliqishni chaqiradi. Shu munosabat bilan kontrastlik darajasibadiiy yondoshish pozitsiya bilan tekshirilmay, ergonomika bilan ham tekshirilishi kerak.

Kompozitsiya ustida ishlashda, ranglarning optimal o'zaro munosabatini tanlash muhim ahamiyatga ega. Oxirgi darajagacha bo'lgan ranglar kontrasti shakl yaxlitligining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Ba'zan vositalar orasida, mutanosiblikka erishish uchun foydalanish, ikki vosita deb ham ataladi, ayni kontrastili va nyuansli o'zaro munosabatlar.


Kompozitsiyada kontrast nyuans bilan ajralmagan holda bog'liq. Agar kontrast nozik nyuansli yo'l bilan to'ldirilsa, u na faqat shaklni dag'allashtiradi, va yana uning yaxlitligini buzishi mumkin.

Aksent (urg'u berish) – lotinchadan “urg'u” – kontrastli element, qaysiki kompozitsiyada alohida ta'kidlanadi, urg'u beriladi, unga tomoshabinlar e'tibori alohida ta'kidlanadi. Hattoki eng kichik urg'u uni mubolag'asiz “portlatadi”.

Dominanta (assosiy belgi) bir tuzilishning boshqa tuzilishi ustidan ustunlik qilishi. Masalan, qandaydir rangni yoki aniqlangan shakl elementlaridan ustunlik qilinishi va h.k.

Nyuans – bu tus, nozik farqlanish, arang seziladigan ketma-ket o'tish, masalan, og'irdan yengilga, qoradan oqishga, kattadan kichikka, oddiydan murakkabga va hokazo.

Nyuans – kompozitsiyada elementlarning sezilarli bo'lмаган xuddi shunday kategoriylar bilan farqlanadi.



2.12- rasm. Tarhiy yechimdagি nyuansga misol.(manbaa: Bo'ronov N.S. Toshkent. 2020)

Shuningdek bir o'lchovli va ko'p o'lchovli nyuanslar ajratiladi. Nyuansli shakllarda, farqlanishdan ko'ra, ko'proq o'xshashlik bor.

Nyuanslashtirish ob'yektning nozik modellashishiga erishish uchun qo'llaniladi. Agar nyuans kuchaytirilsa, u kontrastga o'tishi mumkin. Agarki uni kuchsizlantirilsa, u ko'rishda farqlanmaydigan bo'lib qolishi, ya'ni o'xshashlik bo'lib qolishi mumkin.

Nyuansli kompozitsiyalar - nyuans kompozitsiya elementlarining asosiy kompozitsion belgilari bilan kuchsiz farqlanishi bilan xarakterlanadi. Masalan, fakturali sirtlarda, u yirik va mayda donadorlikni, rangda – to'q sariq – qizil va qizil tuslarni ifodalaydi va hokazo. Nyuansli munosabatlar yaqin va uzoqda bo'lishi mumkin.

Yaqin munosabatlar elementlardan foydalanim kompozitsiyani tuzishni, shunday deb ataladigan xususiyatlarning teskari o'zgarilish xarakterini ko'zlaydi, masalan hajmlarning kengayib borishi va releflarni zichlashtirish.

Uzoq munosabat elementlar xususiyatini to'g'ri va parallel o'zgarishida ifoda etiladi, masalan rang yorqinligining o'sishi va hajmlarning oshishi. U yoki bunga mos holda nyuanslash va kompozitsiya xarakteri o'zgaradi: ajratib tekislanganda u hiyla osoyishta, ularni kengaytirilganda – o'tkir.

Bir butunlikda nyuans ko‘rishga oid tenglikni kompozitsiya hismlari o‘rtasida, uning yaxlitligiga erishishni o‘rnatishga imkon tug‘diradi. Misol uchun – yaqinlashtirilgan tuslar asosida, yagona rang gammasini o‘zida ifoda etadigan, yaxlit xromatik qator sifatida qabul qilinadigan ranglar birikmasi.

Shakllar nyuansirovkasi loyihalovchidan, eng yuqori kvalifikatsiyani, nozik qobiliyatlikni talab etadi, unga odatan konstruksiyalashning yakunlovchi bosqichi, qachonki shakl asosi qo‘shilsa yetib keladi.

Chunonchi shaklning silliqlanishi, nyuansirovkasi eng so‘nggi ishni yakunlaydi.

Nyuansirovka – bu asosiydir, ya’ni buyumni anchagina shakllantiradi, bashang qiladi. Shunday ekan, nyuansirovka – kompozitsyaning barcha vositalari ichida eng nozigidir, undan foydalanish esa qiyin vazifani ifodalaydi va eng yuqori malakani talab etadi. Agar kontrast ko‘pincha vazifa bilan yoki buyum konstruksiya bilan shartlansa, u holda nyuans na uni na buni aniqlamaydi.

Nyuans shaklning badiiy anglash bilan, material, ranglar bilan bog‘liq va sezilarli darajada dizaynerning individualligiga bog‘liqdir.

Shakllarning nyuansirovkasi ko‘pincha buyumlarning ishlab chiqarish texnologiyasiga va qo‘llanilayotgan materiallarning xususiyatiga bog‘liq. Dizayner materialning xususiyatini nozik his qila olishi va ulardan to‘g‘ri foydalana olishi kerak. Nyuans proportsiyada, ritmda, rangda, plastikada, dekorda, fakturada, sirtda va hokazoda namoyon etiladi.

Nyuansda tuzilgan, shakllar, har doim osoyishta va birdan ochilmaydi (shakldan farqli o‘laroq, kontrastda tuzilgan). Shuning uchun, shakl ustida ishlashda ko‘plab nyuanslardan foydalanish mumkin. Bularda hattoki butun kompozitsiyani qurish mumkin. Ayniqsa nyuansning roli intererlarni ishlashda kattadir, qaysiki alohida elementlarni doimo bog‘lash zarurdir.

III-BOB. BINO TARZI.

Tarzlar – bu binoning frontal ortogonal proeksiyasi yoki uning turli tomondan ko‘ringan tavirlaridir. Bunday proeksion tasvirlar binoning tuzilishi, umumiyo‘rinishi, vertikal va gorizontal bo‘linishlari, nur va soya xarakteristikasi, devorlarning fakturasi va palastikasi, atrof muhit bilan bo‘lgan munosabati haqidagi tasavvurlarga ega bo‘lish uchun xizmat qiladi.

Tarzlar 1:100, 1:50, 1:25 masshtablarda chiziladi.



3. -rasm. Tarz. a) Tarzning rangli eskizlari (manbaa: www.pinterest.com)

b) Tarzning ishchi loyihadagi ko’rinishi (manbaa: 3-kurs talabalari. TAQI-2020)

3.1. KOMPOZITSIYA

Dinamika. Statika.

Dinamika va statika kompozitsion shakllarni mustaxkamlilik darajasini ifodalashda foydalaniladi. Bunday mustaxkamlilik aniq, sof his-hayojonda baholanadi, ya’niki shakl tomoshabinga taassurot tug‘diradi.

Bu taassurot shaklning jismoniy holatidan – statik yoki dinamik, bir butun ob’yektning harakati bilan bog‘liq yoki uning qismlari, kompozitsiya (formal) qatoridan kelib chiqishi mumkin. Shaklning ko‘rish va jismoniy statik darajasidan kelib chiqib quyidagi to‘rt ko‘rinishga bo‘lish mumkin:


Ko‘rishga oid va jismoniy statik shakllar. Hosil qilinadigan taassurotlardan ular imkon boricha barqarorlik bilan baholanadi. Ularga quyidagilarni keltirish mumkin: kvadrat, to‘g‘riuchburchak, parallelopiped (oltiyoqli), keng asosga tegishli, kub, piramida va hokazo. Shu xildagi shakllardan tuzilgan kompozitsiya, mahobatli, imkonli boricha statik xarakterni ifoda etadi.

Dinamika - shaklga bir tomonlama faol yo‘naltirilganlikni qabul qilish deb tushuniladi. Bu kompozitsiya xususiyati mutanosiblik va o‘lchamga munosabati bilan bog‘liq. Kompozitsiya uchun tenglik munosabatida statik xarakterlidir, kontrast munosabatida esa dinamika yaratiladi, biroq ko‘rish orqali harakatlanganda katta o‘lchovga yo‘naltirilganlik kelib chiqadi. Harakat va jonlilikni, kompozitsiyaning mustahkam emasligini va noto‘g‘riligini ko‘rsatish orqali berish mumkin. Bizlar uchun tinchlik va statiklik holatini aniqlash odatdir. Biz doimo, tana tenglik holatidami deyishimiz mumkin. Holat muvozanatini saqlay olmaslik yoki shakl ob’yekti bizda harakatni oldindan sezish – harakatlar seriyasini kutishga chorlaydi. Shaklni kutish vizual buziladi.



3.1. -rasm. Binoda dinamika.

Statika - bu tinchlik, harakatsizlik, shakllarning, geometrik asosdagi barcha qurilishidagi mustaxkamlik holatiga urg‘u berilganligi. Statik predmetlar, qaysiki yaqqol markazga ega va simmetriya o‘qi shakl o‘qining asosiy tashkil etuvchisi bo‘ladi. Statik kompozitsiya o‘zining qonuniyatiga ega, ya’niki ularga rioya qilmasdan, estetik to‘la qonli shaklni yaratish qiyindir. Statik formani ko‘pincha nafaqat simmetriya harakaterlaydi, ko‘p hollarda markazning aniq bildirilganligi, shuningdek, ob’yektning umumiy yirik massasi xarakterlaydi. Statik tushunchasiga biz majburiy – og‘ir va harakatsiz shakllarni beramiz.



3.2. -rasm.Binoda statik ko‘rinish.

Kompozitsiyani qurishda aniq qonuniyatlarga rioya qilish, kompozitsiyadagi topshiriq qanday qo‘yilganligiga qarab, statik xususiyatlarini oshiradi yoki susaytiradi.

Statik kompozitsiyalardan asosan tinchlikni, uyg‘unlikni berish uchun foydalilanadi. Statik kompozitsiyalar uchun elementlar shaklga yaqin, fakturasi, massasi bo‘yicha tanlanadi. Tusli – rang yechimda yumshoqlik o‘ziga xosdir. Ranglar yechimi nyuanslarda quriladi – ranglarni yaqinlashtirish: murakkab, tuproqli, jigarrang. Asosan markaz, simmetrik kompozitsiya jalb qilinadi. Barchasi nyuansda qurilgan. Predmetlar fakturasi bo‘yicha bir xildir, rangi bo‘yicha ham bir xildir.

Umumiy yorug‘lik yechim ularni birlashtiradi va tinchlik – xotirjamlik va garmonik atmosferani yaratadi.

Statiklik – tinchlikni bildiruvchi, shakllar mustaxkamligi. Statik predmetlar, ya’ni aniq markazga ega va ulardagi simmetriya o‘qi shakllarni tashkil etishda

asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bunday shakl, dinamik shakldagidek effektiv bo‘masligi mumkin. Harakat tinchlik kabi taassurotga egadir.

Statik shakllarning asosiy turlari:

- simmetrik shakl;
- o‘lchovga oid;
- elementlarni ko‘zga tashlanmaydigan aralashmasi;
- teng elementlarning birini – birini qoplashi;
- yuqoriga yengillik bilan;
- elementlarning sezilarli bo‘lmagan qiyaligi;
- gorizontal bo‘linish;
- elementlarning to‘g‘ri joylashuvi;
- yirik bir–biriga yaqin elementlar bilan;
- yirik asosiy elementlar bilan;
- elementlarning simmetrik joylashuvi; - markazi ajratilganligi bilan.

Jismoniy statik, lekin ko‘rishga oid dinamik shakllar, ularni taassurotga binoan baholanishi bir xil turmaydi.

Bu baholanish statsionar shaklga, oldinga siljishga, masalan bir yo‘nalishda, simmetriyasi buzilgan va boshqa spetsifik dinamik kompozitsiya xususiyatlari uchun tegishli.

Bu shakllarning asosiy turlari:

- markaz o‘qidan aralashgan shakllar;
- ritmik xarakterli;
- elementlarni perpendikulyar joylashtirish;
- pastdan yengillashtirilgan;
- egilgan ko‘rinishda;
- diagonal ajratilish;
- elementlarni erkin joylashtirish;
- cho‘zilgan elementlar;
- elementlarni qiya joylashtirish; - elementlarni assimmetrik joylashuvi; -

ochiq fazoviylikka kiritish.

Ko‘rishga oid statiklik, lekin jismonan qisman dinamik shakllar. Ular qaysiki “harakatlanuvchi” alohida elementlarga, mustahkam asosga egadirlar.

Ko‘pincha dizayn amaliyotda bunday “harakatlar” ishlab turadigan ob’yektlar xususiyatida, haqiqiy harakatlarda ularning alohida detallari shartli ravishda olinadi.

Shunda ham ularning kompozitsiyasi statik xarakterga egadir. Dizayn amaliyoti misolida – harakatlanuvchi moki bilan to‘quvchilik stanokining shakli. Formal kompozitsiyada – bu ko‘rishga oid harakat alohida elementlarning statik shaklida. Ko‘rishga oid va jismonan to‘liq dinamik shakllar. Ular ko‘plab zamonaviy harakatlanuvchi dizaynga – ob’yektlar, avvalambor turlicha transport vositalari uchun tipikdir. Ko‘pincha bu shakllar borliqda fazoviylik bilan qo‘shilib ketadi. Ko‘pincha ularning tizimlari o‘zgaradi. Kompozitsion rejada ularga dinamiklik, intiluvchanlik xarakteri o‘ziga xosdir.

Formal kompozitsiyada – bunday nomlanuvchi egiluvchan ochiq, va tizimi bo‘yicha egalik qiluvchi, kombinator shakllardir.

3.2. BINO TARZIDAGI RITM TUSHUNCHASI

Ritm - bu elementlarning vaqt va fazoviylikdagi qonuniyatlarga asoslanib almashinuvdir.

Ritm – harakat shakli va materianing organik o‘ziga xos xususiyatidir. Barchasi, nima harakatlansa, rivojlansa, tabiatga va inson faoliyatiga – ritmga bo‘ysunib ishlaydi.



**РИТМИК
КАТОР**

3.3 -rasm. Tarzda metrni qo'llanishi. (manbaa: www.pinterest.com)

Yurak urishi, nafas olish, kunduz va kecha, yil vaqt, quyilish, pasayishning almashinuvdagagi ritmlar. Barcha yuksak turli-tuman tabiat ritmlari inson hayotiga uyushtiriganligiga ta'sir etuvchi, uning faoliyatidagi barcha harakatlarga, mehnat va dam olishni almashinivi bilan boshlanib, san'at asarida badiiy shaklni ritmik tashkil etish bilan tugallangan bo'lib ko'rindi.

San'atda ritm, obraz asosi sifatida, tashkil etish va estetik funksiyani bajaradi. U formal strukturada, ko'proq adekvat va intensiv, boshqa badiiy vositalarga nisbatan harakatni tashkil etadi. Uning harakati grafikada kompozitsiya xususiyatlari, tonal kontrastlar, shakl va hajmlar kontrastlari bilan ta'minlanadi. Ritm ko'rinishning aktiv tomonlarini ifoda etadi va idrok qilishda aktivatordir.

Klassik aniqlashda, ritm (grekchadan rheo – teku) – qandaydir elementlarni muayyan ketma – ketligi, tezlik, tez – tez takrorlanishda sodir bo'ladigan almashinuv.

Asarlar komponentlarini bo‘lishda, u ularni, dinamik yaxlitlik hissini tashkil etib birlashtiradi. Kompozitsiyada elementlar almashinushi estetik ochiqlik hissini beradi.

Turli tuman hislarning ritmik almashinushi ijobjiy hissiyotni chaqiradi.

Holatning uzoq bir xilligi yoki bir turdag'i, monoton taassurot, aksincha, psixikani qiynaydi.

Ritmik yo‘naltirilganlik – umumiy fazoviy orientir olish yoki kompozitsion elementlarning umumiy yo‘nalishi. Agar kompozitsiyada ritmik asosiy yo‘nalish vertikal yoki gorizontal bo‘lsa, ritm xarakteri esa faraz qilingan hajmiy, bir tekis, dinamik-emotsionallik holatini tasdiqlaydi. Agarda kompozitsiyada ritmik yo‘nalish diagonal yoki radial (shu'lasimon) bo‘lsa, energetikada esa – dinamik, aktiv, intiluvchandir.

Ritmik yurish – intervallarni aniqlash orqali urg‘u beruvchi elementlarning almashinushi – pauzalar, bo‘shliqlar (musiqadagi analog – ritmik tasvir).

Intervalda elementlar orasidagi masofani metrik qadamlar, bunday bir xil qadamlarning ketma – ketligi – metrdir. Interval qancha keng bo‘lsa (katta metrik qadamga nisbatan), harakatning tezligi shuncha kamdir (temp), intervalga nisbatan (kichik metrik qadamga nisbatan), temp shuncha tezdir.

Ritmik yurish teng va teng emas. Ritmik yurishning asta–sekinlik tanaffusi dinamik effektni kuchaytiradi.

Metrik qaytarilishdan farqi qonuniylik, ya'niki ritm tashkil etilgan, astasekinlikda miqdorni o‘lchashda birqator almashinadigan elementlarni kuchayib borishi yoki elementlarning o‘lishi, hajmlari yoki maydonni, tizimni, ton kuchi ifoda etiladi.

Buni shunday tushuntirish mumkinki, ritmik qator kompozitsion harakat shaklida topshiriladi va dinamiklikni ko‘rsatish bilan va kompozitsion muvozanat bilan bog‘liq.

Ritmik qatorning ortib borish tartibini, elementlar hajmini, ularning to‘yinganlini o‘zgartish, kompozitsining dinamikligini kuchaytirish yoki kuchsizlantirish mumkin.

Ritm ko‘z bilan qabul qilishning shunday xususiyati bilan, xuddi ko‘zning harakati qator o‘zgartirishidagi oshib borayotgan yo‘nalishga bog‘liqdek. Bizning ko‘zimiz ritmik qatorni qurish qonuniyatidan bilinarli arang chekinishga juda ham sezgir javob beradi.

Ritm shaklida beriladigan dinamiklik, elementlar qatorining o‘zgarish tartibi birikishining buzilishida bo‘lishi mumkin. Ritm yordamisiz erishilgan, dinamiklik, masalan shaklga aerodinamik xarakter berish yo‘li orqali, bir me'yorda va shu kompozitsion usulda o‘zgarish mumkin (shaklning turli darajadagi kam qarshilikka uchrashi).

Ritmdan foydalanishga qurilgan dinamiklik, bir necha variantlarga ega bo‘lishi mumkin emas. Tanlangan ritm me'yorida o‘zgartirishlar mumkin emas, chunki bir elementning o‘zgarishi yoki qator tomonga qadam qo‘yish bir butunlikni va dinamiklikni muqarrar ravishda yo‘qolishiga olib keladi.

Ritm sust ifodalanishi mumkin, qachonki almashinuv o‘zgartirilsa yoki elementlarning o‘zi kam sezilsa, lekin u bir muncha o‘tkir bo‘lishi mumkin, asosiy ibtido va kompozitsiyaning asosiy g‘oyasi ham bo‘lishi mumkin.

Ko‘p narsa ritmik qatorning masofasiga bog‘liq bo‘ladi. Haddan tashqari qisqa qator o‘ziga tashkiliy rolni olish imkoniga ega emas. Ritmik qator eng ko‘pi bilan mo‘ljallangan to‘rt – besh qatorga ega bo‘lishi mumkin, shunday bo‘lsa ham bir necha ishlarda, metrik asosida bo‘lgandek, ritmik qatorlar ham uchta element bilan tashkil etilishi mumkin deb ko‘rsatilgan.

Metr.

Ritmning alohida varianti, faqat qaytarilish qonuniyatidan foydalanishi, metr nomini olgan.



**МЕТРИК
ҚАТОР**

3.4 -rasm. Tarzda metrni qo'llanishi. (manbaa: www.pinterest.com)

Metr – teng elementlarning takrorlanishidan yuzaga kelagan, eng oddiy tartib. U musiqada o‘xshaydigan taktlarning almashinuviga xos. Takrorlanish shaklni qabul qilishni yengilashtiradi, uni aniq va ravshan qiladi. Metrik kompozitsining eng katta cho‘zilish monoton ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Monotonlikni yo‘qotishda quyidagilar yordam beradi:

- turlicha qurilgan kompozitsiyada bir necha qatorlarning uyg‘unligi;
- elementlar guruhini metrik qatorga ajratish;
- guruhlar orasidagi masofani o‘rnatish;
- metrik qatorni urg‘u berish bilan “jonlantirish”
- takrorlanuvchi elementlarning alohida xususiyatini o‘zgartirish.

Metrik qurishda monotonlikni yo‘qotishda, uni ritm bilan yoki oddiy – shaklni ritmlashtirish eng ko‘p faol vositalardan biridir.


Takrorlanish - Bir xil elementlarning muntazam oraliqlar orqali joylashtirilishi – takrorlanishning eng oddiy namunasi.

Bunday naqshning monotonligi uni yana ritmik fonni yaratishda oldinigi plan elementlari uchun yoki tizimli chiziqni, chegarani ajratishda foydalanishda imkon beradi.

Dizaynda, ritm tamoyillari fazoviylikda elementlar takrorlarinishda tashkil etiladi. Bunday takrorlanish nafaqat vizual birlik yaratadi, va kuzatuvchining ongida, qachonki u kompozitsiyaga yoki fazoviylikka nazar tashlaganda, ritmik uzluksiz harakatni sezishi vujudga keladi.

Elementlar takrorlanish orasidagi oraliqlar, vizual ritm qadamini, ritmik naqshda aniq nuqtalarni ajratib o‘zgartirish mumkin. Bu farqlar aniq yoki arang bilinadigan, murakkablikning yangi darajasini yaratishi mumkin.

Dizayndagi takrorlanishlar g‘oyat turli tuman xarakterlarni tashiydi, ya’ni bu elementlar qanday, ularning hajmlari va qadamlari qanday, bir element takrorlanadimi yoki bir vaqtda bir necha turlicha har bir o‘z qadami bilan almashinilishi bilan bog‘liqdir.



3.5 -rasm. Metrik o‘lchov takrorlanishlar.

Lekin ayrim hollarda takrorlanish sun’iy kiritiladi va shakllarni tashkil etishda qo‘shimcha vosita sifatida foydalaniladi. Bu tasodifiy bo‘lishi kerak emas,

qat'iy qonuniyatlarga asoslangan elementlar, barcha tizimni kompozitsion rivojlantirayotgan bo'lishi kerak.

Garchi metrik takrorlanish juda ham faol qonuniyat bo'lsa ham, u garmoniyani va estetik parametrlarni ko'tarilishiga kafolat bermaydi. Agar musiqali asarda benihoya bir notani takrorlansa yoki arxitekturaviy kompozitsiyani qurishda faqat bir elementni takrorlansa, garmoniya yaratilmaydi va monotonlik muqarrardir.

3.3. RANG YECHIMLARINI HAL ETISH

Rang tushunchasi odatda fizik va ximik tavsifga va analizga ega ma'lum rangli pigment yoki ashynoni atashda qo'llaniladi. Inson ko'zlarida va ongida paydo bo'luvchi rangni idrok qilish, o'z-o'zidan insoniy mazmunni kashf etadi. Ammo ko'zlar va miya kontrastlarni taqqoslash vositasida ranglarni aniq farqlashga kelishi mumkin. Xromatik rangni ahamyati va qiymati faqatgina uning ma'lum bir axramatik-qora, oq yoki kulrangga taqqoslanish bir yoki birnecha boshqa xromatik ranglarga nisbati orqali aniqlanishi mumkin. Rangni, uning fizika- ximik realligiga qarama qarshi ularoq idrok qilish, bu psixofiziologik reallik hisoblanadi. Rangni psixofiziologik realligi esa - bu aynan men atagan rang ta'sirchanligining o'zginasidir.

Biror rang (svet kak takovoy) va rangni ta'sir etishi faqat garmonik polutonlar mavjud bo'lgan holdagina sodir bo'ladi. Boshqa hollarda rang bir lahzada o'zgacha, yangi tus oladi. Bunga birnecha misollar keltiramiz. Ma'lumki, oq kvadrat qora fonda, xuddi shu o'lchamdag'i qora kvadrat oq fondagiga qaraganda kattaroq bo'lib ko'rindi. Bunda oq rang nurlanib o'z chegaralarini kengaytiradi. Qora esa o'zi egallagan tekislikda qisqarish ko'inish hosil qilaboshlaydi. Och kulrang oq fonda qoramtilr bo'lib



ko'rinsa, shu kvadratning o'zi, ya'ni och kulo'ang kvadrat qora fonda ocharib ko'rindi. 3.6 - rasmida sariq kvadrat oq va qora fonda berilgan. Oq fonda u engil nozik issiq taratib, qoramtilroq ko'rindi. Qora fonda esa o'ta yorqin, sovuq, aggressiv (tajavvuzkor) xarakterda bo'lib ko'rindi.

3.6 -rasm.

Rasmda qizil kvadrat oq va qora fonlarda tasvirlangan. Oq fonda qizil rang juda qoramtilr va uning yorqinligi diyarli sezilmash bo'lib ko'rindi. Qorada esa u o'zining yorqinligini namoyon qilib, issiqlik taratadi. Agar ko'k kvadratni oq va qora fonlarda tasvirlasak, u oq fonda qoramtilr, chuqur bo'lib, uni o'rab turgan oq esa yanada oqroq bo'lib ko'rindi. Qorada esa ko'k rang yorug'lanib, yorqin, chuqur va nurlangan ton hosil qiladi.

Agar kulrang kvadrat muz rangli (ko'kish rang) va zarg'aldoq- qizil fonlarda tasvirlansa, u holda muz rangli ko'kish fonda u qizg'ich bo'lib, zarg'aldoq qizil fonda ko'kish bo'lib ko'rindi. Bu kompozitsiyalarni bir vaqtida

kuzatilsa ularning farqi juda yaqqol ko‘zga tashlanadi, qaysiki undan rang va taassurot (uning ta’siri) bir-biriga to‘g‘ri kelmasa, rang uyg‘unsiz, turg‘unsiz, harakatchan,noreal va bir lahzali ta’sirot beradi. Forma bilan rangni moddiy belgilarini virtul (mumkinlik) harakatga aylanishi, rassomga so‘z bilan ifoda etib bo‘lmaydigan imkoniyatlarni beradi.

Rang – loyihashning asosiy badiiy vositalaridan biri hisoblanadi. Rang bilan ishlashda eskiz izlanishlarini olib borish mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi va uning kelgusi ishlarida muhim o‘rin tutadi. Rangshunoslik - bu ranglarni ajratish va idrok etish jarayoni to‘g‘risidagi kompleks (majmuaviy) fan hisoblanadi. O‘quv kursida fizika, ximiya, psixofiziologiya, psixika, estetika natijalari jamlangan. O‘quvchilarni “Rangshunoslik” kursi asosiy mavzulari bilan tanishtirish jarayonida tayanch tushunchalar o‘zlashtirilgan bo‘lishi lozim.

Spektr. Barchaga ma’lumki, qizil, zarg‘oldoq, sariq, yashil, havorang va ko‘k ranglar spektrni tashkil qiladi. Spektr ranglari hamma vaqt quyidagi ketma-ketlikda joylashadi. Chekka ranglar – qizil va binafsharang – ko‘proq bir-biriga, misol uchun qizil va yashil ranglarga qaraganda yaqinroq. Bu spektral ranglarni doira bo‘yicha joylashtirishga imkon beradi.

Ranglar doirasi. Nazariy va amaliy topshiriqlar asosi uchun sariq, qizil va ko‘k – asosiy ranglarga tayanib hosil qilingan o‘n ikki qisqli rang doirasini tuzish lozim. Ranglar doirasi quyidagi tarzda shakllantiriladi: “uchta asosiy ranglar teng tomonli uchburchakka shunday joylashtiriladiki, unda sariq teppada, qizil o‘ngda va ko‘k rang pastdan chapda bo‘lishi lozim”. Ikki asosiy ranglarni aralashtirishdan ular ham teng tomonli uchburchakka joylashuvchi ikkilamchi ranglar –zarg‘oldoq, binafsha, yashil ranglar hosil bo‘ladi. So‘ngra, ikkita teng tomonli o‘chburchakdan yaratilgan oltiburchakni doira ichiga chizish kerak, birinchi va ikkinchi qatordagi ranglarni aralashtirish natijasida hosil qilingan - sariq-zarg‘aldoq, qizg‘ish-zarg‘aldoq, qizg‘ish-binafsha, ko‘kish-yashil va sarg‘ish-yashil ranglar

undagi bo'sh sektorlarni to'ldiradi. Shuning bilan o'n ikki rangdan iborat to'g'ri rang doirasi hosil bo'ladi.

Rang doirasi shuningdek, 24 rangdan iborat bo'lishi ham mumkin, va yana uni juft qo'shni ranglarni qo'shishdan yaralgan yangi ottenkalar hisobiga ularni kengaytirish mumkin. Ranglar doirasi rang tuslari, qo'shimcha, kontrast va qondosh ranglarni yanada aniqroq topishga imkon yaratadi. Ranglarni his qilishning barcha taassurotlari ikki: axromatik va xromatik guruhga bo'linadi.

Axromatik ranglar – oq, kulrang va qora ranglar – spektrda qatnashmaydi. Xromatik ranglarga spektrning barcha ranglari va ushbu ranglar tuslari, to'yinganligi va ravshanligi xususiyatlarini beradigan aralashmalari kiradi. Biron-bir ranglarni aralashtirish yordamida hosil qilinmaydigan asosiy ranglar – sariq, ko'k va qizil ranglardir. Ularni aralashtirish yordamida hosil qilinadigan ranglar hosil qilingan (tarkibiy) ranglar – bular: zarg'aldoq, yashil va binafsha ranglaridir. Ranglar doirasini qo'llab, qo'shimcha ranglar, deb ataldadigan juft ranglarni aniqlash mumkin. Buningsh uchun ranglar doirasida diametr o'tkazish kerak. Qo'shimcha ranglar diametrning qarama-qarshi uchlarida joylashgan bo'ladi. Shunday qilib, ko'kka qo'shimcha zarg'aldoq rang hisoblanar ekan. Ranglar doirasining to'rtdan birida qo'shni joylashgan xohlagan rang qondosh ranglar, deb aytildi. Ranglar doirasining turli qarama-qarshi choraklarida joylashgan ranglar bir-biriga kontrast ranglar deyiladi. Rangshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri bu garmoniya hisoblanadi. "Arxitektura" mutaxassisligi talabalari ongida garmoniya haqidagi taassurotlarni to'g'ri shakllantirish o'ta muhimdir. Ushbu bilim va ko'nikmalar turli funksional darajaga ega interer va ekstererlarni loyihalashda qo'l keladi. Estetik nuqtai nazardan ranglar gammasini to'g'ri tanlash intererning yanada jozibali chiqishini ta'minlaydi. Shuningdek, ranglar birikuvini

tanlashda har bir rangning odamga ma'lum miqdorda fiziologik va psixologik ta'sir etish ko'rsatmalariga amal qilish zarur.

Ranglar garmoniyasi – bu ranglarning tekislikda, fazoda ularning barcha asosiy xususiyatlari: rang tusi, ravshanligi, to'yinganligini hisobga olgan holda estetik kechinmalarni yuzaga chiqaruvchi qonuniy birikuvidur. Ranglar garmoniyasi belgilariga aloqa va birlik, kontrastlar, miqdorlar, proporsionallik, muvozanat, tiniqligi, bir-biriga mosligi va o'rinnligi kabilar kiradi. Ranglar garmoniyasi ma'lum birikuvlarda hosil bo'ladi. Ranglar garmoniyasiga "koloristik yaxlitlik, ranglarning o'zaro aloqasi, rangli mutanosiblik, ranglar birligi taassurotini beradigan" birikuvlar mansubdir. Garmonik birikuvlar nazariyasi asosida V.M.Shugaeva 4 ta garmonik ranglar birikuvini ajratib ko'rsatadi. Monoxrom birikuvlar guruhini bir rangga kiruvchi ranglar tashkil qiladi, ammo u turli ravshanliklarga ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, monoxrom birikuvlar – bu bir rangning qora yoki oq rangga turli miqdorda qo'shish yo'li bilan olinadigan to'qdan och ranglarga o'tuvchi tuslaridir. Ushbu ranglar ko'proq garmonik va tanlashda qulaydir. Qondosh ranglar rang doirasining to'rtdan bir qismi chegarasida joylashadi. Qondosh-kontrast ranglar diametrga parallel bo'lgan chiziqlar oxirida ikkita qo'shni rang doirasining to'rtdan bir qismiga joylashgan bo'lib, o'zining tarkibida bitta umumiylasosiy va ikkita boshqa tashkil qiluvchi ranglarga ega bo'ladi.

Kontrast ranglar – bu bir-biriga qarama-qarshi ranglardir, ularning bir-biriga to'g'ri kelishi uchun oraliq ranglardan qo'shiladi. Rang tuslari, ravshanligi va to'yinganligi bo'yicha ranglar qancha ko'p ajralsa, ular shuncha bir-biri bilan kam uyg'unlashadi.



3.7 -rasm. Tarzda ranglarning qo'llanishi. (manbaa: www.pinterest.com)

3.4. BINO TARZIDAGI KONTRAST TUSHUNCHASI



Kontrast – elementlarning, predmetlarning, shakl va ularning quyidagi parametrlar bo'yicha xususiyatlarining keskin farqlanishi: hajm, shakl, tus, rang fazoviylikdagi o'rni va h.k.

Konstrast so'zi ostida taqqoslab ko'rish, bir xil xususiyatlari orasidagi keskin o'zgarish tushuniladi. Pastkisi balandga; yengili og'irga; ochi qoramtirga, murakkabi oddiyga va h.k. taqqoslanishi mumkin.

Kontrast – bu badiiy usul, uning mohiyati, ikki o'zaro munosabatdagi xususiyatni, sifatni, fazilatni o'z ichiga oladi.

Ajratib ko'rsatiladi: bir o'lchovli kontrast – bir parametr bo'yicha taqqoslangan; ko'p o'lchovli kontrast – bir necha parametrlar bo'yicha taqqoslangan. Kontrastli kompozitsiyaning o'ziga xosligi uning vizual harakatdagi faolligi ko'rsatiladi.

Kontrastlarning kompozitsiyadagi ifodaliligi tartibsiz emasdir, ritm vositasida qonuniydir. Kontrast masshtab, material, ranglar yordamida yaratiladi.



3.8 -rasm. Kontrast kompozitsiya.

Kontrastli kompozitsiyalar - kontrast asosida kompozitsion tuzilishlar maksimal ifodalilikka va keskinlikka erishishga ijozat beradi, shu bilan birga maqsadli hissiyotga imkon beradi, shuningdek elementlar tavsifidagi ortiqcha bir xilligi, elementlar birligini ko‘rsatmaydi.

Hajmlli modul tuzilishidagi kontrastlar shartli quyidagi tartibda taqdim etilishi mumkin:

- to‘yinganlik - hajmlarning va shakllarning turlicha gradatsiyasining (izchillik) taqqoslanishini ko‘rsatadi;
- mutanosib kontrast – shakllarni o‘zaro nisbatini ifoda etadi;
- qo‘shimchalar kontrasti;
- bir vaqtdagi kontrast – turlicha illyuziyalar bilan erishiladi, masalan chuqurlik illyuziyasi.

Elementlar o‘zaro nisbatini “massa bo‘yicha” aniqlash muhimdir, ko‘zga ko‘rinadigan konkret shakllardan abstraksiya qilishni o‘rganish, barcha kompozitsiyani uning tarkibiga ta’sirini o‘tkazishni his qilish; Kontrast, kompozitsiyaning vositasi sifatida, kuchli va kuchsiz tomonlariga


egadir. Kuchli tomoni o‘z ichiga shuni oladiki, kontrastda qurilgan shakllar , har doim ifodali va yaxshi eslab qolinadi.



3.9 -rasm. Tarzda kontrastning qo‘llanishi. (manbaa: www.pinterest.com)

Juda ham keskin kontrastda elementlarning kompozitsion bog‘liqligi buzilishi mumkin, shakl esa ko‘rish orqali qismlarga bo‘linib ketishi mumkin. Garmoniyaning yutug‘ida (monandlik) eng kerakli shart kontrast me’yoriga rioya qilishlikdir, yana shuningdek elementlarning keskin farqliklik orasidagi ravon o‘tishlikni yaratishdir.

Turli komopzitsiyalarda kontrastlar roli bir xil emas. Bunday holatlarda, agar kontrast shartli ravishda ob‘yekтив bo‘lsa, shakllarni tashkil etishda asosiy vosita bo‘lishi mumkin. Agar uning qo‘llanilishi muhim bo‘lmasa, u yordamchi vosita sifatida qatnashadi.



3.10 -rasm. Tarzda kontrastning yordamchi vositalar orqali qo'llanishi.
(manbaa: www.pinterest.com)

Konstrastdan ishlab chiqarish muhitida foydalanish, qoidaga ko‘ra ishslash uchun optimal sharoitni yaratishda kerakli qilib qo‘yiladi.

Kontrastlarning juda ham kuchliliga ham va ularning ishtirot etmasliklari kabi, vaqtadan ilgari toliqishni chaqiradi. Shu munosabat bilan kontrastlik darajasibadiiy yondoshish pozitsiya bilan tekshirilmay, ergonomika bilan ham tekshirilishi kerak.

Kompozitsiya ustida ishslashda, ranglarning optimal o‘zaro munosabatini tanlash muhim ahamiyatga ega. Oxirgi darajagacha bo‘lgan ranglar kontrasti shakl yaxlitligining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Ba’zan vositalar orasida, mutanosiblikka erishish uchun foydalanish, ikki vosita deb ham ataladi, ayni kontrastili va nyuansli o‘zaro munosabatlar.


Kompozitsiyada kontrast nyuans bilan ajralmagan holda bog‘liq. Agar kontrast nozik nyuansli yo‘l bilan to‘ldirilsa, u na faqat shaklni dag‘allashtiradi, va yana uning yaxlitligini buzishi mumkin.

Aksent (urg‘u berish) – lotinchadan “urg‘u” – kontrastli element, qaysiki

kompozitsiyada alohida ta'kidlanadi, urg‘u beriladi, unga tomoshabinlar e'tibori alohida ta'kidlanadi. Hattoki eng kichik urg‘u uni mubolag‘asiz “portlatadi”. Dominanta (asosiy belgi) bir tuzilishning boshqa tuzilishi ustidan ustunlik qilishi. Masalan, qandaydir rangni yoki aniqlangan shakl elementlaridan ustunlik qilinishi va h.k.

IV-BOB. BINO LANDSHAFTINI TASHKIL ETISH.

Landshaft arxitekturasi obyektlaridagi kichik arxitekturaviy va dekorativ shakllar – bular badiiy bezatish elementlari bo‘lib, turli xil funksiyalarni bajarishi mumkin. Ular umumiy stil bilan birlashtirilgan, bezatadigan, xilma-xillik yaratadigan, urg‘u beradigan, obyektlarni funksional vazifalariga, ramzlarining jilodorligini beradigan va yana tashrif qilganlarni park maydonchalarining u yoki bu zonalariga yo‘naltirish axborotini berishi mumkin (4.1-rasm).



4.1 -rasm. Ornamentlarning landshaftda qo‘llanishi. (manbaa: www.pinterest.com)




**4.2 -rasm. Ornamentlarning landshaft dizaynidada qo'llanishi. (manbaa:
TAQI. ILDiz kafedrasи, 1-kurs talabalarining kurs ishlaridan namunalar)**

Me'moriy elementlar va inshootlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- dekorativ me'moriy elementlar – favvoralar, haykallar, vazalar, pergolalar va trelyajlar;
- g'oyaviy-siyosiy mazmundagi me'moriy elementlar – monumental yodgorliklar, byustlar;
- madaniy-maishiy va utilitar mazmundagi elementlar – ko'rgazma pavilyonlari, yozgi teatrlar va kinozallar ochiq estradalar, qiroatxonalar, bufetlar, urnalar, yozuvli jadvallar, skameykalar;
- tinch dam olish uchun – ayvonchalar, tomosha maydonchalari, pavilyonlar;


- faol dam olish uchun – bolalar maydonchalari, badan tarbiya maydonchalari, raqs maydonlari, attraksionlar.



4.3 -rasm. Landshaft namunalari. (manbaa: www.pinterest.com)

4.1. XUDUDNI FUNKSIONAL ZONALARIGA AJRATISH

Zamonaviy shaharlar markazlari hududini bog‘lar, parklar, maydonlar, skverlar, piyodalar ko‘chalari, xiyobonlar, bulvarlar, qirg‘oq bo‘ylari, qurilmalarning fon muhitini yagona bog‘-park sistemasiga birlashtiruvchi o‘zaro bog‘liq piyodalar hududi sistemasi tashkil etadi.



4.4 -rasm. Landshaft dizayni namunalari. (manbaa: www.pinterest.com)

Markazlarning landshaft tashkil etilishiga qo‘yiladigan muhim talablar loyihalashning ma’lum bosqichlariga va uslublariga rioya qilish hisoblanadi. Markazdagi ochiq maydonlarni funksional zonalash landshaftni loyihalashning muhim bosqichi hisoblanadi. Har bir funksional zona foydalanishning va mos ravishda landshaft tashkil etilishiga talab qo‘yuvchi hududni tashkil etishi o‘ziga xos texnologiyasiga ega. Shuning uchun markazning piyodalar fazolarining landshaft tashkil etilishida quyidagi zonalarni ajratish maqsadga muvofiq: tranzit harakat; rekreatsiya va bo‘sh vaqt; ovqatlanish; ommaviy tadbirlar (bayramlar, shou, konsertlar, diskotekalar).

Tranzit zona faqat harakat davrida hududda qisqa vaqt davomida bo‘lishiga mo‘ljallangan. Tranzit harakatga mo‘ljallangan shakllar bu to‘g‘ri shakldagi xiyobon va yo‘laklar hisoblanadi. Hududda ularning rejali joylashtirilishining

samaradorligidan o‘tish uchun sarflanadigan vaqtning davomiyligiga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur holda diagonal tarmoqlanishi elementlari bilan ortogonal rejalash eng maqsadga muvofiqdir. Tranzit harakat zonasi gulpushta va boshqa qurilmalar bilan bo‘linmasligi kerak.

Rekreatsiya va bo‘sh vaqtini o‘tkazish zonalari markazga tortishning ijtimoiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Dam olish va bo‘sh vaqtini o‘tkazish zonalarini har tomonlama o‘ylab tashkil etish aholi guruhlari orasida muloqot qilish va axborot almashishi uchun sharoitlar yaratadi, jamiyat fuqarolarini jipslashtiradi.

Zonalarini tashkil etish uchun eng qulay tabiiy sharoitga ega hududlar – daryo yoki sun’iy yaratilgan havzalarning bo‘ylari, ko‘kalamzorlar, bog‘lar, parklar hududi, maydonlar, xiyobonlar, bulvarlar, piyodalar yuradigan ko‘chalar va boshqalar ajratiladi.

Bu hududlarni landshaftli tashkil etish rekratsion faoliyatni tashkil etish o‘lchamlari va tavsifiga bog‘liq. Bog‘-parklarda, parklarda, xiyobonlarda, bulvarlarda landshaft qo‘yiladigan talablarga muvofiq shakllanadi. Ammo maydonlar, piyodalarning ko‘chalari va daryo yoki havza bo‘ylari hududlarida rekreasjon bo‘sh vaqtini o‘tkazish zonalar hududining shaxsiy xususiyatlariiga muvofiq ajratiladi, ma’lum cheklanishlarga yo‘l qo‘yilmaydi va loyiha mualliflarining ijodiy fikriga bog‘liq bo‘ladi. Rekreatsion uchastkalar boshqalaridan zinch o‘simpliklar bilan ajratilishi mumkin.

Maydonlar va piyodalar fazolari rekreasjon funksiyalarni tashkil etish uchun qulay zonalar hisoblanib, ular kunduzgi payt markaziy maydonlarda yoki unga yaqin bulvarlarda tashkil tiluvchi bog‘larda, xiyobonlarda, o‘rmonlarda amalga oshirilishi mumkin, kechki paytlarda esa – maydonlarning ochiq joylarida va ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan zonalarda amalga oshiriladi (5-7-rasmlar jadvalari).

Sayr qiladigan zonalarning landshaft tashkil etilishida atrofdagi qurilishning me’moriy stilistikasi hisobga olinishi kerak, u loyihalanayotgan landshaft muhit stilistikasiga mos bo‘lishi va aksincha bo‘lishi kerak. Shunga qaramay, landshaft

kompozitsiya muntazam, peyzajli yoki aralash ko‘rinishda amalga oshirilishi mumkin.

Muntazam tashkil etishda, asosan maydonlarning ochiq fazolarida joylashtiriladigan to‘g‘ri to‘rtburchak, diagonal, dumaloq, oval va boshqa shakldagi yo‘laklar, o‘tloqlar, gulpushtalar, rabatkalar ko‘proq bo‘ladi.


Egri-bugri (ilon izi) shaklidagi yo‘laklar ko‘pincha erkin yoki peyzajli stilda (turda) rejelashtiriladigan rekrasjon – sayr qilish zonalarida, odatda, bog‘lar, xiyobonlar, o‘rmonlar yoki daryo va havza bo‘ylarining soyali joylarida ajralib turadi. Ko‘rkam yo‘laklar maydonlarning piyodalar yuradigan qismlarini bog‘-park majmualari va suv havzasasi bo‘ylari bilan birlashtirishi mumkin.

4.2. IDEYA-STILIZATSIYA

Stil – bu nafaqat bog‘-park san’atini ishlab chiqishda estetik kategoriya, balki u hayot faoliyatidagi ko‘rsatkichdir. Zamonaviy bog‘-park san’atida turli tendensiyalarning barcha yuksakligining ochilishi o‘tgan vaqtidan bizgacha yetib kelgan oqim va ta’mdir.


Tarixda bog‘-park san’atining asosiy ikki stili ajraladi: doimiy yoki geometrik va landshaft yoki tabiiy.

Doimiy stil – o‘zining to‘g‘ri chiziqli xiyobonlari, yashil qurilmalarning simmetrik joylashuvi, geometrik shakllarining to‘g‘riliqi bilan tavsiflanadi. Daraxtlar va butalarni qirqish kengroq ishlatiladi (topiar san’ati). Oddiy qilib aytganda, bunday obyektda kengroq parterlar kutiladi, keng yo‘llarning davomchisi (xiyobon), ularga nisbatan skver va bog‘ning hamma qismlarida simmetrik va asimetrik joylashish mumkin.



4.5 -rasm. Landshaft dizayni namunalari. (manbaa: www.pinterest.com)

Landshaft stili – tabiiy kartinalar yaxshilanishining qaytarilishi bilan xarakterlanadi. O’simliklar tabiiy guruh holatida erkin joylanadi. Quyuq kartinalar (guruqlar), daraxtlar va butalar, o’tloqlar, ochiq suv usti bilan almashinadi. Yo’laklar va xiyobonlar o’rmon yo’llaridan erkin qo‘yiladi. Bu arxitektorga tabiiy kartinalarni katta bo‘lmagan hududlarda qurishga imkon beradi.



4.6 -rasm. Landshaft dizayni namunalari. (manbaa: www.pinterest.com)

Aralash stil – yashil ko‘chatlarning tarzi ikki stil tamoyilining uyg‘unligida vujudga keladi: doimiy-ommaviy keluvchilar zonasida, landshaft – tinch dam olish zonasida. Aralash stilning kompozitsiya birligidagi boshqa usuli daraxtlarning asimmetrik ekilishi, qo‘yilishining aralashuvida mumkin va h.k.

Stil tanlash – doimiy-rasmiy yoki norasmiy manzarada erkin bo‘lishi kerak emas. Bog‘-park kompozitsiyasi, landshaftda stilni aqlan ishlatish shart-sharoitni funksional maqsadga bo‘ladi va tabiiy sharoitlar yoqimlidir. Joyni yoki unday, yoki bunday stil deb atab bo‘lmaydi: uning rivojlanishi tabiiy mavjud sharoitlardan, iqtisodiyot, dam olish ko‘rinishidagi ehtiyojlardan kelib chiqishi kerak.

O‘zbekistonning tabiiy-iqlimi sharoitining xilma-xilligini e’tiborga olib, madaniy va milliy urf-odatlar, stil deb nomlangan amaliyat, boshqa tumanlarda noto‘g‘ri qabul qilingan. Mamlakatning har bir zonalarida alohida tabiiy-iqlimi bog‘-park landshaftini yaratishda, turli ko‘rinishni – kayfiyat, yorqinroq ko‘rsatishga, erishish kerak, mahalliy tabiiy landshaft mazmunini. Park yuqori darajadagi ko‘rinishi – ochiqlik san’atida, asarlarni faqat vaqt kelishi bilan qabul qilish.

Estetik misollarni yechishda bog‘-park landshaft bilimlarini bilish va ko‘p qirrali shartlarni hisobga olishni, park muhitini shakllantirishni taqdim etish uchun kiritadi. Bu hududlarni funksional cheklash: funksiyalarni va ochiqlik shakli to‘g‘ri kelishi; ochiqlik modulatsiyasi; peyzaj xarakterini o‘zgartirishda va ochiqlikning ketma-ketlik bilan boshqa ochiqlikka o‘tishini ta’minlaydi; ta’sirlanishning turli ko‘rinishlari (fakturaning almashuvi, yorug‘lik, sifat, tomoshabin taassuroti); ochiqlik orasidagi harakatning bo‘lishi va hajm atrofida yoki o‘tib ketish; kompozitsion va emotsiyon dominantning shakllanishi.


Estetik kompozitsiya tamoyillari yo‘nalishida bog‘-park peyzaji quyidagilarni zarur deb biladi:

1. Arxitekturaviy shakllar uch kategoriyaiga tayanadi: ochiqliq (hudud), tekislik (tuproq ustki qismi va suvlar) va hajmlar (yashil ko‘chatlar, relyef,

qurilmalar). Ular o‘zaro quyidagi tushunchalarga bog‘lanadi – hajmiy-fazoviy kompozitsiya va ochiqlikni tashkil etishni shakllantirishda umumiyl qonunchilikni aytib o‘tadi;

2. Ochiq-peyzaj-rasmlarni qurish, tasviriy san’atning ishtirokiga asoslanib, aniqroq rangtasvir, tushuntirish ashyolari: kolorit, yorug‘lik va soya, chiziqli va havoli perspektiva
3. Yil fasllariga qarab landshaft ko‘rinishini o‘zgartirgan holda vaqt omilini hisobga olish, fasllarga o‘zgarish ta’sir etadi: fazoviy, egiluvchan, yorug‘lik va park peyzajlaridagi ranglar tavsifi, plastik bog‘liqlik, yorug‘-rang tizimi, bog‘ va parklarning fazoviy uch o‘lchamli shakllanishi, uni qabul qilish uchun bilish impulsini beradi;

Ketma-ketlik, tomoshabin «rasmlarni» tashkil etish ko‘rinishini bilish – ochiqlik tug‘ilishi vaqt tizimining asosiy shartlaridan biridir .



4.6 -rasm. Chiziqli va havoli perspektivani bajarish misollari.

4. Shunday qilib, landshaft kompozitsiyasi barkamolligini qurishda bog‘-park landshafti uchun kompleks ashyolardan, qonunchilik va tamoyillardan, kelishilgan yo‘ldan foydalanish zarur va barcha elementlar landshaftlari o‘zaro kompozitsiyasining bir-biriga mosligi va ochiqda o‘zaro bog‘liqlik butun asarni qurishda shakllantirish lozim.

Landshaft-tarx kompozitsiyasini loyihalashda quyidagi ijodiy jarayon shaklini o‘zida mujassam etishi kerak:

- hajmiy-fazoviy tizimni tashkil etish – tektonika yoki peyzajning alohida elementlarini qurish;
- go‘zallik kategoriyasining obyektiv asoslari – ta’minlanishning birligi va ochiqlikni tashkil etish shakli;
- kuchlar tengligi, ritm, qaytarishlar va ketma-ketlik, birlik bilan zich bog‘lanish, kuchlar tengligi;
- proporsiya va tarz, kompozitsiyaning barcha tuzilmasini bog‘lovchi, alohida, uning elementlari.
- aksent (urg‘u berish), ayrim elementlarni alohida ko‘rsatish uchun bir xil ko‘rinish va monotopiyadan qochish uchun xizmat qiladi.

Bog‘-park landshaft kompozitsiyasida ranglar quyoshli va sun‘iy yoritish, kichik shakllar, haykaltaroshlik va landshaft arxitekturasi detallaridan foydalanish kerak. Sanab o‘tilgan shakl va kompozitsiya ashyolarini shartli ravishda bir-biridan yopiq holda ko‘rish mumkin, ya’ni umumiyl o‘zaro bog‘liq bo‘lgan butun park ansambl qismining bor-yo‘g‘i bir bo‘lagini aks ettiradi. Ulardan foydalanishda ko‘rvu ta’sirini qabul etishdagi qonuniyat bilan bog‘liqligi landshaft arxitektura tarxinining yechimida ochiqlikni tashkil etish maqsadiga erishishga qaratish va bog‘-park san’atida o‘simgiliklardan, relyefdandan, sun‘iy elementlardan foydalanib, badiiy-ko‘rsatish asarlarini yaratish.


4.3. LANDSHAFT DIZAYNI SHAKLLARI O'RTASIDAGI UYG'UNLIK

Baravarlik kompozitsiya kategoriyasi estetika sifatida – garmoniyaning ikki tipi – simmetriya va asimmetriya. Simmetriya tarx tizimidagi boshqarishda yorqin ochiladi, asimmetriya esa – peyzajda.

Tarx tizimining simmetriyası ochiqlikdagi aniq tartibning tashkil etilishi, birlik va o‘z-o‘zini tugatish, shunday maqsad kompozitsiyasining bir xil elementlari tekislik ochiqlik nisbatiga asosiy perspektiv chiziqla joylashish va bu qonuniyatga uning barcha qismlari va detallari bo‘ysundiriladi. Unga yondosh simmetriya gorizontal spirali quriladi .


Asimetrik tizim turli qismlardagi tenglik dinamikasi qonuniga qarab quriladi, shaklga kontrast mosligi, balandlik, kolorit, yoritish va boshqalar. Perspektiv chiziq ochiqlikning rivojida o‘lchamga bo‘ysunadi va rangtasviri kompozitsiyadagi asimetrik hajmdagi asosiy o‘lchamdir.

Tenglik – shartlarni qoniqtirishi kerak, chunki yorug‘lik, rang, guruh, massalar umumiy summasi va kompozitsiya elementlar soyasi bir chiziqda bir tomoniga adekvat summalarning boshqa tomoniga tekislanadi.



4.7 -rasm. Tenglik (baravarlik) – kompozitsiyasi: A – simmetrik; B – asimmetrik; D – simmetrik rejada o’simliklarni asimmetrik joylashtirish.

Ritm kompozitsiyasining estetik kategoriyasi sifatida bir xillik shakl, ketma-ketlik qonunchiligi bilan almashinib, ochiqlikdagi elementlar va detallarga erishiladi. Ritm-badiiy asarning majburiy asosi, ya’ni landscape arxitekturasida o’zini yaqqol namoyon etadi. Shuni hisobga olgan holda, takrorlanuvchi sikllarning ketma-ketligi chegaralangan bo’lishi kerak. Katta qator yonida ritmik takrorlanuvchi sikllar ta’siriga, insonning o’tkir qabul qilishi, kelayotgan ma’lumotlarni nolga tenglashtiriladi. Bog‘-park landscape kompozitsiyasida uchinchi va to’rtinchisi takrorlashda ritmnini qo’llash tavsiya etiladi, yig‘ilayotgan ma’lumotning har birida takrorlanish chegarasi tushib ketmaydi, lekin juda tez pasayadi (4.8 -rasmlar, D,E).



4.8 -rasm. Ritm-badiiy asarning majburiy asosi:

A, B – *metr tartibi*; D, E – ritm tartibi; F – metr tartibining har-xil elementlar bilan bog‘lanib turishi va ritm tartibining geometrik progressiyasi.

Tartib metri ritmnинг oddiy ko‘rinishi, bir xil elementlarning takrorlanishi yuzaga keladi va teng intervallar orqali joylashgan daraxtlar bilan yonma-yon xiyobonlar uchun xarakterlanadi (49-rasmlar, A, B).

Hajmiy-fazoviy echimning proporsiyasi – bog‘-park san’atining shakllanishida estetik qonuniyat kerak, uyg‘unlik o‘rtasidagi alohida kompozitsiya elementlari bilan bir butunlikka kelishadi. Proportsiya garmonik kategoriya sifatida tartib-fazoviy tomondan aytilishi kerak va peyzaj elementlari bilan parkning umumiy kompozitsion tizimi mutanosibligini hisobga olinadi.

Shuni inobatga olgan holda, munosabatlar o‘zini uch o‘lchovda ko‘rsatadi, qatnashgan elementlar bilan birga hajm va shakl, ko‘p qismli, xilma-xil. Shuning uchun badiiy eng qulay munosabatni landshaftlar qurishda, hamma uch o‘lchovda oldindan ko‘ra bilish kerak. Yaxshi proporsiyani park landshaft kompoztsiyasida qurish yo‘li bilan barpo etiladi va atrof muhitni o‘rab turgan, har bir element bilan kelishib, o‘lchovi, hajmi joylanishi bilan park kompoztsiyasida umumiy bir yaxlitlik hosil bo‘ladi.

Tarz – park elementlari garmoniyasining manbayi va ochiqlik o‘lchovi bilan insonga munosabati belgilandi. Peyzajda obyekt o‘lchovini oshirib yuborilmaydi kerak emas, haqiqiy proporsiya, ya’ni sun’iy kamaytirish ma’lum.

Park kompoztsiyasida normal qabuldan tashqari tarzdan foydalaniladi: mahobatli (qahramonona) va kamer (intim). Hajm tizimida natura park komponentlari – o‘simgilarning guruhlanishi, arxitektura qurilmalari, arxitekturaning kichik shakli «yaxshi» o‘qilishi lozim.

Aynanlik, nyuans, kontrast – kompoztsiyaning estetik kategoriyalari – bog‘-park landshafti, hajmiy-fazoviy kompoztsiyasining barcha ko‘p xilligida qabul qilinishi munosabatiga ruxsat etiladi. Kontrast va nyuans – shakl ochiqlik arxitektura-landshaft qonuniyati va o‘zida dialektik birlikning ajralishida qaramaqarshi tomonga rivojlanadi.


Ranglar nazariyasi va uning peyzaj qurishdagi ta’siri. Tabiiy va sun’iy yoritishlar, park peyzajlarida undan foydalanish.

Quyosh nurlari bilan **yoritish** – park ochiqlikdagi hajmiy-fazoviy sifatini qurish haqiqiy bahosi bilan – uning o‘lchovi, shakli, tengligi (proporsiyasi), predmetlar rangi va plastik qabul qilishni ham ajratib beradi.

Yoritishda ko‘rish effektidan foydalanish – yorug‘lik va soya – bog‘-park kompoztsiyasida asosiy ashyodir va bu ilmga ham bog‘liqdir.

Soyali bog‘larni issiq iqlimli tumanlarda qurish maqsadga muvofiq va zarurdir,

yorug‘likni ko‘rvu effektiga «dog‘li», quyoshli yorug‘lik o‘rtasidagi ko‘chatlar massivi orqali erishish mumkin va xiyobonlarda zikh ekilgan daraxtlar yuqorisidagi osmon yorug‘ligida. Lekin yorug‘lik va soyalarda bir nechta effektlar bor, ya’ni bu effekt barcha iqlim sharoitlariga to‘g‘ri keladi. Masalan, har doim zimistonda quyosh nurlari chiqayotganda zavqlanish paydo bo‘ladi va kolonnalar o‘rtasidagi ochiqlik.



4.9 -rasm. Kontrast va nyuans kompozitsiyalari.

Rang tabiat muhiti atrofidagi bog‘-park landshafti kompozitsiyasidan ajratuvchi organik qatnashuvchilar – daraxtlarga, o‘tloqlarga, osmonga, suv va h.k. asosiy estetik omillar qatoriga kiradi.

Rang – bu kuchdir, ya’ni uning ishtiroki insonga fiziologik va psixologik ravishda shartli ko‘rinadi. Rang uchta ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi: rang, tusi, ochiqlik. Tabiatda ranglar uyg‘unligi qoidasi Nyutonning spektr aylanasida kuzatiladi, bu yerda oraliq tuslar chiqarib tashlangan va uchta asosiy ranglar

qoldirilgan – qizil, ko‘k, sariq va ulardan uchta ishlangan – binafsharang, sabzirang, yashil.

Uzun to‘lqinsimon nurli ranglar – qizil, sabzirang (aktiv ranglar yoki iliq) shunday qo‘yiladiki, ular sariq, pushtiranglar kabi tetiklik, xursandchilik kayfiyatini chaqiradi: to‘q qizil rang ichki kuchga egadir, bayramlar, marosimlar taassurotini beradi, qisqa to‘lqinli ranglar – ko‘k, binafsha va o‘rtalikli ranglar – yashil, och havorang (souv va passiv) – kapillarlar kengayishiga va qon bosimining pasayishiga, pulsning sekinlashishi, nafas olishga, qabul qilish tezligiga, dam olishni bilish ta’siriga yordam beradi. Qora va kulrang insonda ishonchsizlik, tushkunlik kayfiyatini chaqiradi. Ranglarning psixologik ta’siri, ko‘pincha tabiatda ranglar almashinushi qonunchiligi bilan tushuntiriladi.

O‘simliklarni ekishda ranglar tusini tanlashni esdan chiqarish kerak emas, ya’ni ranglar tushkunligi yorug‘roq bo‘ladi, agar ranglar tuslar moslashuviga bir-biriga qarama-qarshi bo‘lsa – yorqin va qora kontrastlar va ranglar harakatining kuchiga qarab – aktiv kontrastlar «dinamik», iliq ranglar va passiv «statistik», sovuq ranglar bo‘ladi.

Peyzajdagagi ranglar va quyosh bilan yoritish ajralmagan holda bir-biriga bog‘liq. Kun bo‘yi yorug‘likning o‘zgarib turishi shaklsimon o‘zgarishga ta’sir etadi va effektlarning alohida tuslarining mosligi ham ta’sir etadi: talabchanlik va ranglarning turli xil tuslari, yorug‘-soya kuchayishi mumkin yoki kompozitsiya shaklini yo‘q qilishga olib keladi.

4.4. KICHIK ARXITEKTURAVIY SHAKLLAR

Kichik formalarga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri, ushbu hududning yashil o‘simliklari, relyef va landshaft kompozitsiyalarining formalari bilan uyg‘unligiga erishishdir. Ular atrof-muhitga nomutanosiblikni olib kirishi kerak emas, arxitekturaviy-landshaft kompozitsiyasi stilistikasiga to‘la javob berishi kerak. Kichik arxitekturaviy shakllar ixtiyoriy arxitekturaviy shakllarni – kirish qismidan, pavilyon, ratonda, galereya, supalar (besedka), bolyustradalar, fontanlar

yoki ko‘prikchalardan poy vaza, fonarlar, panjarali to‘sıqlar, o‘rindiklar va boshqa ko‘rinishlarda aks ettirishi mumkin.

Kirish, galereya, shiyponchalar. Ularni ochiq landshaft obyektlari joylarida joylashtirilishi quyidagilar bilan monand bo‘lganda bajarilishi mumkin: atrofdagi qurilishning ansambli holatidan, ochiq joylar landshaft g‘oyasidan kelib chiqib yoki joyning yashil maysalaridan ishlangan bo‘lishi mumkin.



4.10 -rasm. Landshaft dizayni namunalari. (manbaa: www.pinterest.com)

Pavilyonlar, rotondalar, bolyustradalar va ko‘prikchalar – atrof-muhit ansambliga monand bo‘lishi yoki parkning yoxud boshqa obyektlarning landshafti muhitidagi erkin element bo‘lishi mumkin.



4.11 -rasm. Landshaft dizayni namunalari. (manbaa: www.pinterest.com)

Haykaltaroshlik asarlari san'at asari bo'lib, xuddi fontandek, ko'kalamzorlashtirilgan joylarni bezatadi, xilma-xillik kiritadi, boyitadi. U yirik va kichik bo'lishi mumkin va kayfiyatga yaxshi ta'sir etishi, odamlarda qiziqish uyg'otib ularga chiroyli his tuyg'ularni ato eta oladigan bo'lishi kerak. Haykaltaroshlik asarlari – antik, klassik, turli xil tematik sahma asarlarini aks ettirishi hattoki abstrakt holatlarda bo'lishi ham muhim. Oxirgisini dekorativ-amaliy san'at yoki erkin ijodiy yo'nalishga bog'lash mumkin.



4.12 -rasm. Landshaft dizayni namunalari. (manbaa: www.pinterest.com)

Pog‘onali sharshara va ayvonchalar – bu relyefni o‘nkir-cho‘nqir joylarini tushayotgan suv va o‘simliklarni ishlatalishida relyefga o‘ziga xos ishlov berish uslubidir. Ular yaruslar va pog‘onalardan ishlanishi mumkin, muntazam va erkin (manzarali yoki abstrakt) kompozitsiyalarga ega bo‘lishi mumkin.




4.13 -rasm. Landshaft dizayni namunalari. (manbaa: www.pinterest.com)

Vazalar ham haykaltaroshlik asarlaridir. Ular bolyustradalarda, ayvonchalarda, maydonchalarda yoki maysazorning markaziga joylashtirilishi mumkin. Parklarni bezatilishi uchun yuqori badiiy namunalarni tanlanishi maqsadga muvofiq.



4.14 -rasm. Landshaft dizayni namunalari. (manbaa: www.pinterest.com)

Pergollar va barso – bular daraxtlarga, metal va boshka karkaslarga chirmashadigan o’simliklardan tashkil topgan yopiq xiyobon. Pergollarning tavsiya etilishi – mo’tadil soyalarda hordiq chiqarish, bog‘ va parklarning turli xil maydonlarini bog‘lashdir. Pergollar asosan muntazam parklarning jihozidir. Chirmashib o’sadigan o’simliklar sifatida – yovvoyi uzum, kulgum (xmel), turk loviyasi, dukkakli, ipomeya va boshqalar ishlataladi.



4.15 -rasm. Landshaft dizayni namunalari. (manbaa: www.pinterest.com)

Zamonaviy bog‘larda hamda parklarda engil dekorativ pergollarni uchratish mumkin, yuk ko‘taruvchi asosi temir beton, metall yoki plastikdan ishlangan besedka va trelyajlarni ham uchratish mumkin. Har bir holatda ular chiroyli bo‘lishi kerak va yashil qoplamga ega bhlmasligi ham mumkin

Kursilar – bog‘-park maydonining, skverlarning, xiyobonlarning, maydonlarning va boshqa obyektlarning zarur elementi. Ular alohida, guruhlar bo‘lib, aylana bo‘ylab yoki daraxt atrofida turishi mumkin. Kursilar odatiy geometrik formalardan to erkin formalargacha bo‘lgan kutilmagan ko‘rinishlarga ega bo‘ladi.



4.16 -rasm. Landshaft dizayni namunalari. (manbaa: www.pinterest.com)

Stendlar, yodgorlik toshlari, instolatsiyalar – boshqa elementlar kabi yashil maysalarga monand bo‘lib unga bo‘ysunishi kerak.

Kiosklar (do‘konchalar) – aholiy ko‘p yig‘iladigan joylarda joylashtiriladi. Ularning dizayni landshaft sitiliga mos kelishi va landshaft kompozitsiyalarni ko‘rinishiga xalaqit bermaydigan joylarda turishi va yashil maysalarga monand bo‘lib unga bo‘ysunishi kerak. Ularning arxitekturaviy dizayni zamonaviy an’analarga yoki antiqa dizayn stiliga yarasha bo‘lishi, landshaft sharoitiga munosib ranglardan va yengil konstruksiyalardan bajarilishini lozim.



4.17 -rasm. Landshaft dizayni namunalari. (manbaa: www.pinterest.com)

Panjara devor (ixotalar) – perimetr bo‘ylab haqiqatda zarur bo‘lgan holatlarda qo‘yiladi. U yuqori badiiy qadr-qimmatga ega bo‘lishi kerak.



4.18 -rasm. Landshaft dizayni namunalari. (manbaa: www.pinterest.com)

Qo‘yiladigan asosiy talablar – landshaftni kichik arxitekturaviy va dekorativ shakllar bilan haddan tashqari bezatilishiga harakat qilish kerak emas, faqat katta ma’lumot yuklatilgan obyektlar bundan mustasno bo‘lishi mumkin, misol uchun – tematik bog‘ va parklar.

Kichik shakllarga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri, ushbu hududning yashil o‘simgiliklari, relyef va landshaft kompozitsiyalarining shakllari bilan uyg‘unligiga erishishdir. Ular atrof-muhitga nomutanosiblikni olib kirishi kerak emas, arxitekturaviy-landshaft kompozitsiya stilistikasiga to‘la javob berishi kerak.

Kichik arxitekturaviy shakllar ixtiyoriy arxitekturaviy shakllarni – kirish qismidan, pavilyon, ratonda, galereya, supalar (besedka), bolyustradalar, fontanlar yoki ko‘prikchalardan moy vaza, fonarlar, panjarali to‘sıqlar, o‘rindiqlar va boshqa ko‘rinishlarda aks ettirishi mumkin.

V-BOB. BINO INTERYERI.

Interyer tashkil etilgan fazoviy kenglik sifatida faqat arxitekturaning ajralmas qismi bo‘libgina qolmasdan, balki arxitekturaning boshlang‘ich asosi deb ham ataladi. Tarixiy tarzda to‘plangan tajriba va hozirgi vaqtdagi voqelikning guvohlik berishiga ko‘ra intererning yechimi avval ham, bundan keyin ham arxitekturaviy faoliyatning ajralmas qismi bo‘lib qolaveradi, o‘ziga xos ichki muhitni yaratishda turli ixtisoslikda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar – texnologdan boshlabrassom (musavvir) va dizaynerni o‘z tarkibiga birlashtirishdek vazifani bajarishda yetakchilik qilish roli intererga tegishlidir. Interer muhit sifatida ichkaridan qabul qilinadigan arxitekturaviy shaklning estetik qonuniyatlariga asoslangan holda tashkil etiladi. “Interyer”ning arxitekturaviy ob’ekt turiga (xona; bino va h.k.) bog‘liq bo‘lgan tabaqalashgan tushunchasi muhitning ma’lum bir turini (ko‘rinishini) joylashtirishning aniq usulini belgilashdan iboratdir.

Interyerning estetik shakllanishining jihatlarini anglash uchun ichki muhit tashkil etilishining o‘ziga xosasini chuqur o‘rganish talab etiladi.

Zamonaviy qurilish sifatini oshirish sharoitlarida sun’iy muhitning nafaqat funksional, balki estetik tomonlari ham alohida katta ahamiyat kasb etadi. Odamlar hayotining aksariyat qismi o‘tadigan intererning yechimiga arxitekturaning sifati, uning o‘ziga xos mazmunining qabul qilinishi va san’at sifatida baholanishi ham bog‘liq bo‘ladi.

Interyer loyihasi nafaqat rangli ko‘rinishda, balki, chizmalar ko‘rinishida ham bajariladi.



5.1 -rasm. Interyer dizayni namunalari. (manbaa: Toshkent mahalliy aeroporti)



5.2 -rasm. Interyer dizayni namunalari. (manbaa: Toshkent mahalliy aeroporti)

5.1. XONANI FUNKSIONAL ZONALARGA AJRATISH

Ichki fazoviy kenglikni tashkil etish masalalari va interyerning shakllanishini tugallagan arxitekturaviy kompozitsiya sifatida qator talablardan ajratish mumkin emas, chunki shu talablarning bajarilishi evazigagina bu kenglik vujudga keltiriladi. Katta mablag‘ va ko‘p hajmli inson mehnatini talab qiladigan qurilish sohasi hamisha ma’lum maqsadlarni oldindan ko‘zda tutadi.

Xonalarning o‘zaro bog‘liqligi, jihozlar va ularni joylashtirishga doir savollar, zarur bo‘lgan kenglikning o‘lchamlari va shakli(formasi), yoritish va aqstika-bularning hammasi ilmiy asoslangan talablar bo‘lib, ular jamoat va turar-joy binolarining har bir turi uchun alohida ko‘yiladi.

Zamonaviy ilmiy bilimlar orqali aniqlanadigan xonaning funksional jihatdan maqsadga muvofiqligi unga birinchilar qatorida qo‘yiladigan eng muhim va albatta bajarilishi lozim bo‘lgan talablardan biridir.

Zarur bo‘lgan fazoviy kenglikni va xonalarning parametrlarini aniqlash.Buning uchun binolarda amalga oshiriladigan jarayonlarning alohida stadiyalari har tomonlama tahlil qilinadi,jihozlar tanlanadi va ularni kenglikka joylashtirish masalalari echiladi.

Jarayonning o‘tkazilishi uchun zarur bo‘lgan optimal sharoitlarni yaratish.Buning uchun mikroiqlimga tegishli talablar, yorug‘lik hamda akustik komfortga qo‘yiladigan talablarning bajarilishi, psixologik moslashish talablari va ularni amalga oshirish imkoniyatlarini o‘rganish zarurdir.


Alohida xonalar va xonalar guruhlari o‘rtasidagi funksional o‘zaro bog‘liqlik sxemasini echish. Buning uchun kenglikdagi hamma bog‘lanishlar va harakatlanish grafiklari o‘rganiladi, odamlar oqimi va zarur bo‘lgan kommunikatsiyalar aniqlanadi.

Ob‘ektning nimaga mo‘ljallanganligi yoki ob‘ektning bajaradigan vazifalari orqali aniqlanadigan turar joy va jamoat binolarining ichki kengligiga qo‘yiladigan talablar hamma vaqt ham doimiy bo‘lavermaydi.Ular ob‘ektning ijtimoiy mohiyatiga bog‘liq ravishda vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi va yangi talablar bilan to‘ldiriladi. U yoki bu jarayonlarningbajarilishini ta’minalash va ma’lum komfortni yaratishga qodir bo‘lgan ichki kenglik jamiyat rivojining iqtisodiy va moddiy texnik darajasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqidir. Ijtimoiy talablar ichki kenglikning muhim tashkil etuvchilarini aniqlab beradi. Ichki kenglikka qo‘yiladigan amaliy talablar ob‘ektning ijtimoiy jihatlari bilan ham uzviy bog‘langandir. Shuning uchun ham antik uy va o‘rta asrlar saroyi, xorijdagi zamonaviy turar joy uylari va bizdag‘i jamoaviy turar joy uylari bir biridan keskin farq qiladi. Demak, xalq turmush darajasining ma’naviy va moddiy jihatdan o‘sib borishiga muvofiq ravishda turar joy uylari ham

takomillashib boraveradi. Shunday qilib, turar joyga qo‘yiladigan amaliy talablar bir vaqtning o‘zida unda istiqomat qiluvchilarning ijtimoiy mohiyati va turmush tarzini aks ettirib beradi.

Ofislarda ish joylarini loyihalash.


Xonani o‘rtasida “Atir gul” shaklida to‘rtta “Pilot” ish joyini birlashtirsak bu




jamoa masalalarini echishga qulay bo‘ladi. Ikki chetdan qoldirilgan ikkita yo‘lka xamma ish joylarga oson o‘tishni ta’minlaydi.

Xona markazidagi joylarni orqasida ikkita burchakda “Biznes” shaklidagi ish joyini ko‘rishimiz mumkin. Bu erda xona dizayni o‘rniga qo‘yilgan. Simmetrik ravishda ishlangan “Atir gul” to‘rtda pilotdan tashkil topgan. Orqa planda ikkita biznes ataladigan

stol qo‘llanilgan.






Agar xodimlar ish paytida ko‘p turish i, yurishi zarur bo‘lsa xona o‘rtasini ochib qo‘ygan ma’qul. Xamma ish joylari (6 ta) devorlar bo‘ylab qo‘yilgan. Bu variantda ham to‘rtda pilot va ikkita biznes qo‘llanilgan. Devordagi osma polkalar xona dizaynini boyitgan. 2.14. rasmida VITRA kompaniyasining ofis mebellari va ularni o‘zaro komponovka qilish yo‘llari keltirilgan.



5.3 - rasm. VITRA kompaniyasining ofis mebellarining o‘zaro komponovka qilish yo‘llari

Kompyuter qo'yiladigan stollar.



Biznes turidagi bu stol ofis va uylarga mo'ljallangan. Bunday stol ishi asosan va kompyuter bilan ishlashdan iborat bo'lgan xodimlarga mo'ljallangan (buxgalter, biznesmen, menedjer va x.k.). stol ustidagi qo'shimcha tokchalar (polochkalar) xar xil konselyar buyumlariga, disketlarga, kolonkaga mo'ljallangan.




Soho (soxo) modelidagi stolda uni chap tomondagi tayanchi stolni ustki taxtasini cheti bilan barobar olingan. Shunda stolni tagida enliroq joy qoladi. Stolni tagidagi tumbochka g'ildirakli ishlangan. Zarur bo'lganda uni oldiga tortib boshqa joyga qo'yish mumkin.

Pilot (pilot) turidagi stolda biznes modeliga qaraganda stolni ustidagi taxtasi va tokchalari o'rta o'qqa nisbatan simmetrik ishlangan. Bunday echim stollarni xonada o'zaro xar xil variantda blokirovka qilish imkonini beradi.

a

Для фигуры мужчины при
росте около 1750 мм

- A — требуется большая точность;
B — большое зрительное напряжение;
C — обычный рабочий стол;
В — компьютерный стол или большое
физическое усилие;
E — высота пространства для ног



5.4.- rasm. Faoliyatni turiga qarab stolni kerakli balandliklari keltirilgan.

5.2. RANG YECHIMLARINI HAL ETISH

Oq rang

Oq rang makonni o'zgartirish uchun ko'plab imkoniyatlarni beradi. Ichki makonda oq rang soddaligi, nafisligi va tozaligi bilan o'ziga jalb qiladi. Bu kenglik hissi yaratadi. Oq rang bir tomondan spektrning barcha ranglarini o'z ichiga oladi, boshqa tomondan juda kam rang mavjud. Uy uchun juda yaxshi bo'lgan pastel, engil, neytral ohanglar, shuningdek, oq yoki yaxshiroq, yorug'likni o'z ichiga oladi. Yorug'likka yoki tanlangan oq palitraga qarab, oq rang har xil bo'lishi mumkin: issiq, yangi, yumshoq, oshkora, provokatsion ...




5.5.- rasm. Interyer namuna (manbaa: <https://www.pinterest.com>)

Xonadagi oq rang derazadan kunduzgi yorug'likni yanada yorqinroq qiladi, xonada qorong'i joylar oq rangga aylanadi, oq fonda va oq bilan o'rالgan har qanday ob'ektni idrok qilish tinchroq va foydaliroq bo'ladi.

Oq rang minimalizm uslubida interyer yaratish uchun juda yaxshi. Ammo, agar oq rang juda ko'p bo'lsa, uning salbiy xususiyatlari kuchga kiradi: izolyatsiya, zerikish, qattiqlik, umidsizlik. Bunday bo'shliqda odam noqulay bo'ladi. Agar siz oq xonada yaxshi his qilishni xohlasangiz, oq rangni boshqa rangdagi narsalar bilan suyultirishingiz kerak. Bolalar xonalari va shifoxona xonalari uchun oq rangdan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Oshxonalar. Oq rangga bo'yalgan oshxona yorqin, salqin va toza havo bilan taassurot qoldirishi mumkin, ammo shu bilan birga u kasalxonaga o'xshaydi, ya'ni u erda bir stakan kofe ichish va do'stlar bilan suhbatlashish yaxshi bo'lmaydi. Agar sizda oq oshxona bo'lsa, uning oqligini rangli pardalar yoki rangli plitkalar bilan

suyultiring, meva va sabzavotlardan vazalar tayyorlang, ziravorlar va donli shaffof idishlarni iliq rangda joylashtiring.



5.5.- rasm. Interyer namuna (manbaa: <https://www.pinterest.com>)

Yuvinish xonasi. Oq hammom salqin tuyulishi mumkin, ammo echinish va suvga sho'ng'ish kerak bo'lgan joy emas. Oq devorlar quyosh nurini aks ettirishga qodir bo'lishiga qaramay, zamonaviy zamonaviy vannalar yopiq, kichkina, derazasiz xonalar mavjudligini inobatga olish kerak, shuning uchun oq rangdagi monotonlikni yorqin plitkali plitkalar yoki ko'p rangli sochiqlar bilan suyultirish kerak. Bundan tashqari, agar hudud imkon bersa, yuqori namlik talab qiladigan va juda ko'p yorug'likni (masalan, fern) talab qilmaydigan o'simlikni joylashtirishi mumkin.



5.6.- rasm. Interyer namuna (manbaa: <https://www.pinterest.com>)

Yotoq xonalari. Yotoq xonalarining ichki qismida oq rangni ishlatalish yaxshi, chunki u toza va tetiklantiruvchi, ammo yana, oq rangning ortiqcha bo'lishi kutilgan natijaga olib kelmasligi mumkin. Bunday yotoqxonada, og'ir kundan keyin dam olish va dam olish o'rniga, o'zingizni yolg'iz his qilishingiz mumkin. Yotoq xonasini toza emas, balki ba'zi bir soyalar bilan oq qilish yaxshiroqdir. Masalan, engil shaftoli rangi sizga dam olish imkoniyatini beradi. Qarama-qarshi rangdagi pardalar va rasmlar oqning ta'sirini yumshatishga yordam beradi, bu o'z-o'zidan qattiq va hatto haddan tashqari ko'p bo'lishi mumkin. Shuningdek, siz yotoqxonada turli rangdagi lampalarni va issiq rangdagi mebellarni joylashtirishingiz mumkin.



5.7.- rasm. Interyer namuna (manbaa: <https://www.pinterest.com>)

Qizil rang

Qizil rangning kuchli ogohlantiruvchi ta'sirini hisobga olgan holda, u ko'pincha harakat va faollik kutib olingan xonalarda: koridorlar, zinapoyalar, sport zallari va oshxonalarda qo'llaniladi. Biroq, qizilning barcha ijobiyligi ta'sirini his qilish uchun siz barcha devorlarni qizil bo'yoq bilan bo'yashingiz shart emasligini unutmasligimiz kerak. Uni qo'shimcha rang sifatida yoki tanlangan asosiy rangga urg'u sifatida ishlatish kifoya.



5.8.- rasm. Interyer namuna (manbaa: <https://www.pinterest.com>)

Qizil spektrdagи ranglar oshxonadagi joylar uchun juda yaxshi, chunki ular tuyadi oshirishga hissa qo'shamdi. Bundan tashqari, siz turli xil qizil ranglarni, masalan, terakotani zamin qoplamasi (plitka) sifatida ishlatingiz mumkin - bu odamlar va kompyuterlar bilan gaplashgandan so'ng tinchlanadi.

Xavfsizlik tuyg'usini beradigan qizil, masalan, pushti ranglardan foydalaning. Yotoq xonasi uchun pushti yaxshi.

Apelsin rang

To'q sariq rangni juda yorqin va qusursiz deb topganlar uchun uning soyalarini, ya'ni zang, shaftoli yoki ambergris ranglarini ishlatalish tavsiya etiladi. Ushbu soyalar to'q sariq rangga xos bo'lgan barcha fazilatlarni o'z ichiga oladi. Agar siz, masalan, yashash xonangizda, iliq va mehmondo'st atmosferani yaratmoqchi bo'lsangiz, to'q sariq ranglarni ko'k soyalar bilan birgalikda ishlating: mehmonlaringiz kechqurun davomida erkin va bemalol his qilishadi.



5.9.- rasm. Interyer namuna (manbaa: <https://www.pinterest.com>)

Sariq rang

Agar siz intellektual ish uchun, shu jumladan muharrir ishiga muhit yaratmoqchi bo'lsangiz, sariq rang ajralmas hisoblanadi. Biroq, ko'pincha xavfsizlik va osoyishtalik tuyg'usini o'zida mujassam etgan rang bilan birgalikda ishlatalidi - ko'k. Sariqning o'zi va juda ko'p miqdorda insonning asab tizimini rag'batlantiradi.



5.10.- rasm. Interyer namuna (manbaa: <https://www.pinterest.com>)

Sariq bolalar xonalari va xonalarida aqliy faoliyat bilan shug'ullanish uchun zarurdir, chunki u bilim qobiliyatini rivojlantiradi, fikrlash jarayoniga hissa qo'shamdi. Shuni yodda tutish kerakki, sariq rang qo'zg'atadi.

Yashil rang

Yashil rang u bilan birga bizning uyimizga tabiatning bir qismini keltiradi. Barcha ko'rinishlarida va soyalarida yashil rang har qanday xonaga yaxshi mos keladi. Bezashda ba'zi yashil ranglardan foydalanish tetiklantiruvchi bo'lishi mumkin yalpiz va akuamarin).



<http://nashdomik.net>

5.11.- rasm. Interyer namuna (manbaa: <https://www.pinterest.com>)

Yashil olma yoki ohak soyasi inson tanasiga ko'proq ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Ammo umuman olganda, yashilning barcha soyalari shisha va zaytun ranglari kabi quyuq soyalardan tashqari engil va quvnoq atmosferani yaratadi. Aksincha, ular xonaga tinchlik va xotirjamlik eslatmasini olib kelishadi.

Moviy rang

Moviy ijodkorlikni targ'ib qiladi. Shu munosabat bilan uni ish xonalarida, talabalar auditoriyasi uchun ishlatish tavsiya etiladi. Sarg'ish bilan ideal kombinatsiya, bu ongni uyg'otadi va kontsentratsiyani va tashkilotni oshiradi. Turkuaz rangi tinglovchilar bilan muloqotni osonlashtiradi - bu o'qituvchilar uchun juda yaxshi. To'q ko'k bo'shashishni va chuqur, tinch uyquni targ'ib qiladi. Faol hayot kechirish uchun xonalarda quyuq ko'k rangni ishlatmaslik kerak, chunki inson tanasiga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadigan ushbu rang bilan uxlاب qolish xavfi mavjud. Umuman olganda, ko'k va ko'k ranglarning deyarli barcha soyalari bo'shashgan joylarni yaratishi mumkin va ijodkorlikni ilhomlantiradi. Bularning barchasi ma'lum bir xonadan qanday energiya olishni xohlashingizga bog'liq.



5.12.- rasm. Interyer namuna (manbaa: <https://www.pinterest.com>)

Banyolar uchun ko'k ranglardan foydalaning. Xira ko'k, turkuaz ranglar xonani yanada ravshan va kengroq qilib, bo'shashish va xotirjamlik muhitini yaratadi.

Binafsha rang

Ushbu rang teatr interyerlarini yaratishga mos keladi, ko'pincha "binafsha" uy ahonisining ijodiy kayfiyatini aks ettiradi. San'at odamlari, rassomlar ko'pincha ustaxonalar dizaynida binafsha ranglar (xususan, binafsha) soyalarini ishlatalilar. Ushbu rang meditatsiya va ibodat uchun ham javob beradi.



5.13.- rasm. Interyer namuna (manbaa: <https://www.pinterest.com>)

Qora rang

Intererdagi boshqa ranglar haqida gapiradigan bo'lsak, qora rang haqida gapirmaslik mumkin emas. Qora rangni asosiy ranglarga qo'shimcha sifatida ishlatgan holda, biz ba'zan uning inson tanasiga ta'sirini kuchaytirishda qanday rol o'yynashi haqida o'ylamaymiz.



5.14.- rasm. Interyer namuna (manbaa: <https://www.pinterest.com>)

Uy ichki makonini yaratishda qora rangni suiiste'mol qilmaslik kerak. Shift yoki barcha devorlar qora rangga bo'yalgan xonalarda yopiq joy va havo yo'qligi hissi yaratiladi. Xonaning o'zi tor va noqulay ko'rindi. Qora rang boshqa ranglarga ta'sir qilish uchun kuchaytirgich sifatida eng yaxshi ishlatiladi.

5.3 YORUG'LIK ME'YORLARI

Inson atrof muxitdan informatsiyani, asosan, ko'z orqali oladi.

Yorug'lik – ko'rish organlari informatsiyani olish uchun sezgir kanallarni qo'zg'atadi.

Inson organizmiga yorug'lik tetiklik (toniziruyuviy effekt) bag'ishlaydi, issiqlik almashuvini yaxshilaydi, immunno-biologik protsesslarga ta'sir ko'rsatadi. Yoritishni biz tabiy va sun'iyga ajratamiz.

Atrof muxitni tashqillashda bular bir qancha qoydalarga rioya qilishni talab etadi.

Mexnat jarayoni uchun tabiy yorug'likda xonada kulay sharoit yaratiladi va tashki muxit bilan shunday aloqa o'rnatiladiki odam vaqtini o'tishini sezadi. Agar xonada faqat sun'iy yoritish tashkil qilingan bo'lsa va xizmatchi smenani boshidan oxirigacha tabiy yorug'lik ko'rmasa uning psixomotorikasi zo'riqadi, koordinatsiyasi buziladi, vegetativ asab tizim faoliyati susayadi. Umuman olganda mexnat samaradorligi pasayadi.

Tabiy yorug'likda mexnat samaradorligi sun'iy yorug'lik sharoitiga nisbatan 10% yuqori. Podvalda joylashgan ishchi xonalarda 4 soatdan ko'p bo'lmaslik tavsiya etiladi.

Yorug'lik doimo bir meyorda bo'lishi (statik xolat) odamni tez charchashga olib keladi.

Tabiiy yoritishda odam hayotiy faoliyati normalligi ta'minlanadi. Ya'ni tabiiy yoritish sutka davomida o'zgaradi, dinamika xosil bo'ladi. Fiziologik protsesslar ritmik ravishta, ya'ni sutka rejimida o'tadi. Xonani yoritish intererni gabaritlarini, detallar rang yechimini xal qilishga ta'sir ko'rsatadi.

Ergonomikada odatda quyidagi texnik tushunchalardan foydalanishadi:

- Yorug'lik oqimi, lyumenda o'lchanadi(lm);
- Yoritilganlik - satxga atrofdan, yorug'lik manbaalaridan tushayotgan nur, lyuksda o'lchanadi (lk); 1lk barobar 1lm yorug'lik oqimi taqsimlangan 1m² satxga.
- Yorqinlik – fotometrik tushuncha, odamni ko'ziga psixologik ta'sir etuvchi satxdan qaytgan yoki lampalardan taraladigan yorug'lik oqimi satxni yoritilganligini, uni nur qaytaruvchi koeffitsentiga ko'paytirish orqali topiladi, kandelada o'lchanadi.

Qayd etilgan tushunchalar loyixalovchiga xonalarda yoritilganlikni tashkil qilish maqsadlarini amalga oshirishga imkon yaratadi:

- Xar xil faoliyat uchun optimal ko'rish sharoitini yaratib berish
- Atrof muxitni va intererni emotsional ta'sirchanligini birdek yaxlit ko'rishga yordam beradi.



5.15 Rasm. Xonalar va ishchi joylarini optimal yoritishning asosiy shartlari.

Ish joyida optimal yoritilganlik qo'yidagi asosiy parametlar bilan tavsiflanadi:

- Yoritilganlik darajasi
- Yoritilganlikni taqsimotlanishi, o'zgarishi

- Yorug‘likni yo‘nalishi
- Soyalarini taqsimlanishi
- Yaltirash zonalarni yo‘qligi
- Yorug‘likni, nurni rangi
- Rangni ifoda etish (ob’ektni rangini yoritilganlik orqali to‘g‘ri ko‘rsatish).
Ish joylarida tabiiy yorug‘lik qo‘sishimcha qo‘yidagi masalalarni bajaradi
 - Fiziologik (odamga ko‘rish, ishslash, ijod qilish imkoniyatini beradi)
 - Ekspluatatsion (vizual axborotni o‘qishga, anglashga yordam beradi)
 - Psixologik (yaxshi kayfiyat xosil qiladi)
 - Morfofunksional –odam organizmida D vitaminini xosil bo‘lishiga turtki beradi
 - Nekrobiotik – infektion tayoqchalarini, mikroblarni o‘ldiradi, ya’ni xonani sanatsiya qiladi

Yoritishni turidan qatiy nazar kerak bo‘lgan yoritilganlik darajasi quyidagi parametrlar bilan aniqlanadi.

- Ish paytida ko‘rish aniqligi – juda yuqori, yuqori, o‘rta va x.k., bular o‘z navbatida ob’ektni eng kichik o‘lchamiga bog‘liq, mmda - 0,15 kam, 0,15 - 5,5 ko‘p. Ko‘rishishni razryadi, 1-9 gacha;
- Fonga nisbatan ob’ektni ko‘rish kontrasti (yorug‘ligi farqi) kichik, o‘rta, katta;
- Fon tavsifi- to‘q, o‘rta, och;

Binolarni tabiiy yoritilishini loyxalash texnologik, mexnat va boshqa funsional jarayonlarini, bulardan tashqari qurish joyini yorug‘lik iqlimini batavsil o‘rganishga asoslanishi lozim. KMK 2.01.03.- 98da keltirilgan 1 jadvaldan ko‘rish tavsifi bo‘yicha ishni razryadi, yorug‘lik iqlimi, ob’ektni o‘lchamlarini aniqlash lozim.

Yonlama yoritishni kam va ko‘p qavatli turar joy, jamoat va sanoat binolarida xona cho‘nqirligini derazani tepasidan ishchi satxgacha bo‘lgan masofaga nisbati to‘rtidan oshmasa qo‘llash tavsiya etiladi.

Tepadan va kombinatsiya yoritishni ko‘pincha bir qavatli va qo‘pjanotli (3 va undan ko‘p) sanoat binolarda, xamda katta yuzaga ega bo‘lgan jamoat binolarida qo‘llash tavsiya etiladi.

O‘rindosh yoritish bu kunduzi xonani yoritish uchun bir vaqtda tabiiy va suniy yoritilishni qo‘llash. Sun’iy yoritish tabiiyga nisbatan ikkinchi darajali bo‘ladi.

Suniy yoritish

Odatda, sun’iy yoritish umumiy va maxalliy bo‘ladi va bu tizimlarni xisoblash aloxida o‘tkaziladi

Yoritkichlarni o‘rnatganda, ko‘lay yoritish sharoitini yaratish maksadida, qo‘ydagi qoydalarga rioya qilish zarur:

- To‘g‘ri yorug‘lik nurlari ko‘zga 30^0 dan kam burchakda tushmasligi lozim
- Satxga tushayotgan nurlar undan qaytib (yaltirish xosil qilib) ko‘zni kamashtirilmaslik kerak
- Odam soyasi uni ishchi zonasini qoplamasligi zarur

Tajribaga ega bo‘lmagan loyxaluvchilar yoritkich xar doim ish joyini chap tomonida joylashishi lozim deyishadi. Bu “o‘naqaylar” uchun to‘g‘ri, chapaqaylar uchun yoritkich o‘n tomonda bo‘lgani ma’qul.

Sun’iy yoritilishni asosiy kamchiliklaridan biri bu yaltirash.

Yaltirash ko‘zni qamashtiradi, atrof ko‘rinmay qoladi. Yaltirash tufayli o‘qishni samaradorligi uch soatdan so‘ng 80%ga kamayadi, yaltirash yo‘q qilingan bo‘lsa, samaradorlik bor yo‘g‘i 10%ga kamayadi.

Yorug‘likni rangi yoki uni spektral tarkibi, yoritilgan predmetni ko‘rinishiga jiddiy ta’sir qiladi.

Xonalarni, ochiq maydonlarni, u yerdagi aloxida zonalarni va jixozlarni yoritish va yaltiroq-rangli effektlar yaratish yorug‘lik texnikasi va jixozlar bilan amalga oshiriladi. Bu jixozlar quydagilardan iborat: yoritkichlar (ularni ichidagi lampalar), ularni maxkamlaydigan, o‘rnatadigan armatura, elektrik qism(elektr tarmog‘i, o‘chirib – yokuvchilar, yorug‘likni) o‘zgartuvchilar, rozetkalar va x.z.



Yoritkichni asosiy funksional elementi – yorug‘lik manba’si. Xonalar uchun asosiy yorug‘lik manba’lari quyidagilar(qarang 1.9 rasmga)

- Qizib yonadigan, nur tarqatadigan lampalar
- Galogen lampalar
- Lyuminessent figurali va naychali lampalar.

5.4. MEBELLAR JOYLASHUVINI HAL ETISH


So‘ngi davr mebeli texnikani yangi yutuqlari va mexnatni tashkil qilishdagi o‘zgarishlarni xisobga olgan xolda yaratilmoqda. Agar 1990 yillarda shaxsiy kompyuter xar bitta stolda paydo bo‘lgan bo‘lsa, xozir-portativ kompyuterlar, tekis ekranlar, mobil telefonlar, simsiz aloqa vositalari. Umumiyligi tendensiya – kichkina, mobil ishchi stollarga o‘tish. Bu stollarni konkret xizmatchiga balandlik va kompanovka bo‘yicha mos keltirish oson. Stolga turli elementlar qo‘shiladi (tumbochka, shkaf, muloqat uchun stol va stullar).

Ofis xizmatchisi umr davomida stol yonida 80 ming soatdan ko‘p vaqtini o‘tkazadi, shuning uchun sog‘lom ish muxitini ta’minlovchi stol va ishchi kresloga shunchalar katta e’tibor beriladi. Ish paytida tana xolatini o‘zgartirish imkoniyati (stolni balandligini o‘zgartirish, suyanchig‘ va o‘rindiq xolatini o‘zgartirish), o‘tirganda gavdani to‘g‘ri tutish, belda va yelkada og‘riqlar paydo bo‘lishini oldi olinadi va butun ish kuni davomida yaxshi kayfiyat, ishchanglik saqlanib turadi.



5.16 rasm. Ofis mebelini assortimentlari

- ko‘p funksional ish joylari (individual ijodiy ish va mijozlar bilan muloqat uchun)
- raxbarlar kabineti uchun prestij komplektlar
- qabulxona, dam olish xonasi va buyurtmachi bilan gaplashuv xonalari uchun mebel garniturlari.



5.17. rasm. Osma elementlari bor devorlar

Ofisda ish joylarini loyixalash bo'yicha tavsiyalar o'rniga xalqaro standartlarga asoslangan VENE kompaniyasi ishlab chiqqan ofis mebel to'plamlarini ko'rsatish mumkin. Yevropa Ittifoqining tavsiyasi – "ish joyining jixozlari minimal xarajatlar bilan maksimal ish operatsiyalarini bajarish imkonini berishi lozim". 1 kishiga $2m^2$ yuzani jixozlar bilan egallaydigan joy – bu yagona standart. Bu yuza stol satxini va bir xizmatchi egallaydigan satxni o'z ichiga oladi. Bu joyni eni taxminan 100 sm.

Ish joyini loyixalashda muxitga bo'lgan tashkiliy va individual talablarni xisobga olish zarur. Bu talablarni negizida yuqorida qayd etilgan gabarit va kompanovkali o'lchamlarni ma'lum darajada egiluvchan o'zgarish tamoyillari yotadi.

Ish joyidan to'la foydalanish uchun asosiy o'lchamlagaga yana printer, kseroks, qog'ozlar turadigan shkaf egallaydigan yuza qo'shilishi lozim. Bundan

tashqari tashrif buyuruvchilarni qabul qilish joylari va isitish, ventilyatsiya tizimlaridan yengil foydalanishni ta'minlovchi masofalarni, yo'laklarni o'lchamlarini xisobga olish zarur.

Ofisda yeng qulay ish joyi deraza oldida joylashadi. Ish joyini maksimal oynadan uzoqligi (L) derazani yuqori nuqtasini ish satxidan balandligiga (Hg) bog'liq.

L ni Hg nisbati 4 dan ko'p bo'lishi kerak emas. Misol uchun, derazani tepasi ish satxidan 2m balandda bo'lsa derazadan eng uzoq joylashgan ish stoli $L=Hg*4=2m*4=8$ metrdan ichkari joylashishi tafsiya etilmaydi. Devorga qarab o'tirishni xam o'z avzalliklari bor, chunki stolga yondoshgan devorni individual ravishda bezashingiz mumkin.

Umumiy talablarga qarab va xar bitta stolni axamiyatini inobatga olgan xolda ish joylarini eng tarqalagan uch xilda qo'yishni taklif etiladi. I-shakilda, T-shakilda va bir necha qator. Standart ish joyini yuzasi modul birligi sifatida qo'llanishi mumkin.

Zamonaviy texnik jixozlar ish xonasida fiziologik komfort (sun'iy yoritish akustika, konditsiyalash) masalalarini talab darajasida yechishga imkon beradi. Ammo bir xonada bir-nechta yoki o'nlab odamni samarali mexnat qilishi uchun psixologik iqlimi yaratish muammolari xozir ham dolzarb bo'lib turibdi.

Bu yo'nalishda ma'lum darajada ishlar qilingan. Misol uchun maxsus ekranlar, to'siqlar, shkaflar yordamida ish joyida individual mikrofazolar yaratilgan.

Konstruktiv yechimi va qo'llanilgan materiallari zamonaviy bo'lgan ofis to'siqlari tizimi keng imkonyatlar yaratadi. Ular qisqa muddatda katta xarajatlarsiz, ofis xonalariga funksional talablar o'zgargan xolda, ish joylarini qayta tashkil qilish imkonyatlarini beradi. To'siqlar shovqinni ancha kamaytiradi, psixologik komfortni yaratadi, natijada ish samarasi oshadi. Bunday to'siqlarni asosiy elementlari: alyuminiy profili (buyurtmachi xoxishiga qarab bo'ladi), dekorativ qoplamlari panellar, turli derazalar (bittali, qo'shtabaqali, jalyuzi qo'llanilgan, shaffof, rang berilgan, yarim shaffof plyonkali, tovushdan ximoya qiladigan materiallar bilan); eshiklar – bir tabaqali, ikki tabaqali, shishadan va x.k.

Konkret sharoitlar talabi bo'yicha xona tarxini, funksional zonalarni qiyinchiliksiz o'zgartirish imkoniyati, ya'ni ofis fazosini erkin ravishda o'zgartirish, ish joylarini turli variantda komponovka qilishga asos bo'la oladi.

Ish joyini komfortiga psixologik xavfsizlik talablari xam ta'sir ko'rsatadi. Ular ichida "yopiq" yelka va xonani erkin kuzatish. Muximi ishlayotgan odamga, ayniqsa u devorga qarab o'tirgan bo'lsa, to'satdan kelmaslik kerak. Agar ofisda erkin loyixalash tamoyili qo'llanilgan bo'lsa, bu talablar chekinadi.

O'tirish uchun mebel, o'z vazifasiga qarab, quyidagi detallarga ega bo'lishi mumkin: o'rindik, suyanchig', boshqo'ygich, ko'lqo'ygich.

O'tirish uchun mebelni ko'ndalang kesmasidagi shakli (profil)odamni antropometrik xususiyatlariga qarab olinadi, ya'ni o'rindiq profili odam soni shakliga mos bo'lishi kerak.

Profillanmagan (tekis)o'rindiq ishlatish ruxsat etiladi.

Dam olish kreslolarida o'rindiqni oldi (1/4) qismini oldi tomonga egib, orqa qismini odam surilib ketmasligi uchun bir oz orqaga bukib ishlangani ma'qul. Ko'ndalang kesmada o'rindiqni shu qismini odam tosini shakliga moslab bir oz ichkariga botirib ishlash tavsiya etiladi. Stul va ishchi kreslolarda o'rindiqni orqa(1/4) qismini bir oz tepaga qo'tarib va oldi qismini pastga qaratib xamda shu qismini oldi raxini ko'ndalang kesmada aylana shaklida ishlash tavsiya etiladi.

O'tirg'ichni balandligi (H_o) va shundagi tayanch nuqtani ($H_{t.n}$) balandligi o'lchamlari bir oz farqlanadi.

O'rindiq balandligi (H_o)-bu undagi eng yuqori nuqtani poldan balandligi; o'rindiq tayanch nuqtasini balandligi ($H_{t.n}$)


- bu suyanchig'dan taxminan 120 mm narida joylashgan odam tosini asosiy tayanch nuqtasini poldan balandligi.

- o'rindiq balandligi odamni poldan tizzagacha bo'lgan o'lchamdan ko'p bo'lishi kerak emas. Bunda oyoq kiyim poshnasi balandligi ham xisobga olinadi. Pastroq o'rindiq ko'proq odamlarni talabini qondiradi. Bo'yi baland odamlar past


o'rindiqa tezroq moslashadi, aksincha bo'yи past odamlarni yuqori o'rindiqqa moslashishi qiyiin.

- Insonni antropometrik o'lchamlariga qarab o'rindiqlarni quyidagicha farqlashadi:

- past o'rindiq – poldan balandligi 350-390 mm,
- optimal o'rindiq -391-450 mm
- baland o'rindiq- 451-480 mm



Комплекс мебели, образующей пространственно обособленные зоны



5.18.rasm. Xona funksional zonalari orasidagi to'siq shkaf.

Agar o'rindiq balandligi o'zgaruvchan ishlansa uni parametrlarini-380dan -530 mm gacha o'zgaradi.

Bolalar uchun o'rindiq balandligini Ye.Arkin formulasi orqali topish tavsiya etiladi.

Stul suyanchig'ini o'rindiqdan balandligini 320 mm gacha bo'lsa bu suyang'ich; 320 mm dan 420 mm gacha - o'rtacha balandlikdagi suyanchig', 420 mm dan yuqori bu baland suyanchig'.

Suyanchig‘ni eni 280-320 mm, o‘rtacha suyanchig‘ini eni 300-400 mm, o‘rtacha olinadi(qarang 2.2 rasmni).

Qo‘l qo‘ygichlar o‘tirayotganda va turayotganda ko‘l va tana uchun tayanch rolini o‘ynaydi, o‘tirganda qo‘l dam olishi uchun xizmat qiladi.

Qo‘l qo‘ygichlar: past 110-175 mm, o‘rta -180-240 mm va baland 250-420 mm turlariga ajratiladi.

Qo‘lqo‘ygich uzunligi (oldi qirradan to suyanchig‘gacha) 300 mm dan kam olinmaydi. Ishchi kresloda qo‘l qo‘ygich uzunligi 180mm dan kam bo‘lmasligi lozim.

Qo‘l qo‘ygich eni 50-80 mm olinadi.

O‘tirish uchun mo‘njallangan mebellari bo‘rchak parametrlari.

O‘rindiq qo‘layligi ko‘p jixatdan suyanchig‘ bilan o‘rindiq o‘rtasidagi, o‘rindiq qiyaligi burchak parametirlariga bog‘liq.

Suyanchig‘ni vertikalga nisbatan qiyaligi aqliy mexnat uchun -8-15°, ovqatlanish uchun -0-14°, tomosha uchun 13-24°, televizor ko‘rish -24-45°; xarakatsiz dam olish uchun -45-70° olish tavsiya etiladi.

O‘rindiqni suyanchig‘ tomon qiyaligini stillarda, ishchi kreslolarda 3-5°, dam olish kreslolarda, agar uni suyanchig‘i o‘rta balandlikda bo‘lsa-4-15°, suyanchig‘ibaland va boshqo‘ygichi bo‘lsa- 4-35° ga teng olish tavsiya etiladi.

Past va o‘rta balandlikdagi kreslo va divan suyanchig‘larni qiyaligi maksimal ravshda 24° gacha olinadi.

Agar suyanchig‘ni 24° dan ko‘proq og‘dirmoqchi bo‘lsangiz uni balandligini oshirib bosh qo‘ygich o‘rnatish lozim.

Stul va ishchi kreslolarda o‘rindiq va suyanchig‘ o‘rtasidagi burchakni 95-110°, divan va dam olish kreslolarda, suyanchig‘ balandligi o‘rtacha bo‘lsa, -90-113°, baland suyanchig‘da 98-125° olish tavsiya etiladi.

ATAMALAR LUG‘ATI

Absolyut rang- toza ochroq va toza to‘q, ya’ni ochroq ham, to‘qroq ham bo‘lмаган rang. Osval’dni xulosasi buyicha toza och va toza to‘q ranglarni o‘rtasi. Adaptatsiya – ko‘zning yorug‘likka, qorong‘ulikka yoki rangga moslanishi. Misol uchun qorong‘i joydan yorug‘likka chiqgach ko‘z ancha vaqtgacha yaxshi ko‘rmaydi. Oradan bir necha daqiqa o‘tgandan so‘ng muhitga moslashadi. Shuningdek qorong‘u joyga kirganda ham xuddi shunday kechinadi.

Absorbtсиya – biror yuzaga tushayotgan nur, uning jism molekulalari tomonidan yutilishi.

Additiv aralashma - ikkita bir biriga qarama- qarshi (ko‘k va zarg‘aldoq) ranglarni optikyo‘l bilan qo‘shganda hosil bo‘lgan rangsizlik, ya’ni oq rangga aytildi.

Akvarel buyog‘i - tarkibi: yelim, o‘ta mayin pigment, dekstrin, glicerin, asal’ kabi aralashmalaridan iborat bo‘lib, suv bilan aralashtiriladi. Quruq, yarim suyuq, suyuq holatlarda ishlab chiqariladi. Akvarel’ bilan quruq yoki ho‘l qog‘ozga ishlanadi. Guash’ buyog‘i bilan qo‘shib ishlatish mumkin.

Axromatik ranglar - kulrang va oq ranglar. Badiyot vositalari - musavvir barcha tasviriylar va badiyot uslublarini o‘z asarini ifodalash uchun ishlatadi. Bunday vositalarga kompozitsiya, perspektiva, proportsiya, soya – yorug‘lik, rang, faktura, shartlilik va h.k.lar kiradi deyish mumkin.

Arxitektonika (grekchadan olinganda – qurilish san’ati ma’nosini beradi) – umumiy ko‘rinishda, o‘ziga xos konstruktiv tizimda og‘irlikka va tayanchga nisbatan, qonuniylik qurilishida badiiy ifodalikning birligi. Tor ma’noda arxitektonika – shakllar birligi, konstruksiya va material.

Arxitekturaviy bionika – shakllarni tashkil etishdagi funksional tizimning uyg‘un shakllantirishning tadqiqot tamoyili, biologik ilmning tarmog‘i

Assimmetriya - hajm fazoviy elementlarning simmetrik bo‘lмаган holdagi joylashuvi va o‘zaro tarkibi.

Burash, aylantirish – oddiy simmetrik shakllarning o‘ng yoki chap tomonga deformatsiyasi. Shakl uning plastikasiga mos ravishda yangi fazoviy orientatsiyaga ega bo‘ladi. Aylantirish darajasi sarflangan kuchga bog‘liq bo‘ladi.

Burilgan joy – dastlabki simmetrik shaklning deformatsiyasi qaysiki, natijada uning sirti va qiyshiq chiziqli o‘zakka ega bo‘ladi.

Burmalar - bu yuza qismning egilishi, uni qisish jarayonida yuzaga keladi.

Diffuziya – yorug‘lik biror yuzaga tushganda va undan qaytayotgan nurlar tartibsiz qaytsa (notekis yuzada) bu diffuziyali aks etish deyiladi.

Dizayn - (loyiha - fikr) asosiy maqsadi uyg‘unlashgan jismlar muhitini yaratish. Shuningdek insonning moddiy va ma’naviy, estetik talablarini qondirishga qaratilgan ijodiy faoliyat turlaridan biri.

Egiluvchanlik – materialni shaklini egiluvchanlikdagi harakati ostida o‘zgartirish.

Eskiz – bo‘lajak asarning homaki qoralamasi. Har bir badiiy asar eskizlashdan boshlanadi va eskiz o‘z yechimini topgandan so‘ng shu asosda ishlanadi.

Estetika – san’at va badiiy ijodiyotdagi nafosat, tabiat va hayotdagি go‘zalliklar haqidagi falsafiy ta’limot.

Faktura - biror jismning sirti, yuzasini silliq yoki g‘adir – budurligi. Shuningdek, ranglar ham fakturalik ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, issiq, yengil ranglar oldinga intiluvchi, fakturalik ranglarga kiradi, og‘ir va sovuq ranglar “fakturasiz” ko‘rinishga ega.

Fon - har qanday jism o‘z foniga ega buladi. (tasviriy san’atda) kuzatilayotgan jism albatta biror fonga nisbatan yaqqollashadi. Masalan: Daraxtni orqasidagi imorat yoki osmon uning foni hisoblanadi.

Formalli kombinatorika– ob’yektning morfologik sifati o‘zgarishiga qarab barcha mumkin bo‘lgan operatsiyalar (shakllar, konfiguratsiyalar, hajmlar, qismlarni joylashtirish va hokazo). Bunday operatsiyalarga quyidagilar tegishli: qismlar yoki bir butun elementlar o‘rnini almashtirish (joylashtirish); elementlarning bir-biriga mosligi va ularning sifatini tashkil etish; elementlar, bir

butunni tashkil etadigan miqdorini o'zgartirish; elementlar bazasini o'zgartirish (hajmli va geometrik detallar), material, fakturalar, ranglarni o'zgartirish. **Garmoniya** (o'zaro moslik) (qadimgi grekchadan garmonia) – qismlarni bir-biriga to‘g‘riliqi, mosligi

Grafika - tasvirij san’atning bir turi grafika, odatda oq - qora rangda ishlanadi yoki chegaralangan, shartli ranglarda ishlanib, asosan bosma usulda tasvirga tushuriladi.

Havo perspektivasi - jismlarni kuzatuvchi ko‘zdan uzoqlashgan holatida sodir bo‘ladigan rang jihatlari tashqi shakliy ko‘rinishining xiralashuvi, kuzatuvchi va kuzatuv ob’yekti o‘rtasidagi havo qatlaming quyuqlashishi oqibatidagi o‘zgarish.

Ijodiy faoliyat - har qanday san’at yoki adabiyot sohasidagi yaratuvchanlik faoliyatga ijodiy faoliyat deyish mumkin. Ijod albatta yaratuvchanlik bilan bog‘liq. Tasviriy san’atda musavvir kartina yaratadi, ya’ni u kompozitsion mavzu yechimini beradi. Agar biror tayyor shakldan ko‘chirilsa u ko‘chirma bo‘lib ijodkorlikga kirmaydi.

Illyuziya - tasviriy san’atda biror jismni tasvir orqali qayta eslatish, uning aynan shaklini jonli eslatish. Teatr sahnasida suv, quyosh, oy, yulduzlar, harakatdagi bulutlar va h.k.larning illyuziyasini tasvirlash.

Impressionizm- (francuz tilidan – ta’sirot) XIX – XX asrlarda tasviriy san’atdagi bir oqim. XIX asr oxirlarida boshlangan bu oqim tasviriy san’atda hukm surgan “akademizm” va “klassicizm”ga qarshi bo‘lib, jonli hayotiylikka, oddiy syujetlilikka muhitning o‘z go‘zallik holatida tasvirlashga intilganlar.

Inter’yer - binoning ichki ko‘rinishi. Xonalar, foye, koridor, va h.k.

Issiq ranglar - doiradagi sariq ranglardan binafsha ranglarga bo‘lgan, ya’ni sariq, zarg‘aldoq, qizil, purpur ranglar.

Joyni o‘zgartirish - soni va sifat tartibi bo‘yicha bir xil bo‘lgan elementlar, ob’yektlar, barcha elementlarga teng, biroq tartibi bo‘yicha va bu elemenlarning joylashish tartibiga qarab har xil.

Joylashtirish – ob'yeqtlar, son tartibi bo'yicha bir xil, biro? sifatiy tartibi bo'yicha, almashinuvi va joylashtirish tartibi bo'yicha turlicha. Tortib kengaytirish, cho'zish – shaklning geometrik o'zgarishi, lekin shunda ham bir tekislik o'zining ilk o'rmini saqlab qoladi (cho'zilish tekisligi). Uning boshqa barcha parallel tekisligi cho'zilish tomonga joylashtiriladi.

Kinetizm (grekchadan. kinetiko's – harakatga olib keladigan) – badiiy ijod turi, uning asosida shakl harakati, har qanday o'zgarishi, g'oyasi yotadi. Kinetizm sintez san'atiga intiladi.

Kinetik san'at - zamonaviy san'atda avangardlik yo'nalishi, fazoviydinamik tajribaga orientir oladi. Harakatlanish, yoritilish va jarangdor qurilmalarni estetik effektida yaratilishiga asoslanadi. 1920-30 yy. paydo bo'lgan (Tatlin V.E., A. Kolder), 60-yillarda rasmiy lashtirilgan (N. Sheffer, X. Le Park).

Kolorit – badiiy asarning rang tonlari jihatida tuzilishi. Rang tonlarining uyg'unligi, obrazliligi koloristik yechim issiq yoki sovuq tonlarda bo'lishi mumkin. Kolorit tomoshabinda zavquyg'otishi, kayfiyatiga har xil ta'sir etishi mumkin.

Kontrast- tonlarning bir – biriga nisbati, axromatik yoki xromatik ranglarni bir – biridan ajralib turishi; soya va yorug'likning o'zaro farqi; qarama – qarshilik, zidlik. Kontrast (keskin farq) – shakllarning, plastikaning o'lchami, rang, fakturaning keskin farqi.

Kombinatorika – bu topilgan turli birikishlarning (kombinatsiyalar), birga qo'shilishlarning, muayyan tartibda ushbu elementlarni joylashtirilishi usullari.

Kompozitsiya (lotinchadan «compositia»- tuzish, bog'liqlik ma'nosini beradi)– asarning badiiy mazmunini ochib beradigan vosita; shakl qismlarining garmonik o'zaro nisbati; asarni yaratish va loyihalash jarayoni.

Konstruktivizm (lotinchadan. constructio – qurish) – XX asr boshida ovrupa davlatlarida san'atlar qatorida paydo bo'lgan badiiy yo'nalish, asoschilari badiiy obraz asosini kompozitsiyada emas, balki konstruksiyada ilgari surganlar.

Massa (og'irlilik) – shakl o'lchamini (katta-kichikligini) assotsiativ qabul qilish.

Materialning formovkaga oid quvvati – uning quvvati detallarni qiyin fazoviy shakllarga maxkamlash va ishlangan narsani ekspluatatsiya jarayonida saqlab qolish.

Modul – bu o‘lcham birligi. Dizaynda modul – bu katta-kichiklik, qandaydir predmetning, mashinaning yoki inshootning, yana shuningdek detallar, tugunlar va elementlar hajmlar hisobidan kelib chiqib qabul qilish, qaysiki har doim tanlangan modulga nisbatan qisqa.

Modulli tizim – hisob-kitoblar uchun foydalanishda, modullar va hisobkitoblar qoidasining majmui.

Mutanosiblik - moslik, predmetlarning alohida qismlarini o‘zaro nisbatini aniqlovchi va o‘rtasida, o‘zaro uyg‘unlikni namoyon bo‘lishi.

Nyuans (frantsuzchadan. nuance – rang turi, sezilar-sezilmas o‘tish) – o‘xshaydigan elementlar xarakteristikasining bilinar-bilinmas farqi. Nyuans ranglarni bir – biridan juda nozik farqlanishi; yorug‘lik va soyaning biridan – ikkinchisiga sezilar – sezilmas darajada o‘tishi.

Og‘ir ranglar - ranglar bunday ranglarga qizil, binafsha, ko‘k, yashil, malla, qora kabi ranglar kiradi.

Och ranglar– oq kutbga tomon yakinlashgan sari ocharib borgan ranglar, oq aralashgan ranglar och ranglar turkumiga kiradi.

Op-ART (inglizchadan. Op-art – qisqartirilgan varianti Optical art – optik san‘at) – turli ko‘rishga oid illyuziyalarda foydalaniladigan, tekis va fazoviy shakllar xususiyatida barpo etilgan, XX asrning ikkinchi yarmidagi badiiy oqim.

Perspektiva - jismning forma va o‘lchamlari, shuningdek uning rang xususiyatlarini masofadan o‘zgarib ko‘rinishi. Ko‘z orqali idrok etilgan fazoviy jismlar formalarini tasvirlash qonuniyatlarini tadqiq etuvchi fan.

Pigmentlar - barcha bo‘yoqlar - metallar kukinlaridan tabiiy holda, ya’ni o‘simliklar tomirlari, yer yoki mayda hashoratlarni maxsus usulda yanchilib, ularning talqonlaridan tayyorlanadi. Bo‘yoqlar rang talqonlariga eylim qo‘silgan suv bo‘yoqlar, hamda emal’, yog‘ qo‘silgan, ya’ni yog‘li asosda tayyorlanadi.

Polixromiya - ranglar majmui, rang – baranglik.

Puantalizm- impressionist rassomlar (Pol Sin'yak, Sera va boshqalar) tabiatning ertalab, tush payti, kun botish ifodalashda rang “nuqtalari” dan foydalanganlar; issiq rang “nuqtasi” yonidan sovuq “nukta” qo‘yib, rang uyg‘unligiga erishish.

Ramz - obraz, ramziylik (tor ma’noda biror rangni ramziyligi, masalan O‘zbekiston bayrog‘idagi ranglar ramziy ifodalanadi, ya’ni osmon, yer, tabiat va h.k.)

Rang - bu jismning, ko‘rinish jihatdan xususiylik alomati. (Temir – kulrang, oltin- sariq, daraxt- yashil yoki qizil mato, ko‘k ko‘ylak va h.k.). Ranglar jismlarga quyosh nuri yoki sun’iy yorug‘lik tushish oqibatida o‘z harakterini namoyon qiladi. Quyosh nurida 7 xil spektr ranglari mavjud. Bular- qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, ko‘k, havorang, binafsha ranglar. Shuningdek inson tomonidan yaratilgan rang bo‘yoqlari turlari ham (sotuvda) 30 ga yaqin.

Rang doglari - biror yuzaga surtilgan, ma’lum maydonda o‘z xususiy ta’sir kuchiga ega rang dog‘lariga aytildi.

Rang konstantligi - biror jism rangini va uning umumiyligi ko‘rinishini xotirada saqlanib qolishi. Masalan, oqburni qizil yorug‘lik tushgandagi holatini kuzatayotganda uning haqiqiy o‘z rangining xotirada gavdalanib turishi.

Ranglar munosabati- ranglarning bir – biri bilan yonma- yon turishi yoki ranglarning o‘zaro muhitidagi bir – biriga ta’sirchanligi oqibatida yuzaga kelgan majmui.

Ranglar majmuasi - tasviriy asarda asos qilib olingan ranglar va undagi umumiyligi rang ohanglari. Masalan, asarda ikki yoki uch rang ohanglarilan, ya’ni qizg‘ish bilan ko‘kish ranglar.

Ranglar toni - xromatik ranglar o‘zining rang tonlari farqlanishi bilan bir biridan ajralib turadi. Masalan, absolyut yashil rangi oq qutbga ocharib boradi; qora qutbga uning rangi to‘qlashib, qoramtilr tuslanib boradi. Shuningdek rang tonlari bir– biriga qo‘shilganda bir – biriga yaqinlashadi. Agar yashilga ko‘k rang qo‘shilsa ko‘kish – yashil ton hosil bo‘ladi.

Remissiya - biror yuzaga tushayotgan, (masalan, bo‘rli emul’siyada bo‘yalgan yuza) yorug‘lik oqimining bir qismi o‘sha yuzada yutilsa bu holat yorug‘likning remissiyalanishi deyiladi.

Ritm (grekchadan rhythmos) – muayan ketma-ket, tez-tez takrorlanib turadigan, qandaydir elementlarning almashinushi.

Ritmik qator (statik va metrli ritm) – bu ritmnинг oddiy paydo bo‘lishi kompozitsiyada bir xil shakllarni ular orasidagi intervallarning tengligi qaytarilishi. Dinamik ritmik qator – bu ritmnинг elementlar o‘lchamini aniq matematik qonuniylikdagi va ular orasidagi intervallarning o‘zgarishi, murakkab paydo bo‘lishi.

Shaklni yuzaga kelishi – ayrim predmetlar tuzilishi (ajratish va qurilish) va funktsional, konstruktiv, fazoviy-plastik, texnologik tuzilishlarni tashkil etish

Simmetriya - shaklning o‘ng va chap qismidagi tengligi biron o‘qqa nisbatan bir xilda joylashuv holati

Siniq joy – dastlabki simmetrik shakllarning deformatsiyasi, ya’ni siniq joyni o‘qqa va yuzaga olib keladi.

Siljish – shaklni qayta o‘zgartirish, lekin shunda ham siljishning harakatlanmaydigan tekisligi qoladi. Uning boshqa parallel tekisligi siljish yo‘nalishiga o‘zi tomonga joylashtiriladi. Plastikaning zaruriy hajmi saqlanadi. Siljish ko‘لامи, kattaligi siljish tekisligi oralig‘idan mutanosib. Siljishning topshiriq o‘qi uchun yo‘nalishi va siljish ko‘lamini ko‘rsatib berish kerak, ya’ni o‘q yo‘nalishi oraligidagi burchak va joylashtirish tekisligining normalligi.

Siluet - soya profili yorug‘ fonda biror shaklning chegaralanib yaqqol ko‘rinishi, masalan: odamning qomati yorug‘ osmon fonida, yorug‘lik orqa tomondan tushayotgan holatda siluet bo‘lib ko‘rinadi. Umuman yorug‘ fonda chegaralanib turgan qoramtil tondagi figura yoki qora fonda oqarib, chegaralanib turgan figura.

Sirtqi tektonik tizim – berilgan shaklni qaytaradi va materialning plastik xususiyatiga, shuningdek konstruksiya xususiyatiga tayanadi.

Siqish – deformatsiya, shaklni o'rgartirishda ilova qilish o'rniga, shaklni o'zgartirishga zo'r berish. Plastika o'zgaradi, og'irligi saqlanadi.

Shaffof - tiniq narsa shisha, plastik, suv yoki shuning kabi yarqiroq jismlar. Sovuq ranglar - ranglar doirasidagi binafshadan yashil rangigacha, ya'ni: binafsha, ko'k, havorang, yashil ranglar kiradi.

Spektr - oynada yoki diffraktsion prizmadan o'tgan nurning 7 xil rangda ko'rinishi, quyosh nurining spektri.

Subtrakciya - ekranga spektr nurlar yuborilgan oqimni qizil fil'tr bilan to'silsa, u holda faqat o'sha qizil rang fil'trdan o'tadi. Qolganlari kamayib subtrakciya holati yuzaga keladi yoki qarama – qarshi ranglar ko'k bilan zarg'aldoq rangli nurlarni kesishtirganda oq rang yuzaga keladi. Ranglar o'chib subtrakciya holati sodir bo'ladi.

Tuzilish - ushbu tizimning eng ko'p bog'langan muhim elementlarning aks etilishi

Tektonika – konstruksiyada va ish materiallari shaklida badiiy ifoda etish.

Transformatsiya (lotinchadan transformatio – o'zgarish, o'zgartirish) – dinamikaga tayangan holda, o'zgarish harakatiga yoki uncha katta bo'limgan shaklning o'zgarishi, shaklning o'zgarish uslubi.

Ton - xromatik yoki axromatik ranglar toni, ular qoradan oqgacha bir necha yuzlab pog'ona tonlar farqlanishi bo'lishi mumkin. Shuningdek yorug'lik tonlari ham mavjud yorug'lik tushayotgan yuzada (cilindr yuzasida) bir necha tonlar farqlanishi mumkin; soyalar ham o'zaro tonlarning farqlanishiga qarab xarakterlanadi.

Tuyg'un ranglar - absolyut ranglardan qora qutb tomonga intilgan ranglar.

Uyg'unlik – ob'yektlar, son bo'yicha bir xil, biroq elementlar tartibi sifati bo'yicha turlicha va almashinuviga, tartibiga bog'liq bo'limgan.

Xromatik ranglar – o'z rangiga ega bo'lgan barcha ranglar, ya'ni kulrang, qora va oq ranglardan tashqari ranglar.

Qisish – qarama-qarshi cho'zilish, operatsiya. Qisish ko'lami qisish tekisligiga nisbatan oraliqiga mutanosib.

Qiyshiq chiziqli simmetriya – qattiq siqish, eglish, sindirish va burash operatsiyasi, hal qilish yo‘li bilan olingan, shaklni qayta o‘zgartirish.

O‘xhashlik simmetriyasi - shaklning o‘xhash bo‘lgan barcha qismlarini ko‘chirish parallel o‘rnini bir vaqtning o‘zida qismlar mastshabi va ular oraliqi kengatiriladi yoki qisqartiriladi.

Yengil ranglar - bunday ranglarga sariq – zarg‘aldoq, och ko‘k (havorang) kabilar kiradi

Yorqin ranglar - absolyut ranglardan oq qutbga tomon ocharib, yorug‘lanib borgan ranglar.

Yorug‘lik - tabiiy, sun’iy tarzda quyoshda, elektr lampada va boshqa yoritgichlardan taraladi. U sekundiga 300000 km tezlikda (havosiz bo‘shliqda harakatda bo‘lib, fotonlar oqimi, elektromagnit nurlanishning muayyan bir bo‘lagi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

Asosiy adabiyotlar:

1. Axmedov Sh.A., Salimova B.D.. Yo‘l to‘shamalarini qurish bo‘limi bo‘yicha kurs loyihalari va malakaviy bitiruv ishini mustaqil bajarishi uchun uslubiy qo‘llanma.
2. Xotamov A.T., Usmonov Q.T. Shahar hududlarini kompleks obodonlashtirish. Toshkent, TAQI. 2014 y. 160 b.
3. Adilova L.A. Landshaft arxitekturasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TASI, 2000. – 102 b.
4. Isamuxamedova, L.A. Adilova. Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi. I qism, darslik. – T.: Cho‘pon nomidagi nashriet-matbaa ijodiy uyi, 2009. – 160 b.
5. Inogomov B.I “Zamonaviy bino va inshootlarni loyihalash” Toshkent, 2010 y., o‘quv qo‘llanma.
6. Ubaydullayev X.M., Inagamova M.M. «Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari», Toshkent, 2009 y.
7. Ubaydullayev X.M, Xidoyatov T.A, Abduraxmanov Y.I, G.I. Korobovstev,
8. Saidov A.A. “Ergonomika” o‘quv qo‘llanma., Toshkent, TAQI. 2012.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

9. ShNQ 2.05.02-95 “Avtomobil yo‘llari” .Toshkent 2007 y.
10. ShNK 2.07.01- 03* «Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish» Toshkent- 2009.
11. Qodirova A.R. “Avtomobil yo‘llarini loyihalash” 1 va 2 qism 2001y, 2004y.
12. QMQ 2.01.01-94 Avtomobil yo‘llari spravochnigi.
13. QMQ 2.01.01-94. Loyixalashtirish uchun iqlimiylar va fizikaviy geologik ma’lumotlar. – Toshkent.: O‘zDavarxitqurilish qo‘mitasi, 1994.
14. Adilova L.A. Landshaft arxitekturasi. I qism. O‘quv qo‘l-lanma. – T.: «O‘zbekistan», 2009. – 108 bet.
15. Adilova L.A. Landshaft arxitekturasi. II qism, darslik. – T.: TASI, 2009. – 156 bet.
16. Mansurov Ya.M “Arxitekturaviy loyihalash” Toshkent, 2012 y., o‘quv qo‘llanma.
17. Нойферт.П., «Строительное проектирование», Справочник, М. «Архитектура-С», 2010 г.
18. Мухаммадиев Э.М. Рангшунослик (ўқув қулланма) СамГАСИ 2005.
Журнал “Декоративное искусство”, “Технологии дизайна”

19. Фрилинг Г., Ауэр К. «Человек – цвет – пространство» М.,2003
Л. Савахата «Гармония цвета. Справочник». М., 2003 г
20. Mirxamidov J.X. “Qurilish chizmachiligi” 1-2-qism. TAQI. 2005
21. Mirxamidov J.X. Alaviya G.U. Abidov X.T. “Perspektiva va perspektivada soyalar”
Toshkent. TAQI. 2005
22. Abidov X.T. “Chizma geometriya va injenerlik grafikasi” Toshkent-2015.
23. Abdullaev U. “Chizma geometriya va chizmachilik asoslari” Toshkent-1999.
24. Saidov A.A. “Ergonomika” ma’ruzalar matni.
25. Рунге В.Ф., Манусевич Ю.П. “Ергономика в дизайне среды”. Дарслик. Москва.,
МАРХИ. 2005.
26. ShNK 2-08.02-09.Jamoat bino va inshootlar.
27. ShNK 2-08.01-05.Turar joy binolari.
28. ShNK 2.07.01-03. Shaxarsozlik. Shaxar va qishloq axoli punktlari xuxudlarini loyhalash
va qurish
29. Федеральное государственное образовательное учреждение высшего
профессионального образования. МЕТОДИЧЕСКИЕ УКАЗАНИЯ. Свет в интерере.
Красноярск 2010
30. А.А Сайдов. Эргономика Учебное пособие. ТАСИ, 2014.
31. Ricardo B «Design is eternal discover», 2015.
32. Alvin R «Anthropometric dimensions». 2008.
33. “Эргономика: принципы и рекомендации”, методическое руководство,
М.ВНИИТЭ, 1981 г.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I. BOB. TANLANGAN XUDUDNI ZONALARGA AJRATISH.....	7
1.1. Yo'llar.....	8
1.2. Ko'kalamzorlashtirish.....	22
1.3. Landshaft rejalash.....	25
1.4. Kichik arxitektura shakllari va dekorativ qurilmalar.....	34
II. BINO TARHI.....	39
2.1. Funksional zonalarga ajratish.....	43
2.2. Shakliy yechim berish.....	49
2.3. Ekologik muhitlarni shakllanrirish.....	54
2.4. Tarhiy yechimdagi kontrast va nyuans.....	57
III. BOB. BINO TARZI.....	62
3.1. Kompozitsiya.....	63
3.2. Bino tarzidagi ritm tushunchasi.....	67
3.3. Rang yechimlarini hal etish.....	73
3.4. Bino tarzidagi kotrast tushunchasi.....	78
IV. BOB. BINO LANDSHAFTINI TASHKIL ETISH.....	83
4.1. Xududni funksional zonalariga ajratish.....	86
4.2. Ideya-Stilizatsiya.....	88
4.3. Landshaft dizayni shakllari o'rtaqidagi uyg'unlik.....	92
4.4. Kichik arxitekturaviy shakllar.....	98
V. BOB. BINO INTERYERI.....	105
5.1. Xonani funksional zonalarga ajratish.....	106
5.2. Rang yechimlarini hal etish.....	112
5.3. Yorug'lik me'yordulari.....	122
5.4. Mebellar joylashuvini hal etish.....	126
Atamalar lug'ati.....	133
Foydalilanilgan adabiyotlar.....	142

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	3
I. ГЛАВА. РАСПРЕДЕЛЕНИЕ ВЫБРАННОЙ ЗОНЫ ПО ЗОНАМ	7
1.1.Дороги	8
1.2. Озеленение.....	22
1.3. Ландшафтный проектирование.....	25
1.4. Малые архитектурные формы.....	34
II. ГЛАВА. ПЛАН ЗДАНИЯ	39
2.1. Функционал зонирования.....	43
2.2. Формальное решение.....	49
2.3. Формирование экологических сред.....	54
2.4. Контраст и нюанс.....	57
III. ГЛАВА. ФАСАД ЗДАНИЯ	62
3.1. Композиция.....	63
3.2. Ритм в фасаде	67
3.3. Решение цветовых задач.....	73
3.4. Контраст в фасаде.....	78
IV.ГЛАВА. ЛАНДШАФТНОЕ ПРОЕКТИРОВАНИЕ ЗДАНИЙ	83
4.1. Функционал зонирования территории	86
4.2. Идея-Стилизация	88
4.3. Гармония между формами ландшафтного дизайна	92
4.4. Малые архитектурные формы.....	98
V. ГЛАВА. ИНТЕРЬЕР	105
5.1. Разделить комнату на функциональные зоны.....	106
5.2. Цветовых решений интерьера	112
5.3. Стандарты освещения.....	122
5.4. Решить расстановку мебели.....	126
Глоссарий	133
Использованная литература	142

CONTENT

INTRODUCTION	3
I. CHAPTER. DISTRIBUTION OF THE SELECTED ZONE BY ZONES....	7
1.1.Roads	8
1.2.Landscaping-1.....	22
1.3.Landscaping-2.....	25
1.4.Small architectural forms.....	34
II. CHAPTER. BUILDING PLAN.....	39
2.1. Zoning functionality.....	43
2.2. Formal decision.....	49
2.3. The formation of environment.....	54
2.4. Contrast and nuance.....	57
III. CHAPTER. BUILDING'S FAÇADE.....	62
3.1. Composition.....	63
3.2. The rhythm in the facade.....	67
3.3. Solving color problems.....	73
3.4. Façade contrast.....	78
IV. CHAPTER. LANDSCAPE DESIGN OF BUILDINGS.....	83
4.1. Territory zoning functionality.....	86
4.2. Idea-stylization.....	88
4.3. Harmony between forms of landscape design.....	92
4.4. Small architectural forms.....	98
V. CHAPTER. INTERIOR	105
5.1. Divide the room into functional zones	106
5.2. Interior colors	112
5.3. Lighting standards	122
5.4. Solve furniture	126
Glossary	133
References	142